

ОБРАЗОВАНИЕ,

**НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ
В МИРЕ**

международный научный электронный журнал

*Выпуск журнала № 38
Часть-2_ Февраль -2024*

OPEN  ACCESS



ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ

международный научный электронный журнал

Февраль - 2024 год

ЧАСТЬ - 2



О‘ЗBEKISTONDA IPOTEKA KREDITLARI TAHLILI VA UNING IQTISODIYOTGA TASIRI

Suyunov Nuriddin Ismatullo o‘g‘li
Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki
bosh ofis xodimi

Annotatsiya: ushbu maqolada O‘zbekiston iqtisodiyot tizimida ipoteka kreditlari, ularning mazmuni, rivojlanishi, asosiy yo‘nalishlari va tahlillar natijasida iqtisodiyotdagi rivojlanishga ta‘siri xususidagi fikrlar berilgan.

Kalit so‘zlar: iqtisodiyot, ipoteka krediti, mulk bozori, kredit, garov, strategiya, rivojlanish.

Аннотация: В данной статье даны сведения об ипотечных кредитах в системе экономики Узбекистана, их содержании, развитии, основных направлениях и влиянии на развитие экономики в результате анализа.

Ключевые слова: экономика, ипотека, рынок недвижимости, кредит, залог, стратегия, развитие.

Aannotation: this article provides ideas on mortgage loans in the economy system of Uzbekistan, their content, development, main directions and their impact on development in the economy as a result of analysis.

Keywords: economy, mortgage, property market, loan, collateral, strategy, development.

KIRISH

Bugungi kunda butun jahon ko‘chmas mulk bozori o‘ta tez sur‘atlar bilan rivojlanib, tobora takomillashib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, Respublikamiz Prezidenti va hukumati tomonidan ko‘chmas mulkni baholash, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish, fuqarolarimizning mulkka bo‘lgan loqayd qarashlarini tubdan o‘zgartirish, mulkka egalik qilish, foydalanish va tasarruf etishdagi iqtisodiy va huquqiy savodxonligini oshirishga mustaqilligimizning dastlabki yillaridanoq alohida e‘tibor qaratib kelinayotganligi davlatimiz tanlagan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning «o‘zbek modeli» naqadar oqilona va uzoqni ko‘zlagan dastur ekanligini tasdiqladi. —Iqtisodiyotimizning jadal va mutanosib rivojlanib borayotgani aholi hayot darajasi va sifatini izchil oshirish uchun mustahkam zamin yaratmoqda¹.

Bugungi kunda butun dunyoda barcha xaridlar va xizmatlar kreditga amalga oshiriladi. Kredit tizimi ayni paytda ixtiyorimizda bo‘lgan pul mablag‘lariga bog‘lanib

¹ Karimov I.A. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan hususiy mulk va shahsiy mulk va hususiy tadbirkorlikkareng yol ochish-ustivor vasifamizdir. -Toshkent:O‘zbekiston, 2015 8-bet

qolmaslik, xohish-istaklarimizni ro'yobga chiqarishni ertaga qoldirmay, bugun va hozir yashash imkonini beradi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida insonlarni ehtiyojlari cheksiz yuksalib bormoqda. Bu ehtiyojlarni qondirish esa juda ko'plab sarmoya talab qiladi. Respublikamizdagi tijorat banklari bu ehtiyojlarni qarz evaziga ya'ni kredit olish yo'li orqali qondirish imkoniyatini bermoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizdagi tijorat banklar jismoniy shaxslarga iste'mol, ipoteka, hamda ta'lim kredit turlarini taklif etadi. Yurtimiz kelajagi va poydevori bo'lgan yoshlarga qulayliklar yaratish maqsadida banklar yosh oilalarga imtiyozli iste'mol, ipoteka hamda oilaviy biznesni tashkil etish uchun kreditlar ajratmoqda.

2016 — 2018-yillarda ipoteka krediti amaliyotining kengayishi 82 mingdan ortiq uy-joylarning foydalanishga topshirilishini ta'minladi, buning natijasida mamlakatimizning barcha hududlaridagi 400 mingga yaqin fuqarolar turar joy sharoitlarini yaxshilashga erishdi. Qishloq joylarda arzon uy-joylar va shaharlarda ko'p qavatli uylar, yosh oilalarga, harbiy xizmatchilarga, budjet tashkilotlari xodimlari va aholining boshqa toifalari uchun uy-joylar qurish bo'yicha davlat maqsadli dasturlarini izchil amalga oshirish davom etmoqda. Mazkur maqsadlar uchun respublikaning tijorat banklari tomonidan jami 10 trillion so'mdan ortiq ipoteka kreditlari berildi. Shu bilan birga, mamlakatimiz uy-joy sektorini rivojlantirish zarurati ipoteka kreditlarini taqdim etish mexanizmlarini takomillashtirish va aholining barcha qatlamlari uchun bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yuzasidan qo'shimcha choralar ko'rishni talab etilmoqda. Aholining turmush darajasini izchil oshirish, ipoteka krediti mexanizmlaridan foydalanish amaliyotini yanada takomillashtirish va kengaytirish, shuningdek, qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati va qurilish industriyasini rivojlantirish uchun qo'shimcha imkoniyatlar va rag'batlar yaratish maqsadida: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki bilan birgalikda O'zbekistonda ipoteka bozorini rivojlantirish dasturini 2019 — 2021-yillarda amalga oshirish konsepsiyasi ishlab chiqilganligi, uning doirasida bozor tamoyillari asosida uzoq muddatli barqaror ipoteka moliyalashtirish tizimini yaratish uchun OTB tomonidan 200 mln AQSh dollari miqdoridagi qarz mablag'lari ajratish nazarda tutilganligi oddiy misollardan biridir.

ASOSIY QISM

Ipoteka kreditini eng keng tarqalgan turi bo'lib, jismoniy shaxslarga turar uy-joy sotib olish uchun kredit berishdir. Bu kredit turida garov jismoniy shaxsning shaxsiy ko'chmas mulki yoki sotib olinayotgan ob'ektni o'zi ham bo'lishi mumkindir. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida belgilangan aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash darajasini oshirish maqsadlariga erishish katta hajmda xususiy investitsiyalarni talab etadi. 2030 yilgacha mo'ljallangan strategiyada urbanizatsiya darajasini 51% dan 60% ga yetkazish, Samarqand va Namangan shaharlarini "millionlik shaharlar"ga

aylantirish, hududlarda 1 million xonadonli uy-joylar qurish, “Yangi O‘zbekiston” massivlari sonini 100 taga yetkazib, qo‘shimcha 200 mingta oilaga mo‘ljallangan uylarni barpo etish hamda respublikada kamida 140 ming oilaga mo‘ljallangan ijtimoiy uylarni barpo etish rejalashtirilgan. Shuningdek, 2040 yilga borib mamlakatimiz aholi soni 48 mln kishiga yetishi kutilmoqda. Ushbu maqsadlarga erishish katta hajmdagi xususiy investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi. Shu bois, soliq imtiyozlari, qurilish jarayonlarini soddalashtirish va xususiy investitsiyalarni himoya qilish kabi chora-tadbirlar orqali qulay investitsion muhitni yanada yaxshilash lozim bo‘ladi. Shu bilan birga, uy-joy qurilish dasturlarini aholi soni o‘shishini hisobga olgan holda rejalashtirish, turli daromad darajasidagi oilalarga mo‘ljallangan turli xil uy-joy variantlarini taqdim etish muhimdir. Aholiga uy-joy sotib olish uchun ko‘proq moliyalashtirish imkoniyatlarini taqdim etish, jumladan, ipoteka kreditlarining shartlarini yanada yaxshilash va yangi moliyalashtirish usullarini joriy etish lozim.

Tahlillarga ko‘ra, Ipoteka va subsidiyalar olish imkoniyatlarining kengayishi aksariyat aholining uy-joy sotib olishiga katta yordam beradi. So‘rovda ishtirok etganlarning 72% uy-joy sotib olishda ipoteka va subsidiya, 19% bo‘lib to‘lash usulini afzal ko‘rishlarini bildirishgan bo‘lsa, faqatgina 9% respondentlar birdaniga to‘lash imkoniyatiga ega ekanliklarini aytishgan. Shuningdek, ipoteka kreditining asosiy muammosi sifatida 46% ishtirokchilar boshlang‘ich badal to‘lovlarini shakllantirishda, 20% ishtirokchilar esa kreditning oylik to‘lovlarini to‘lashda qiynalishlarini aytib o‘tishgan. Bu esa daromadi yuqori bo‘lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo‘lganlar uchun davlat tomonidan dastlabki badal va foiz to‘lovlarining bir qismi qoplash uchun subsidiya to‘lash tizimini joriy qilinishi ayni zaruriyat bo‘lganligini yana bir bor ko‘rsatadi. Respondentlarning 94% kelgusida uy-joylar narxleri oshishini kutishmoqda. Narxlar ko‘tarilishiga bo‘lgan bunday qat’iy ishonch uy-joy bozorini ko‘pchilik uchun potensial investitsiya imkoniyati sifatida ko‘rilishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bunday qarashlar odamlarning uy-joy sotib olish yoki sotish qarorlariga ta’sir qilishi mumkin, bu esa narxlarni yanada oshishiga olib keladi. 7. Aholi uy-joy bozorini rivojlantirishda asosiy islohotlarni davlatdan kutadi. So‘rovda qatnashganlarning 86% imtiyozli kreditlarni ko‘paytirish (54%), foiz stavkasini tushirish (27%) hamda subsidiyalar hajmini oshirish (5%) lozimligini ta’kidlashgan. Shuningdek, 6% respondentlar uy-joy bozorini rivojlantirish bo‘yicha takliflar qatorida uylarning texnik xavfsizligini oshirish (zilzilabardoshlik, liftlar va boshqalar) muhimligini sanab o‘tishgan. Ushbu tendensiya uy-joy sotib olishda “hozir sotib ol, keyin to‘la” tamoyili ommalashganidan, lekin “hozir jamg‘arib bor, keyin sotib ol” tamoyiliga asoslangan imkoniyatlar e’tibordan chetda qolayotganidan dalolat beradi.

Ko‘chmas mulk va ipoteka bozori mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasini va kelajakdagi o‘shish istiqbollarini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Ko‘chmas mulk sektori nafaqat iqtisodiy farovonlikning asosiy ko‘rsatkichlari sifatida

xizmat qiladi, balki aholining turmush darajasi va milliy iqtisodiyotning umumiy holatiga oid muhim ma'lumotlarni taqdim etadi. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar sharoitida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha davlat dasturlari, shu jumladan ipoteka kreditlari va subsidiyalar ajratish bo'yicha yangi siyosatni amalga oshirilishi, doimiy ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi hamda qurilish uchun yer uchastkalari ajratish tizimidagi islohotlarning chuqurlashtirilishi bilan ko'chmas mulk bozori izchil rivojlanib bormoqda. Natijada, so'nggi yillarda uyjoy va tijorat ob'yektlariga investitsiyalar hajmi bir necha barobar ko'paydi. Hukumat tomonidan ko'chmas mulk sanoatini rivojlantirish va iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini yaratish uchun xorijiy investorlarni ham jalb qilish bo'yicha faol choralar ko'rilmogda. 2017-2022 yillarda qurilish ishlari 86% ga o'sdi hamda qurilish sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 5,1% dan 6,3% ga yetdi. Xatto, 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ham qurilish sohasiga katta ta'sir o'tkaza olmadi. 2020 yilda iqtisodiy o'sish 2% gacha sekinlagan bir paytda qurilish ishlari real o'sish sur'atlari 9,5% ni tashkil etdi. O'zbekistonda ko'chmas mulk bozori jadal rivojlanib borayotgan bir sharoitda, ushbu soha bo'yicha ishonchli va eng so'nggi ma'lumotlarga talab ham ortib bormoqda.

XULOSA

Ko'chmas mulk va ipoteka bozori O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti va kelajakdagi o'sishining muhim ko'rsatkichidir. Ushbu maqolada uy-joy bozori dinamikasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar, jumladan, talab va taklif, uy-joy va ijara narxlari, davlat tomonidan qo'llabquvvatlash tizimlari va turli omillarning uyjoy qurilishi xarajatlariga ta'siri tahlil qilindi. So'nggi yillarda O'zbekiston uy-joy bozorida sezilarli o'sish kuzatildi. Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar doirasida aholini arzon uy-joy bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan davlat dasturlari uy-joy bozorini rivojlanishida asosiy omil bo'ldi. Hukumatning ushbu ko'magi rivojlanayotgan ko'chmas mulk sektori uchun zarur bo'lgan infratuzilma va me'yoriy-huquqiy bazani rivojlantirishda muhim rol o'ynadi. Davlat tashabbuslari aholining keng qatlamlari uchun uy-joy mulkdori bo'lish imkoniyatlarini yanada qulayroq qilib, yangi uy-joylar qurilishini osonlashtirdi. Bu sa'y-harakatlar uy-joy bozorini barqarorlashtirish va rag'batlantirish, kelajakdagi o'sish uchun mustahkam poydevor yaratishda muhim rol o'ynadi.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyotda keng ko'lamlil islohotlarni davom ettirish uchun moliyaviy resurslarning cheklanganligi sharoitida uy-joy bozoriga xususiy investitsiyalarning jalb qilinishi davlatning qarz yukini yengillashtirib, asosiy e'tiborni yanada ustuvor ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratishga imkon beradi. Shuningdek, uy-joy bozorini yanada rivojlantirish uchun xususiy investitsiyalarga tayanish bozor talablari va iste'molchilarning xohish-istaklaridan kelib chiqqan holda yanada xilma-xil va innovatsion uy-joy loyihalari uchun eshiklarni ochadi. Xususiy investorlar

bozorning turli segmentlariga mos keladigan raqobatbardosh narxlarni, yuqori sifat standartlarini va turli xil uy-joy variantlarini joriy etishlari mumkin. Rivojlanayotgan bozor sharoitida adolatli raqobat, sifat nazorati va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish uchun me'yoriy huquqiy bazani takomillashtirish talab qilinadi. Uy-joy bozorini rivojlantirish bo'yicha islohotlarning amalga oshirilishi bilan birgalikda o'z yechimini kutayotgan dolzarb masalar ham mavjud. 1. Arzon uy-joylarning yetishmasligi. O'tgan davrlarda aholining uy-joyga bo'lgan talabining yetarli darajada qondirilmaganligi hamda hozirda yangi uyjoylar qurilishi aholi sonining o'sish sur'atlariga to'g'ri kelmagani arzon uyjoylar yetishmasligiga sabab bo'ldi. 2. Uy-joy narxining yuqoriligi. So'nggi yillarda uy-joy narxlari tez o'sib, real daromadlar o'sishidan oshib bordi. Bu esa ko'pchilik aholining uy sotib olish imkoniyatini qiyinlashtirdi. O'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, uy-joy sotib olmoqchi bo'lgan fuqarolarning 66%i kredit bo'yicha dastlabki to'lov va foizlarni to'lashda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Uy-joy narxlarining 500 mln so'mdan oshishi aholining 80%dan ortig'ining uy sotib olish imkoniyatlarini pasaytirib yuboradi. 3. Uy-joy bozorida shaffoflikning yetishmasligi. Xaridorlar va sotuvchilar uchun uy-joy narxlari va mavjudligi haqida ma'lumotlar topish imkoniyatlari cheklangan. Uy-joylar qurilishini amalga oshiruvchi tadbirkorlik sub'yektlari, ular tomonidan qurilayotgan ko'p kvartirali uyjoylar, ulardagi kvartiralar soni, maydoni, qiymati va joylashuvi, ipoteka kreditlari va subsidiyalar kabi ma'lumotlarni taqdim etuvchi "ipoteka-bozori.uz" veb-portali to'liq ishlamayapti. 4. Uy-joy narxlari "pufagi xavfi". O'zbekistonning uy-joy bozori, ayniqsa Toshkent shahridagi vaziyat bir qator muhim tendensiyalarni ko'rsatmoqda. Toshkent shahrida ko'chmas mulk narxlari sezilarli darajada oshib bormoqda, bu esa "pufak xavfi" yuzaga kelayotganidan dalolat berishi mumkin. Toshkent shahrida uy-joy oldi-sotdi operatsiyalarning katta qismi xaridorlarning o'z mablag'lari hisobiga moliyashtirilayotganligi sababli "pufak xavfi"ning moliyaviy sektor barqarorligiga katta ta'sir ko'rsatish ehtimolligi past bo'lsa-da, narxlarning yuqoriligi uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj aholining imkoniyatlarini kamaytiradi. Shu bilan birga, Toshkent va Samarqand kabi viloyatlarda narxlarning sekin-asta oshib borayotgani Toshkent viloyatining poytaxtga yaqin hududlarida hamda Samarqand viloyati markazlariga yaqin hududlarda yuqori narxlarning "ko'chib o'tish" xavfini keltirib chiqarmoqda, ya'ni uy-joy narxlari ushbu hududlarda ham oshib borishi mumkin. Ushbu tendensiyalardan kelib chiqib, quyidagi strategik tavsiyalar taklif etiladi: 1. Uy-joy narxlari o'sishini nazorat qilish. Mahalliy hokimiyat organlari va tegishli idoralar tomonidan qurilishni rag'batlantirish orqali uy-joy taklifini oshirish, xususiylariga keng imkoniyatlar yaratib berish hamda bozor tamoyillariga asoslangan boshqa rag'batlantiruvchi choralar orqali narxlar o'sishini nazorat ostida ushlab turish lozim. 2. Investitsiya xavfsizligini ta'minlash. "Pufak xavfi"ni oldini olish uchun investitsiya xavfsizligini ta'minlash muhimdir. Bu, investitsiyalarni turli

sohalarga taqsimlash va qonuniy choralarni kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. 3. Infrastrukturani rivojlantirish. Poytaxtga yaqin hududlarda va viloyat markazlariga tutash hududlarda uy-joy narxlarining yanada o'sishini oldini olish maqsadida markazdan uzoqroq hududlarda infratuzilma va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish zarur. 4. Iqtisodiy diversifikatsiya. Narxlar barqarorligini ta'minlash va "ko'chib o'tish" xavfini kamaytirish uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va yangi ish o'rinlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. 5. Ipoteka va moliyaviy mahsulotlarni yanada rivojlantirish. Aholining uy-joyga bo'lgan talabini qondirish va narxlar o'sishini nazorat qilish uchun daromadi yuqori bo'lmagan va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj bo'lgan aholi qatlamlari uchun ipoteka va moliyaviy mahsulotlarni taqdim etish ko'lamini kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. 6. Uy-joy bozoridagi demografik o'zgarishlarni tahlil qilish. Aholining demografik xususiyatlari, masalan, yosh tarkibi, daromad darajasi va oilaviy holati, talab tomonidan uy-joy bozoridagi vaziyatga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, kelgusida bozor talabini prognoz qilishda ushbu omillarni hisobga olish muhimdir. 7. Bozor shaffofligini oshirish. Uy-joy bozoridagi ma'lumotlar shaffofligi va ishonchliligini oshirish, xususan narxlar, takliflar va sotish shartlari haqidagi aniq ma'lumotlarni taqdim etish, investorlar va xaridorlarning qaror qabul qilish jarayonini yaxshilaydi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“O'zbekiston — 2030” strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, PF-158 11.09.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2023-yilda bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta'minlash dasturini amalga oshirish choratadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-51 13.04.2023. <https://lex.uz/docs/-6433775>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ipoteka kreditidan foydalanishda aholiga qo'shimcha qulayliklar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarori, PQ-377 22.09.2022. <https://lex.uz/docs/-6203431>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llabquvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni, PF-8707.03.2022. <https://lex.uz/docs/-5899498>.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Uy-joylar qurilishini va qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori, PQ-139 21.02.2022. <https://lex.uz/ru/docs/-5871090>,
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022—2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Farmoni, PF-60 28.01.2022. <https://lex.uz/docs/-5841063>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bozor tamoyillariga asoslangan ipoteka kreditlari orqali aholini uy-joy bilan ta’minlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-33 09.12.2021. <https://lex.uz/docs/-5767194>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekiston” massivlarini qurish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-32 09.12.2021. <https://lex.uz/docs/5767440#5769738>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6244 09.06.2021. <https://lex.uz/ru/docs/-5449564>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer munosabatlarida tenglik va shaffoflikni ta’minlash, erga bo‘lgan huquqlarni ishonchli himoya qilish va ularni bozor aktiviga aylantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-6243 08.06.2021. <https://lex.uz/docs/-5450176>

ЗАБОЛЕВАНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С БЕРЕМЕННОСТЬЮ.

*Юлдашева Гульбахор Махмуджоновна
Андижанский техникум общественного
здравоохранения имени Абу Али Ибн Сины*

Аннотация: Организм беременной женщины чрезвычайно подвергнут воздействиям различных внешних факторов, среди которых немало негативных. Соответственно, в период беременности существует большая вероятность заболеть различными, в том числе, инфекционными заболеваниями.

Ключевые слова: герпес, пустулезный псориаз, пруриго, зудящий фолликулит.

Заболевания у беременных делятся на разные классы. Рассмотрим вкратце те болезни, которые относятся к кожным. Ведь дерматозы являются одними из наиболее распространенных у женщин, оказывающихся «в положении».

Под названием дерматозы врачи понимают целую группу отдельных заболеваний, которые характерны именно для беременных женщин. Так, по статистике кожные заболевания у беременных встречаются приблизительно в одном из 200...300 случаев. Причем замечено, что чаще всего это происходит у женщин, беременность у которых наступила впервые. По статистике чаще другие встречаются:

- герпес;
- пустулезный псориаз;
- пруриго;
- зудящий фолликулит.

Основная причина возникновения различных болезней, в том числе кожных, в организме женщины заключается в том, что в процессе беременности ее эндокринная система перестраивается и, соответственно, изменяется уровень всех гормонов. Особенно это характерно после 12 недели беременности, когда плацента уже сформировалась.

В результате этого женская кожа адаптируется к новым условиям, что естественным образом отражается на ее состоянии. Однако наряду со здоровыми изменениями возможно возникновение и кожных заболеваний. Например, у беременных может наблюдаться гиперпигментация. В том числе при пигментации возможно изменение цвета кожи, ее структуры, шелушение и другие неприятные проявления.

Однако кроме заболеваний, связанных с кожными покровами, зачастую беременные женщины сталкиваются и с клиническими заболеваниями. Наиболее распространенными из них являются:

- различные гемангиомы (чаще всего паукообразная);
- эритема (ладонная);
- отеки разных участков кожи — лица, шеи, ног, рук, голеней и прочих;
- расширение вен из-за варикоза;
- геморрой;
- гиперемия десен;
- так называемая «мраморная» кожа;
- пиогенная гранулема.

Хронические заболевания - это заболевания, которыми люди болеют длительное время. Чаще всего излечиться от этих заболеваний невозможно, можно лишь добиться стойкой ремиссии - отсутствия обострений заболевания в течение длительного времени (иногда несколько лет).

С некоторыми заболеваниями люди рождаются, другие возникают в детском возрасте или во взрослом состоянии из-за недостаточного или несвоевременного лечения острых заболеваний.

Любое хроническое заболевание требует наблюдения у соответствующего врача-специалиста, соблюдения определенной диеты и образа жизни, возможно длительного приема лекарственных препаратов с индивидуальным подбором и периодической коррекцией дозы принимаемых лекарств.

Чтобы избежать развития возможных болезней беременной необходимо регулярно посещать своего лечащего врача гинеколога. Таким образом можно купировать болезнь еще на самой ранней стадии ее развития. Ну а методы лечения зависят от конкретной болезни и формы ее течения.

Литература:

1. Репина М. А. Кровотечение в акушерской практике. — М., 1986. — 78 с.
2. Айламазян Э. К. Неотложная помощь при экстремальных состояниях в акушерской практике. — СПб.: СпецЛит, 2007. — 397 с. [ISBN 978-5-299-00340-6](https://doi.org/10.26907/2181-3187.2007.00340-6).
3. Акушерские кровотечения / Под общ. ред. В. И. Кулакова. — М.: Триада-Х, 1998. — 96 с.

ILMGA BAXSHIDA UMR. USTOZ IBROHIM HAQQULNI XOTIRLAB

Xodjayeva Aziza Amrillojevna
Jondor tuman 1 - son kasb - hunar maktabi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Ibrohim Haqqulov — filologiya fanlari doktori, professor, „Mehnat faxriysi“ II darajali ko'krak nishoni sohibi, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, o'zbek adabiyotshunosligining rivojlanishiga munosib hissa qo'shgan va o'zbek adabiyoti namunalarini yangicha tahlil va talqinda tadqiq etgan olim. Ibrohim Haqqul o'zbek adabiyoti, ilmu fani dargohida mutlaq o'z o'rni va mavqeiga ega bo'lgan fidoyi allomalardan. O'zbekistonda tanqid, adabiyotshunoslik, ayniqsa, tasavvuf sohalarini Ibrohim Haqqul faoliyatisiz tasavvur etish mumkin emas.

Ibrohim Haqqul butun ongli faoliyatini, ko'z nuri, sog'ligi, kunduzlari va kechalari, bayramlari va ta'tillarini o'z Vatani, o'z xalqi va millati uchun qurbon qilgan shuuri uyg'oq, vijdoni dardlik shaxsdir. U faqat O'zbekiston ziyolilari muhitida emas, balki Turkiya, Ozarbayjon ilmu ma'rifat ahli orasida ham katta obro'ga ega. Uning bu obro'-e'tibori nafaqat ilmiy-ijodiy faoliyati, balki o'z ijtimoiy qarashlarida, o'z haqiqatlarida sobit turgan matonatli shaxs ekani tufayli hamdir. San'atkor shoir Muhammad Rahmon yozganidek, to'g'ri va sog'lom bir e'tiqodda sobit turuvchi inson asli harakatdagi insondir.

1949-yilning 28-martida ziyoli oilasida tug'ilgan Ibrohim Haqqul avval o'rta maktabni, 1970-yilda esa Buxoro davlat pedagogika institutini tamomlagan. 1970-1972-yillarda u "Shofirkon haqiqati" gazetasida bo'lim boshlig'i va muharrir vazifalarida ishlagan. Ibrohim Haqqulning adabiyotshunos sifatidagi "Navoiy va Mavlono Ashraf", "Daryo kabi hamisha uyg'oq..." kabi ilk maqolalari shu gazetada bosilgan. Olim 1972-yildan Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutida ishlay boshlagan va umrining oxirigacha bu dargoh bilan aloqasini uzmagan – so'nggi yigirma yildan ko'proq vaqt mobaynida u institutdagi "O'zbek adabiyoti tarixi" bo'limiga mudirlik qilgan. 1976-yilda "O'zbek adabiyotida ruboiy" mavzusida kandidatlik dissertatsiyasini himoya qilgan Ibrohim Haqqul oradan qariyb 20 yil o'tgach, aniqrog'i, 1995-yilda "O'zbek tasavvuf she'riyatining shakllanishi va taraqqiyoti" mavzusidagi dissertatsiya himoyasidan so'ng filologiya fanlari doktori unvoniga ega bo'lgan.

Olimning "O'zbek adabiyotida ruboiy", "Uvaysiy she'riyati" (1982), "Badiiy so'z shukuhi" (1987), "Zanjirband sher qoshida" (1989), "She'riyat-ruhiy munosabat"(1989), "Abadiyat farzandlari"(1990), "Kamol et kasbkim" (1991), "Tasavvuf va she'riyat" (1991), "G'azal gulshani" (1991), "Xoja Orif Mohitobon" (1996), "Irfon va idrok" (1998) , "Tasavvuf saboqlari" (2000), "Ahmad Yassaviy"

(2001), “Kim nimaga tayanadi?” (2006), “E’tiqod va ijod”(2007), “Navoiyga qaytish” (1-kitob, 2007), “Abdulla Qahhor jasorati” (2007), “Taqdir va tafakkur” (2007), “Meros va mohiyat” (2008), “Ijod iqlimi” (2009), “Navoiyga qaytish” (2-kitob, 2011) kabi mumtoz adabiyot tarixi va zamonaviy adabiyotning muhim masalalariga bag’ishlangan o’ttizga yaqin kitoblari, 300 dan ortiq ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari chop etilgan. 1997 yil olim Xalqaro Ahmad Yassaviy mukofoti bilan taqdirlangan. Ibrohim Haqqul o’zbek adabiyotida shartli ravishda “70-80 yillar yoshlari” deb atalgan hamda Muhammad Solih, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Murod Muhammad Do’st, Emin Usmon, Usmon Azim, Erkin A’zam, Miraziz A’zam, Ahmad A’zam kabi shoir-yozuvchilar davrasining to’laqonli a’zosi bo’lgan, adabiy tanqidchi o’laroq adabiy jarayon rivojiga katta hissa qo’shgan, mumtoz adiblar va jadid adabiyoti namoyandalari ijodi bilan bir qatorda zamonaviy she’riyat vakillari asarlarini ham sinchkovlik bilan o’rganib borgan. Olimning ayniqsa klassik asarlarni tasavvufiy tadqiq qilish bo’yicha ilmiy xizmatlari beqiyosdir. Shu o’rinda uning boshqa ko’plab asarlari qatori so’nggi yillarda bosmadan chiqqan 2 jildlik “Navoiyga qaytish” asarini eslash joiz.

Ibrohim Haqqulning ayrim maqola va kitoblari turk, uyg’ur, ozarbayjon, tojik va rus tillariga o’girilib, chop etilgan.

O’tgan asrning 70-yillari oxiri va 80-yillari boshlarida olim tafakkurida boshqa ijodkor do’stlari qatori milliy o’zlikni anglash va kommunistik istibdoddan qutilish g’oyalari kurtak ota boshlaganini kuzatish mumkin. Mafkuraviy ildizlarni qidirish va hurriyatga intilishda aks etgan bu istak turtkisi bilan Ibrohim Haqqul tengdoshlari safida ijtimoiy-siyosiy jabhalarda faollasha boshlagan. Olim qayta qurish yillarida tuzilgan “Birlik” harakati, 1990-yilda tashkil topgan “Erk” demokratik partiyasining faol a’zolaridan bo’lgan. Partiya organi bo’lmish “Erk” gazetasining ilk muharriri ham Ibrohim Haqqul edi. Uning muharrirligida mazkur gazeta adadi 1991-yili 100 ming nusxaga etib, o’sha davrdagi eng ko’p tirajli nashrga aylangan. 1992-yili Ibrohim Haqqulga qarshi, safdoshlarining e’tiroficha, uydirilgan jinoyat ishi qo’zg’atilgan, shuning ortidan u gazetadan ketishga majbur bo’lgan. Olim o’shandan keyingi 30 yillik hayotini yana ilmga, adabiyotshunoslikka bag’ishlagan.

Ibrohim Haqqulni taniganlar uning bir idealist ziyoli sifatida umr kechirganiga e’tibor qaratishadi. Olim o’z chiqishlaridan birida “Vatan avomlik balosidan forig’ bo’lganda qudratli yurtga aylanadi. Vatanda hech kim olomonning nomidan ish yuritmasa va hech kim olomondan tayanch axtarmasa, bu o’lkaning har go’shasi ma’rifat va ma’naviyat, tafakkur va haqiqat poytaxtiga teng bo’ladi”, degan edi.

Adabiyotshunos olim, professor Ibrohim Haqqul 2022 yil 28 iyun kuni 73 yoshida vafot etdi.

U Abdulhamid Cho'lon, Xoja Ahmad Yassaviy va boshqa arboblarning asarlarini o'quvchilarga yetkazgan, qolaversa, rus tilidagi ikki jildlik «Istoriya uzbekskoy literatury» kitobining mualliflaridan biri hisoblanadi.

Ibrohim Haqqul millat va Vatan ozodligi g'oyasiga muvofiq keladigan biror asarni topdim deguncha, darhol u haqda xalqning vijdoni va shuuriga xitob qiladigan o'tli maqola yozishga intiladigan olimdir. O'z shogirdlardan birini aytishiga qaraganda bir kun Usmon Nosir she'riyati haqida gap ketdi. "Usmon Nosirning shoh asari qaysi?" – degan masala o'rta tashlanib, uning jahonshumul asari bo'lmish "Nil va Rim" she'ri munaqqid va adabiyotshunos olimlar e'tiboridan chetda qolib kelayotgani gapirildi. Men she'rni o'qib berdim. Ajabki, Ibrohim Haqqul tezlikda bu she'rning asl mohiyatini sharhlab, yuksak darajadagi maqola yozdi hamda uni "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasining navbatdagi sonidayoq chop ettirdi.

O'zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidining rivojiga munosib ulush qo'shib, sermahsul ijod etib, ko'plab monografik tadqiqotlar, ilmiy-tanqidiy asarlar, kitoblar, maqolalar yaratayotgan Ibrohim Haqqulov filologiya fanlari doktori, professor sifatida samarali ijod etgan olimdir. Ibrohim Haqqul axloqan tama'dan yiroq shaxs, zotan u kishi xolis va muxlis bo'lish haqida so'z aytdi. Binobarin, butun umrini xalq va vatan saodatiga, ilm-fan xizmatiga bag'ishlagan olimdir.

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA HARAKATLI O'YINLARNI TASHKIL ETISHNING AHAMIYATI

Mansurova Dilnoza G'iyozovna
Buxoro pedagogika kolleji
"Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash"
o'quv amaliyoti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatli o'yinlarni qo'llash orqali jismoniy sifatlarni tarbiyalashda jismoniy tarbiya vositasi sifatida harakatli o'yinlardan foydalanish va shu asosida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasining nazariy asoslari va usuliy yo'llarini aniqlash, hamda maqsadga erishish jarayonida maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish uchun olib borilayotgan jismoniy tarbiya va ommaviy sog'lomlashtirish tadbirlari tashkillashtirib tadqiqot olib boorish ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, harakatli o'yin, harakat faoliyati, harakat sifati, jismoniy tarbiya, jismoniy rivojlanish, jismoniy sifat, sog'lomlashtirish, qobiliyat, fiziologik omillar, mushak, vegetativ organlar faoliyati.

Annotation: This article discusses the use of movement games as a means of physical education in the development of physical qualities through the use of movement games in preschool children, and on this basis to identify the theoretical foundations and methodological approaches to the development of children's movement activities in preschool institutions. It is planned to conduct research by organizing physical education and public health activities for the development of children's physical activity in the context of preschool education.

Keywords: Preschool education, movement play, movement activity, physical education, physical development, physical qualities, fitness, ability, physiological factors, muscle, vegetative organ activity

Sog'lom avlodni kamolga yetkazish va tarbiyalashning turli yo'l-yo'riqlari, o'ziga xos usullari mavjud. Ayniqsa bolalarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil qilish, badan tarbiyasi va sport bilan shug'ullantirish, turli milliy harakatli o'yinlarni o'rgatish ota-ona, yo'qriqchilar va murabbiylar oldida muhim vazifa hisoblanadi. Bola tarbiyasidagi bu jihatlar davlat va jamiyat ahamiyatiga molik masaladir. Prezidentimiz bu masalani davr talab darajasida xal qilishga alohida e'tibor berib, o'quvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri tashkil etishning, shu jumladan ommaviy sport va jismoniy tarbiya, turizm, sportning boshqa milliy turlari va shakllarini amaliyotga joriy etish, ayniqsa, milliy sport o'yinlarini boyitish va shular asosida yoshlarimiz

oʻrtasida keng tashviqot olib borishni kun tartibidagi dolzarb masalalar sifatida eʼtirof aytib oʻtdilar. Darhaqiqat milliy harakatli oʻyinlar, sport turlari ham xalq qadriyatlariga daxldor boʻlib, ularni yigʻish, boyitish va bolalarga taqdim etishni sogʻlom avlodni tarbiyalash yoʻlidagi muhim va zaruriy vazifalardan biridir.

Bolalar maktabgacha taʼlim tashkilotlarida yuqorida aytilgan masalalarni rivojlantirish toʻgʻrisida. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qarori “Oʻzbekiston Respublikasi maktabgacha taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi Qarori, “Maktabgacha taʼlim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 418-sonli Qarori, “Maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi 2019-yil 13-martdagi 391-son Qarori, Maktabgacha taʼlim tashkilotlarini oʻyinchoqlar, jixozlar va boshqa texnik vositalar bilan jixozlash meʼyorlarining tasdiqlash, toʻgʻrisidagi 2018-yil 7-mart 7-sonli qarori va shunga oʻxshash qarorlar qabul qilingan.

Yuqorida keltirilgan qaror va farmonlarni joriy qilinishdan maqsad, kelajak avlodni yetuk shaxs boʻlib yetishishi uchun unung sogʻlom boʻlishiga zamin yaratishdir. Sogʻlom avlod – sogʻlom yurt demakdir, sogʻlom avlodni tarbiyalash vazifasi esa birinchi navbatda maktabgacha tarbiya muassasalari zimmasidadir. Maktabgacha tarbiyani insonparvarlashtirish uni yangilash jarayonining asosi hisoblanadi. Olimlar, amaliyotchi mutaxassislarning tobora koʻproq qismi maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalash tizimi shaxsga majmuali, insoniy taʼsir oʻtkazishi, har bir bolaning muntazam va imkon qadar toʻla jismoniy rivojlanish huquqi amalga oshirilishini taʼminlashi kerak, degan xulosaga kelmoqdalar. Oʻyin bilan bola faoliyatining boshqa turlari, oʻyinlarning har xil turlari orasidagi muvozanatning buzilishi (harakatli va oʻtirib oʻynaydigan, alohida va birgalikdagi) maktabgacha yoshdagi bolalar salomatligida ham, harakat qobiliyatlarining rivojlanish darajasida ham oʻz salbiy aksini topadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy rivojlantirish muammolarini hal etishning yangi yoʻllarini izlash, birinchidan, koʻrsatilgan ziddiyatlarni hal etish zarurati bilan, ikkinchidan, oʻsib kelayotgan yosh avlodning jismoniy tayyorgarligi rivoji jarayonini takomillashtirish qonuniyatlarini, metodologik va usuliy sharoitlarini oʻrganish zarurati bilan bogʻliq.

Har xil oʻyinchoqlar bilan oʻtkaziladigan mustaqil harakatli oʻyinlar juda foydali. Bolalarni ikkita, uchadan guruhlash mumkin. Bolaning harakatlari odatda oʻyinchoq turlari bilan belgilanadi, masalan, bayroqchalar, halqalar bilan yugurish, mashinalarni yurgizish, koptoklarni dumalash, otish, ilib olish kerak. Bolalar bunday oʻyinchoqlar bilan qiziqib shugʻullanadilar. Biror mustaqil oʻyinlarda bolalar darhol faollik va tashabbuskorlikni namoyon eta olmaydilar, ularning harakatlari bir xil va cheklangan. Lekin kattalarning topshirigʻini bajarish bilan bogʻliq oʻyinlarda

bolalarning harakatlari aniq maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi, ular harakatlarni bir necha bor takrorlab, harakat ko'nikmalarini mustahkamlaydilar, chaqqonlik, epchillikni rivojlantiradilar. Bolalar hatto o'zlari o'yin bilan mashg'ul bo'lgan vaqtlarida ham ularga rahbarlik qilib turish juda muhim. Ulardan ayrimlarining o'yinini murakkablashtirish, boshqalariga boshlagan ishini oxiriga etkazishini o'rgatish, uchinchi agar jimgina o'ynayotgan bo'lsa, gaplashib turish maqsadga muvofiq. Ko'pincha mustaqil o'yinlarda bolalar noto'g'ri va hatto xavfli harakatlarni ham bajaradilar. Stul yoki xoda ustidan butun oyoq kaftiga tayangan holda deyarli to'g'ri oyoq bilan sakrab tushadilar; yerdan butun oyoq kafti bilan itarilib yuguradilar. Bunday hollarda har xil yo'llardan foydalaniladi. Katta odam o'zi o'yinga kirishadi, bolalarga ular taqlid qila oladigan biror tanish va yaqin obrazni eslatadi (mushuk qanday yumshoq sakrashini, qushchalar qanday shovqinsiz uchishlarini). Bolalarga o'rgatilishi kerak bo'lgan dastlabki o'yinlar muayyan sujet va qoidalarga ega bo'lmaydi. Bola oddiy, qiziqarli topshiriqlarni bajaradi, kelib o'yinchoqni qo'lga oladi, kattalar oldiga yugurib borib, ular qo'lida nima yashirilganligini ko'radi. "Bayroqchani ol", "Mening yonimga yugur", "Bayroqchani top" o'yinlari bunga misol bo'la oladi. O'yinlarni o'rgatishda muayyan izchillikka rioya qilish kerak. Masalan, "Meni tutib ol" o'yini "Seni tutib olaman" o'yiniga qaraganda soddaroq. Birinchi holatda bola o'zidan katta kishini tutib olishi lozim, ikkinchi o'yinda tutilish xavfi yuzaga keladi, shuning uchun bola ko'proq jismoniy kuch sarflashiga to'g'ri keladi. O'yinlar tobora mazmunan xilma-xil bo'lib borishi, yanada murakkabroq topshiriqlarni o'z ichiga olishi zarur. Agar bola dastlab o'yinchoqni olish uchun o'zi istagan sur'atda yugurgan bo'lsa, o'yin yaxshi o'zlashtirilib olinganidan so'ng yugurish sur'atini kattalar belgilashi kerak

Tadqiqot olib borish jarayonida quyidagi vazifalar yotadi:

1. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishning yoshga bog'liq xususiyatlarini o'rganish, hamda bolalar jismoniy tayyorgarligi ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligidagi o'ziga hos xususiyatlarni aniqlash.

2. Maktabgacha tarbiya muassasalari sharoitida bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirishni, tajribalar orqali asoslash va bolalarning harakat faoliyatini rivojlantirish texnologiyasini aniqlash va nazariy asoslash.

Ana shulardan kelib chiqqan holda maktabgacha ta'lim tashkilotlarda xalq va milliy xarakatli o'yinlarni bolalar tarbiyasilagi ahamiyati qanday? Birinchi navbatda ta'kidlashning istar edikki, bu o'yinlar diqqat ermak uchun o'ynalmaydi. Zero, bu zukko xalqimizning asrlar mobaynida jamlangan ma'naviy javoxirlari majmuidir. O'zbek elining donishmandchiligini qarachig'i, har bir o'yin avvalo sodda, qiziqarli tuzilgan bo'lib, uning asosiga xalqona ohang, milliylik, mehr-oqibat, jasorat, mardlik, vatanparvarlik, fidoiylik, insoniylik tuyg'ulari singdirilgandir.

Ta'lim va tarbiyaning bunday uyg'unligi etuk insonni tarbiyalash uchun dasturi amal bo'ladi.

Ma'lumki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning o'yinlari taklid qilish tabiatida bo'ladi. Bola tevarak atrofidagi borliqni boshqalardan o'zgacharoq faxmlaydi, kuzatiladi. O'yindagi ba'zi narsalarni o'yiniga kiritadi va shu o'yin vositasida o'zini qurshab turgan olam haqida muayyan axborotga ega bo'ladi. Shuning barobarida unda xodisalarga nisbatan muayyan munosabat paydo bo'ladi. Bolalar tabiat xodisalari, jonivorlar hayoti va xarakterlariga taqlid qilib, o'ynar ekan, shu qatorda ularning ma'nosini anglay boshlaydi. Asta-sekin hayotiy tajriba ortiradi. Qiyinchiliklarni engishga o'rganadi. Unda harakat ko'nikmalariga hosil bo'ladi va tasavvuri tobora boyib boradi. Bundan tashqari, o'yinlar bolalarning jismoniy barkamol bo'lishi uchun uchungina emas, balki ularga, aqliy, ma'naviy va ahloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'plashib o'ynaladigan o'yinlarda bolalar maqsadga erishi uchun farosati va tadbirkorligini, qat'iyatini ko'rsatish, jamiyat oldida faqat o'zining emas, balki o'rtoqlarining hatti harakatlari uchun ham javobgarlik hissini seza olishni o'zida shakllantirib borishi zarur.

Harakatli o'yinlar masalan yurish, yugurish, sakrash, irg'itish yoki uloqtirish, tirmashib chiqish kabi mashqlar bilan harakatlarini rivojlantirish va takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Harakatlarning shakllanishi bilan birga, jismoniy qobiliyat ham taraqqiy etib boradi, yurak va nafas olish tizimini faoliyati yakunlanadi.

XULOSA:

Harakatli o'yinlar bolalar ilgari o'zlashtirib olgan malakalarni takomillashtirish hamda jismoniy sifatlarni tarbiyalash vositasi sifatida xizmat qiladi. O'yin jarayonida bola o'zining diqqat-e'tiborini harakatni qanday bajarish usuliga emas, balki o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erishiga qaratadi. U o'yin qoidalari asosida harakat qilib, shunga yarasha chaqqonlik ko'rsatadi va bu bilan o'z harakatlarini takomillashtiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
3. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirining buyrug'i. Ro'yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.

4. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasalari uchun Davlat o‘quv dasturi, to‘ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.

5. O‘zbekiston Respublikasining qonuni “Jismoniy tahbiya va sport to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) “Xalq so‘zi” gazetasi 2015 yil 5 sentyabr №174 (6357) – soni.

6. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh.X. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va usuliyati” T. O.,zDJTI nashriyot. 2005 y. 7. Дьяченко В.К. “Диалоги об образовательных технологиях”. М. Школьные технологии, 2000 г.

8. Железняк Ю.Д., Петров П.К. “Основы научно методической деятельности в физической культуре и спорте”. Учеб. пособие для студ. ВУЗов. М. Академия, 2002 г.

9. Masharipova M.I. “Maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalarning harakat potentsiyalini rivojlantirish texnologiyasi” Monografiya. Tashkent 2018 y.

10. Salomov R.S., Sharipov A.K. “Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati”. Darslik II-jild. T. “JTA PRESS”. 2015 y.

11. Tulenova X.B., “Ta’lim jarayonida harakatli o‘yinlarning ahamiyati” ilmiy maqola.,”Umumta’lim maktab, akademik litsey kasb hunar kollejlarida jismoniy tarbiyaning dolzarb muammolari” To‘plami. Toshkent 2011-yil.

TABIAT BILAN TANISHTIRISH ORQALI BOLA SHAXSINI HAR TOMONLAMA BARKAMOL QILIB TARBIYALASH USULLARI

Umurova Behishtibonu

*Buxoro pedagogika kolleji o'qituvchisi
Osiyo Xalqaro Universiteti magistranti*

Annotatsiya. Maktabgacha talim yoshidagi bolalarni tarbiyalashdagi tabiat vositalarning turlari ko'rsatib berilgan. Bolalarni har tomonlama yetuk bo'lib tarbiya olishida tarbiyaning turlari, ularning bolalarni yetuk bo'lishi haqidagi tushunchalar yoritilgan.

Kalit so'zlar: kuzatuvchanlik, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanishi, bilimga qiziqish, tarbiyaviy imkoniyat, ekologik madaniyat, barkamol, individual

Аннотация. Показаны виды природных средств воспитания детей дошкольного возраста. Выделены виды воспитания и понимание их развития детей в воспитании детей зрелыми во всех аспектах.

Ключевые слова: наблюдательность, развитие мышления и логической речи, интерес к знаниям, воспитательная возможность, экологическая культура, зрелость, личность.

Annotation. The types of natural means of educating preschool children are shown. The types of upbringing and understanding of their development of children in the upbringing of children mature in all aspects are highlighted.

Keywords: observation, development of thinking and logical speech, interest in knowledge, educational opportunity, ecological culture, maturity, personality

Bolalarni har tomonlama rivojlantirish. Ularni barkamol qilib o'stirish tug'ilgan kunidan boshlab amalga oshiriladi. Bugungi kunda mustaqil O'zbekistonimizda olib borilayotgan ta'lim sohasidagi islohotlarning bosh maqsadi aynan mana shunga qaratilgan. Ya'ni o'sib kelayotgan yosh avlod mustaqil O'zbekistonimizning kelajagini, taraqqiyotini kafolatlaydi. Manna shu ustivor yo'nalishlardan kelib chiqqan holda MTTlarida farzandlarimizga berilgan har qanday bilim ularda Vatanga sadoqat o'z o'lkasini sevish, Vatan bilan g'ururlanish ruhini tarbiyalashi lozim. Tabiat bolalarni har tomonlama barkamol bo'lib shakllanishida juda katta ahamiyatga ega. Bolalarni o'sishi, rivojlanishi, ta'lim-tarbiya olishi tashqi muhit omillariga bevosita bog'liqdur. Tabiatda sodir bo'ladigan jarayonlar, voqea hodisalar, o'zgarishlar bolalarni ongiga ta'sir qilib, ularni dunyoqarashini kengayishiga, fikrlash doirasini ortib borishiga ta'sir ko'rsatadi. Bolalarda dastlabki ekologik madaniyatni shakllantiradi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni ma'naviy yetuk, axloqli, pok insonlar qilib voyaga yetkazishda tabiat bilan tanishtirish metodikasi fani muhim ahamiyat kasb

etadi. Uning maqsadi, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni maktabga tayyorlash, tabiat bilan tanishtirish jarayonida tabiatga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish, Vatanga mehrlili bo'lish, ekologik ta'lim, tarbiyani amalga oshirish, tabiat haqida mukammal bilimga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash zarur.

Tabiat bilan tanishtirish metodikasining vazifasi bolalarni tabiat bilan tanishtirish usullari, ish shakllari, shuningdek pedagog, psixolog olimlar va mutafakkirlarning tabiatning inson hayotidagi ahamiyati haqidagi bilimlari bilan tanishtirish va nazariy bilimlar berishdan iborat. Shu bilan birga turli yosh guruhlarda ularning qiziqishlari, qobiliyatlari, ehtiyojlari, xarakter xislatlari, iste'dodlari hisobga olinadi. Bola a'zolarining tuzilishi — oliy nerv sistemasi, ichki a'zolari, tana tuzilishi, yoshga qarab hosil bo'ladigan o'zgarishlar tabiat bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birgalikda bolalarni jismonan sog'lom bo'lishiga olib keladi. Bolalarning jonsiz tabiat hodisalari, o'simliklar va hayvonlar, inson mehnati haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytirish hamda boyitish, shuningdek, o'simliklar o'stirish, hayvonlarni parvarish qilishda bolalarda oddiy ko'nikmalar hosil qilish ta'lim berishning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Bunda bolalarda kuzatuvchanlik, bilimga qiziqish, tafakkur va mantiqiy nutq rivojlanadi, so'z boyligi ortadi, yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Bolalarda mehnatni sevish, o'zgarlar mehnatini qadrlash, o'simlik va hayvonlarni asrash, ularni parvarish qilish, o'z Vatanini, tabiatni sevish, tabiat go'zalliklarini ko'ra olish kabi hislatlarni o'stirish orqali tarbiyaviy vazifalar hal qilinadi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida tabiat bilan yaqindan tanishtirmasdan turib, bolalarni jismonan rivojlantirish, nutq va tafakkurlarini boyitish vazifalarini amalga oshirish mumkin emas.

Bolalarni tabiat bilan tanishtirishni tarbiya turlari mavjud. Jumladan, aqliy tarbiya - bolalarni aqliy jihatdan o'sishiga ta'siri juda kattadir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiat bilan tanishishda ta'lim-tarbiya jarayonida ularning ongida atrofni o'rab olgan dunyo haqida hissiy tajribaga asoslangan aniq bilimlar hosil qilish muhimdir. Haqiqatni to'g'ri aks ettiruvchi bilimlar berilmasa, bolalarda tabiat haqida noto'g'ri tushunchalar hosil bo'ladi. Noto'g'ri tushunchalarni tuzatish yangi tushunchalar hosil qilishga nisbatan ancha qiyinroqdir. Shuning uchun bolalarda maktabgacha ta'lim yoshidanoq, his qilish, qabul qilib olish va zehni rivojlanish tajribalariga asoslangan holda tabiat haqida ilmiy dunyoqarashlarning shakllanishi juda muhimdir. Estetik tarbiya-shaxsning estetik didi va idealini tarkib toptirish, tevarakatdagi narsalarni to'g'ri qabul qilish qobiliyatlarini har tomonlama o'stirishdir. Estetik tarbiya bolaga did bilan kiyinish, yurishturish, mehnat qilish, jamoa orasida o'zini to'g'ri tuta bilish kabi hislatlarni singdiradi. Ayniqsa, ona tabiatni sevish va undan zavq olish, ya'ni go'zallikni his qilishni o'rgatadi. Gul va mevalarning hidi, shakli va ranglari, qushlarning sayrashi, ariqlarda suvning jildirab oqishi, qishda qorning g'ichirlashi — bularning hammasi bolalarda tabiatdagi narsa va hodisalarni tasavvur etishga imkon

beradi va ularda estetik hissiyotni tarbiyalashda va o'stirishda boy material bo'lib xizmat qiladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda bunday estetik tuyg'ularning o'sishi esa, o'z navbatida san'atni, hayotni, tabiatni sevishtirish, uni tushunish va o'rganish uchun zarur shart sharoit yaratadi.

Axloqiy tarbiya-yosh avlodni Vatanga, insonlarga muhabbat, ularning mehnatiga hurmat tuyg'ulari, intizomlilik, xulqatvor madaniyati, tengdoshlar orasidagi do'stlik, tinchlik inson xarakterining irodaviy xislatlari hamda shaxsning ijobiy, axloqiy sifatlari, poklik, to'g'rilik, kamtarlik, xullas barcha oliyjannob xislatlarni mujassamlashtirish ruhida tarbiyalash tushuniladi. Yosh avlodda bu xislatlarni kamol toptirish uchun tabiat vositasidan keng foydalanish kerak. Bu murakkab jarayon bo'lib, uzoq vaqt, kerak bo'lsa yillar davomida qilinadigan mehnatninj mahsuli hisoblanadi. Tabiat vositasida axloqiy tarbiya berish uchun bog'cha hovlilariga ekilgan gullarni parvarish qilish jarayonida bir gulni, niholni asrash, uni parvarish qilish, gullarning tagini yumshatish sug'orish, begona o'tlardan tozalash, shakl berish, o'g'it yoki go'ng solish kabi ishlarni bajarish jarayonlarini amalga oshirish mumkin. Bu yerda tarbiyachining ahamiyati katta. Masalan, tarbiyachi bolalarga gullarni parvarish qilayotganda ularning ham jonli organism ekanligini, biz qanday nafas olsak, ular ham nafas olishini, biz qanday ovqatlansak, ular ham bizdek «ovqatni yaxshi ko'rishini, o'simlikning ovqati go'ng, o'g'it ekanligini, biz yuvinish, taranishni qanday yaxshi ko'rsak, gullar ham «yuvinishni», «taranishni» yaxshi ko'rishini va buning uchun gullarning tagini vaqtivaqti bilan yumshatib, suv berib turish kerakligini, barglariga chang yuqtirmasdan yuvib, artib turish kerakligini o'rgatishi zarur. (Yusupova P.A1995). Jismoniy tarbiya-Insonning ma'naviy shakllanishida, mazmunli hayot kechirishida jismonan Sog'lom bo'lishning ahamiyati beqiyos kattadir. Xalqimiz «Tan sihatlik — tuman boylik», «To'rt muchang sog' bo'lsin» deb bekorga aytmagan. Bu naqlarning ko'plab ma'nosi bor. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning organizmi juda tez rivojlanadi. Bolalar anatomiyasi va fiziologiyasidan ma'lumki, bolalar 7-8 yoshgacha bo'yiga har yili 5 sm gacha o'sib, tana og'irligi 22,5 kg ga ortib boradi. Keyin esa biroz sekinlashadi. Bundan ko'rinib turibdiki, bolaning jismonan sog'lom o'sishini yoshlikdan ta'minlash kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga mehnat tarbiyasini berish ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash mehnatga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, kattalar yaratgan mehnat maxsulini e'zozlash, uning qadriga yetish ruhida tarbiyalashni bolalik davridan boshlashi lozim. Bolalarning mehnat tarbiyasi burchagida gulzorda, o'simliklar va hayvonlarni parvarishlash jarayonida amalga oshiriladi. Mehnat tarbiyasi har bir guruhning yosh xususiyatini hisobga olgan holda amalga oshirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Kichik guruhda mehnat tarbiyasinn berishda bolalar tarbiyachi bilan birga xonadagi o'simliklarga.suv quyadilar, akvariumdagi baliqlarga ovqat beradilar, qushlarga don tashlaydilar, bog'cha hovlisidagi poliz ekiilarini yig'ib-terib olishda

ishtirok etadilar. O'rta guruhda mehnat tarbiyasi bir oz murakkablashadi, bog'cha maydonchasidagi o'simliklarni o'zlari parvarish qiladilar. Tabiat burchagidagi hayvonlarni o'zlari ovqatlantiradilar, parvarishlaydilar. Katta tayyorlov guruhlarda amalga oshiriladigan mehnat tarbiyasi ham bir muncha o'ziga xosligi, murakkabligi bilan ajralib turadi. Bolalarning o'simliklarga bo'lgan munosabati, mehnat qilishlari jonli tabiatga, Vatanga bo'lgan muhabbatni yanada oshiradi

XULOSA

Tabiat vositasida tarbiya berish umumiy tarbiyaning bir qismi bo'lib, u o'z oldiga bolalarning yosh xususiyatlarini, bilsh jarayonlari, qobiliyatlarini yaxshi bilgan holda tarbiya berishnn vazifa qilib qoyadi. Demak bolalarni har tomonlama barkamol avlod bo'lib shakllanishida tabiatni tasiri kattadir. Ularni tarbiyali, estetikaga boy, fikrlash doirasi keng, shaxsiy fikri bor, didli, jismonan baquvvat bo'lib kamol topshida tabiatning ro'li muhim. Bugungi kunda Respublikamizda yoshlar masalalari boyicha olib borilayotgan siyat ham buning yaqqol namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha Ta'lim Vazirining buyrug'i. Ro'yxat raqami № 3032. 03.07.2018-y.

2. Grosheva I., Yestafyeva L., Maxmudova D., Nabixanova Sh., Pak S., Nazarova V. G., Abdunazarova N., Isxakova M. "Ilk qadam" Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun Davlat o'quv dasturi, to'ldirilgan ikkinchi nashr. Toshkent-2022.

3. Grosheva I., Shivaldova N., Rizayeva X., Kuryayeva I., Nekrasova Y., Xaziyeva L. Ekologik ta'lim va tarbiya bo'yicha Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun "Yer sayyorasi – umumiy uyimiz" parsial dasturi. Toshkent-2022.

4. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Usmonova D., Ashrabxo'jayeva M., Rizayeva X., Nuritdinova L., Karimova F., Nurmuhamedova G., Muhamadaliyeva M., Musayeva G., Gayfulina F. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish (katta guruh)". Toshkent-2018.

5. Yestafyeva L., Nabixanova Sh., Pak S., Isxakova M., Kim N., Rizayeva X., Kayalova Y., Nuritdinova L., Maxmudova V., Vlasova Y., Buyanova N., Daukayeva A., Karimova F. "Maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonini mavzuli rejalashtirish". Toshkent-2018.

ALKANLARNING OLINISHI VA FIZIK XOSSALARI. ISHLATILISHI.

*Abdurahmonova Rohila Solijonovna,
Niyozmetova Dilnoza Rustamjonovna,*

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alkanlarning olinishi va fizik xossalari to'liq yoritilgan. Ishlatilish sohalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: metan, botqoq gazi, kreking, dizel, toshko'mir, neft.

To'yingan uglevodorodlarning eng oddiy vakili metandir. Metan o'simlik va hayvon qoldiqlarining havosiz parchalanishi natijasida hosil bo'ladi. Botqoqlarda shu sababli gaz pufakchalarining paydo bo'lishini kuzatish mumkin. Ba'zi hollarda metan shaxtalarda hosil bo'ladi va ko'mir qatlamlaridan ajralib chiqadi. Tabiiy gazning asosiy qismini 80-97%ini metan tashkil qiladi. Undan tashqari, neft ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan gazlarning bir qismidir. Tabiiy va neft gazlariga etan, propan, butan ham kiradi. To'yingan uglevodorodlar gazsimon, suyuq va qattiq agregat holatida neft tarkibiga kiradi. Toshko'mir quruq haydalganda ko'mir gidridlanganda ham metan hosil bo'ladi.


Laboratoriyada olinishi.

Laboratoriyada alkanlarni olishning turli usullari mavjud. Masalan, gallogen alkanlarning natriy metalli bilan o'zaro ta'siri – Vyurts reaksiyasi. Jarayon uglerod skeletining ikki baravar ko'payishi bilan boradi:
 $2\text{CH}_3\text{CH}_2\text{Br} + 2\text{Na} \rightarrow \text{CH}_3\text{CH}_2\text{CH}_2\text{CH}_3 + 2\text{NaBr}$.

Agar reaksiyaga ikkita gallogenalkan aralashmasi kiritilsa, u holda bir vaqtning o'zida uchta mahsulot hosil bo'ladi:


Dyuma sintezi

Karboksilik kislota tuzining ishqor bilan ta'sirlashuvidan alkan hosil bo'ladi.



Kolbe sintezi

Karboksilik kislotalarning tuzlarini elektroliz qilish natijasida alkanlar hosil bo'ladi:




Sanoatda olinishi

1. Neftni qayta ishlash alkanlarni olishning asosiy sanoat usuli hisoblanadi.


Neft krekingi natijasida bitta alkan va bitta alken hosil bo'ladi:



2. Muqobil variant - ko'mirni gidrogenlash (torf, slanets):



3. Uglarod (II)-oksidini gidrogenlash



Fizikaviy xossalari

Barcha alkanlarning zichligi birga yaqin, shuning uchun alkanlar suvda yomon eriydi (suvning zichligi – 1g/cm³) va uning yuzasida suzib yuradi. Organik erituvchilarda eriydi.

Alkanlar son jihatdan ko'p bo'lib, ularning molekulari o'xshash tuzilishga ega: Uglarod atomlari bir-biriga va vodorod atomlari bitta kovalent bog'lar bilan bog'langan. Shu sababli alkanlarning kimyoviy xossalari o'xshash bo'ladi.

Alkan molekulari kuchsiz qutbsiz bog'langanligi sababli ular bir-biriga kuchsiz tortiladi. Bu xususiyat alkanlarning turli agregat holatlariga ega bo'lishi mumkinligini tushuntiradi.

Alkanlarning erish va qaynash harorati, ularning zichligi, molekulyar og'irligi gomologik qator o'sib borishi bilan ortadi. Gazsimon va qattiq alkanlar hidsiz, suyuq alkanlar xarakterli "benzin" hidiga ega.


Siz o't o'chiruvchilar ishlatadigan tetraxlor hosilasini olish uchun xom ashyo bo'lgan moddani ishlab chiqaradigan laboratoriyaning kimyogarisiz. Siz ishlaydigan laboratoriya havosida 22,4 litr hajmdagi karbonat angidrid va 36 g massali suv bug'i doimiy ravishda ajraladi.

Laboratoriyada ishlab chiqariladigan modda – CH₄, ya'ni metan. Tetraxlor hosilasi – tetraxlorometan, ya'ni CCl₄

Alkanlarning yonishi. Alkanlarning eng muhim xususiyati yonishdir. Metanning yonish reaksiyasi tenglamasi: CH₄ + 2O₂ → CO₂ + 2H₂O

Bu reaksiya sizga yaxshi ma'lum, uni oshxona gaz plitasida gaz yoqilganda kuzatgansiz. Metan tabiiy gazning asosiy tarkibiy qismidir. Agar gaz

ballonlardan foydalansangiz, unda bu ballonlar propan va izomer butanlar aralashmasi bilan to'ldirilgan bo'ladi. Ushbu alkanlarning yonish reaksiyalari tenglamalari quyidagicha bo'ladi:




Kreking bu—uzun zanjirli alkanlarning qisqaroq zanjirli alkanlar va alkenlarga parcalanishi.

Galogenalkanlar—tarkibida uglerod—galogen bog'larini o'z ichiga olgan alifatik to'yingan organik birikmalar.

Alkanlarning krekingi. 1000C dan yuqorida barcha to'yingan uglevodorodlar uglerod va vodorodga parchalanadi. Bu jarayon arzon vodorod va gaz qurumi (koks) olish usuli sifatida foydalaniladi. Kreking termik yoki katalitik bo'lishi mumkin. Termik kreking havosiz kuchli qizdirish bilan davom etadi.

To'yingan uglevodorodlarning dastlabki parchalanish temperaturasi ularning molekulyar og'irligi va molekulasining tuzilishiga bog'liq. Murakkab uglevodorodlarning termik parchalanishi sharoitga qarab turlicha boradi. Zanjir qanchauzun va tarmoqlangan bo'lsa, termik parchalanish shuncha oson boradi. Masalan, n-pentan krekingi jarayonida etilen, propan, metan, butilen, propilen, etan va boshqa uglevodorodlarni o'z ichiga olgan aralashma hosil bo'ladi.



$CH_3-CH_2-CH_2-CH_2-CH_3 \rightarrow CH_3-CH_3 + CH_2=CH-CH_3$ Degidrogenlash. Bu reaksiya yordamida alkanlardan tegishli to'yinmagan uglevodorodlar hosil qilinadi.

Alkanlar tibbiyot, kosmetologiya, qurilishda qo'llaniladi. Kauchuk, sintetik matolar, plastmassalar va sirt faol moddalar ishlab chiqarishda, suyultirilgan propan va butan yong'in o'chirish moslamasi uchun yoqilg'i sifatida ishlatiladi.

Yoqilg'i sifatida suyuq alkanlardan tashkil topgan benzin, kerosin, mazut ishlatiladi. Gazsimon alkanlar kundalik hayotda va aerezollar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Metanning xossalari bilgan holda uning ishlatilishi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Uning ishlatilish sohalari juda turli-tumandir. Issiqlik berish xususiyati kattaligi tufayli metan ko'p miqdorda yoqilg'i sifatida (turushda va sanoatda) ishlatiladi. Metandan olinadigan moddalar :vodorod,asetilen,qurum keng ko'lamda ishlatiladi. Metan formaldegid, metil spirt,shuningdek,turli xil sintetik mahsulotlar olishda boshlangich xomashyo sifatida ishlatiladi.

Etan,propan,butan va pentanlar sanoatda etilen va dien uglevodorodlarni olishda ishlatiladi. Suyuq uglevodorodlardan motor yonilg'isi sifatida foydalaniladi. Bular orasida izooktan-2,2,4-trimetilpentanning ahamiyati katta. Katta molekulyar massaga

ega bo'lgan alkanlar texnikada dizel yonilg'isi sifatida, Surkov moylari sifatida ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar.

1. Sh. Ismatov va boshq. Kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent 2022
2. G. P. Xomchenko. Kimyo. Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, Toshkent, «O'qituvchi», 2001.
3. G. E. Rudzitis, F. G. Feldman. Organik kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent, «O'qituvchi», 1992.
4. A. G. Muftaxov, H. T. Omonov, R. O. Mirzayev. Umumiy kimyo. Toshkent, «O'qituvchi», 2002

КО'P АТОМЛИ СПИРТЛАР. ФЕНОЛЛАР ВА АРОМАТИК СПИРТЛАР. ОЛИНИШИ.

*Abdurahmonova Rohila Solijonovna,
Niyozmetova Dilnoza Rustamjonovna,
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'p atomli spirtlarning olinishi va fizik xossalari to'liq yoritilgan. va aromatik spirtlar haqida to'liq malumot berilgan.


Kalit so'zlar: benzil spirit, fenol, glikol, sorbitlar, pentanol.

Ko'p atomli spirtlar — tarkibida ikki yoki undan ortiq gidroksil guruhi bo'lgan spirtlar. Barcha ikki atomli spirtlar glikollar deb ataladi.

Glikollar nomi ko'plab vakillarining shirin ta'mi bilan bog'liq (yunoncha glukos — “shirin”).

Ko'p atomli spirtlarning eng muhim vakillari ikkitadan oltitagacha gidroksil guruhini o'z ichiga oladi. Ikki atomli spirtlar -- *glikollar*, uch atomli spirtlar -- *alkantriollar* deb ham ataladi. Eng keng tarqalgan ko'p atomli spirtlar etilenglikol va glitserindir. Etilenglikol Glitserin Shakar o'rnini bosuvchi sifatida ishlatiladigan besh atomli spirt ksilit: Besh atomli spirt pentanol 1. Glikollarning umumiy formulasi:

$C_nH_{2n}(OH)_2$.



olti atomli spirt geksanol (sorbit):

Glikollar yoki diollar. Glikollar sinfining kashfiyotchisi - organik kimyoga katta hissa qo'shgan fransuz olimi Sharl Vurts.

Glikollar kashf etilganidan beri ichki yonuv dvigatellari, sovitish moslamalari va iqlimni nazorat qilish uskunalari uchun sovitish tizimlarida faol foydalanilmoqda.

Nomenklaturasi. Ko'p atomli spirtlar (poliollar) nomlarida gidroksil guruhlarning holati va soni mos keladigan raqamlar va qo'shimchalar bilan ko'rsatiladi -diol (ikki OH guruhi), -triol (uchta OH guruhi) va boshqalar. **Izomeriyasi.** Ikki atomli spirtlarning izomeriyasi gidroksil guruhlarning o'zaro joylashishi va uglerod skeletining izomeriyasi bilan belgilanadi.

OH– guruhlarning o‘zaro joylashishiga qarab α -, β -, γ -, δ -,... diollar farqlanadi. Hidroksilli uglerod atomlarining tabiatiga ko‘ra, diollar birlamchi–ikkilamchi, birlamchi–uchlamchi, ikkilamchi - ikkilamchi va boshqalar bo‘lishi mumkin

Etilenglikol

Etilenglikol ikki atomli spirt, ko‘p atomli spirtlarning eng oddiy vakili. Biroz moysimon shaffof, rangsiz suyuqlikdir. U hidsiz va shirin ta‘mga ega. Etilenglikol zaharli. Etilenglikol yoki uning eritmalarining inson tanasiga kirishi tanadagi qaytarilmas o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin. Etilenglikol yonuvchan moddadir, bug‘ining portlash harorati: 120C.

Etilenglikol muhandislik sohasida dvigatel va kompyuter sovutish tizimlarida, antifriz va tormoz suyuqliklarida sovutish vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Organik sintezda ishlatiladi.

1.Ishqoriy metallar bilan o‘zaro ta’siri

Etilenglikol ishqoriy metallar bilan reaksiyaga kirishganda, tuzlar – glikolyatlar hosil bo‘ladi. Reaksiya natijasida etilenglikol avval monoalkogolyat, so‘ngra dinatriyli birikmani hosil qiladi:

2.Organik kislotalar bilan o‘zaro ta’siri

Etilenglikolning organik kislotalar bilan o‘zaro ta’siri natijasida efirlar hosil bo‘ladi (glitseringa o‘xshash):

3.Vodorod galoidlari bilan o‘zaro ta’siri

Etilenglikol vodorod galoidlari bilan reaksiyaga kirishib, etilen galogidrinlarni hosil qiladi:

4.Degidratasiya

Etilenglikol konsentrlangan sulfat kislota ishtirokida qizdirilganda atsetaldegid hosil bo‘lishi mumkin:

Degidratasiya natijasida siklik oddiy efir – dioksan hosil bo‘lishi ham mumki

Spirtlar gidroksibirikmalar bo‘lib, ularda OH guruhi alifatik uglevodorod radikali

R–OH bilan bog‘langan bo‘ladi.

Fenollar – gidroksoguruh OH benzol halqasi bilan bog‘langan aromatik spirtlar qatorining organik birikmalaridir.

Benzol yadrosidagi gidroksil guruhlar soniga qarab bir, ikki va uch atomli fenollar farqlanadi.

Bir atomli aromatik spirtlar gidroksil guruhi yon zanjirda joylashgan, ya’ni benzol yadrosi bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan birikmalardir.

Bir qator bir atomli aromatik spirtlarning birinchi vakili benzil spirti yoki

fenilmetanoldir. Ushbu qatorning boshqa vakillarida yon uglerod zanjiri chiziqli

(feniletanol yoki fenetil spirti) yoki tarmoqlangan tuzilishga (uglerod skeleti izomeriyasi) ega bo'lishi mumkin.


Bundan tashqari, gidroksil guruhining zanjir izomeriyasi mavjud.

Aromatik spirtlar va fenollarning nomenklaturasi

Fenollarning trivial nomlari ko'p ishlatiladi. Sistematik nomenklaturada fenollarning nomi tegishli arenlar nomi va - ol qo'shimchasidan hosil qilinadi. Raqamlash gidroksil guruhi bilan bog'langan uglerod atomidan boshlanadi. Ba'zan gidroksil guruhining borligi gidroksi-(oksi) old qo'shimchasi bilan belgilanadi: 1-gidroksi-2-metil-6-etil benzol.

Aromatik spirtlarning olinishi. Olinish usullari va xususiyatlariga ko'ra, ular alifatik uglevodorodlardan deyarli farq qilmaydi. Fenollardan keskinfarq qiladi, chunki ular kislotali xossaga ega bo'lmagan yoqimli hidli moddalardir.

Benzilxloridning gidrolizidan benzil spirit olinadi.



Aromatik sulfokislota tuzlari o'yuvchi ishqorlar bilan qo'shib qizdirilganda fenollar hosil bo'ladi (Kekule usuli) :

Benzin spirti—biroz yoqimli hidli rangsiz suyuqlik; qaynash harorati 205.8°C; zichligi 1.0455g/cm³. Benzin spirit organik erituvchilarga va suyuq CO₂ va NH₃ da yahshi eriydi. 100gsuvda 4g benzinspirti eriydi. Uning murakkab efirlari ko'pchilik gullarning yoqimli hid beradigan efir moyi tarkibigakiradi.

Fenol—rangsiz (vaqt o'tishi bilan havo kislorodi ta'sirida och pushti rangga kiradi), o'tkir, o'ziga xos hidga ega kristall modda . Suvda qisman eriydi. kuchli antiseptik xossaga ega. Teriga tushsa , kuyduradi.

Ishlatilishi:

Aromatik spirtlarning vakili benzilspirti tabiiy ravishda efir moylarida uchraydi.

Benzil spirit:

- * parfyumeriya sohasida;
- * laklar , bo'yoqlar , siyohlar , epoksidlar uchun erituvchi sifatida;
- * tibbiy preparatlarning moyli eritmalarini dezinfeksiya qilishda ishlatiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar.

1. Sh. Ismatov va boshqalar, 10-sinf kimyo Toshkent 2022
2. G. P. Xomchenko. Kimyo. Oliy o`quv yurtlariga kiruvchilar uchun, Toshkent, «O`qituvchi», 2001.
3. Sh. Ismatov. Kimyo 10-sinf uchun darslik, Toshkent 2022y
4. G. E. Rudzitis, F. G. Feldman. Organik kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent, «O`qituvchi», 1992.
5. A. G. Muftaxov, H. T. Omonov, R. O. Mirzayev. Umumiy kimyo. Toshkent, «O`qituvchi», 2002.

ORGANIK KIMYO TARIXI.ORGANIK BIRIKMALARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.ORGANIK MODDALARNING TUZILISH NAZARIYASI.

*Abdurahmonova Rohila Solijonovna,
Niyozmetova Dilnoza Rustamjonovna
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada organik kimyo tarixi to'liq yoritilgan.Organik birikmalarning O'ziga xos xususiyatlari taqqoslangan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: shakar,bo'yoqlar,sirka kislota,o'simlik moylari,

Organik kimyo mustaqil fan sifatida XIX asrning boshlarida ajralib chiqdi.Bunda juda ko'p sonli organik moddalarning ,asosan o'simliklar va hayvon organizmlaridan ajratib olinadigan moddalarning kashf etilishi va tekshirilishiga sabab bo'ladi.Qadimda misrliklar va rimliklar o'simlik moddalarida mavjud bo'lgan indigo va alizarin bo'yoqlaridan foydalanganlar.Ko'pgina xalqlar shakar va kraxmalli xom ashyolardan alkogolli ichimliklar va sirka tayyorlash sirlarini bilishgan. O'simlik moylari, hayvon yog'lari, shakar, qatronlar, zaharli moddalar o'sha paytda olingan va ishlatilgan organik moddalar hisoblanadi. Bu savolga javob berish uchun kimyoga berilgan ta'rifni yodga olaylik.Kimyó – moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va o'zgarishlarini, shuningdek, bu o'zgarishlarda sodir bo'ladigan hodisa-jarayonlarni o'rganadigan fan. Demak, organik kimyo organik moddalarning tarkibi, tuzilishi, xossalari va o'zgarishlari haqidagi fan ekanligini ko'rsatadi.Olimlar dastlab tabiatni "tirik" va "jonsiz" deb ataluvchi ikki guruhga ajratishgan.Tirik, ya'ni o'simlik va hayvon organizmlarini tashkil etuvchi moddalarni "organik",qolgan barcha moddalar noorganik yoki mineral moddalar deb ta'riflangan.Bu talqin "hayotiy nazariya" (vita «hayot») dan kelib chiqqan edi. Kimyo tarixida organik va noorganik moddalarni, ya'ni minerallarni hayvonlar, o'simliklar olamine farqlovchi vitalizm nazariyasi yetakchi rol o'ynadi. Vitalistik qarashlarga ko'ra, organik moddalar noorganik moddalardan farqli o'laroq, "hayot kuchi"ga ega. Shundan kelib chiqib noorganik moddalardan organik birikmalarni sintez qilib bo'lmaydi, deb taxmin qilingan. Abu Bakr ar-Roziy kimyo tarixida birinchi bo'lib moddalarni 3 guruhga: o'simlik, hayvon va mineral moddalarga ajratgan.1675-yilda Nukolas Lemeru o'zining mashhur "Cours de Chimie" asarini nashr etdi, Mazkur asarida u tabiiy birikmalarni uchta sinfga ajratdi: mineral, o'simlik va hayvon. Tez orada bu tasnif qabul qilindi.1807-yilda shved olimi Yens Yakob Berselius o'simlikva hayvonlardan olingan moddalarni o'rganishni mustaqil fan - **organik kimyoga** ajratishni taklif qildi. Y. Y. Berselius organik kimyoning asoschisi hisoblanadi. Organik kimyo tarixi. Organik birikmalarning o'ziga xos xususiyatlari.

Bu ixtirolar sababli barcha organik moddalarning majburiy “tabiiy” tarzda hosil bo‘lishi haqidagi vitalistik g‘oyalar rad etildi. 1824-yildan 1828-yilgacha bo‘lgan **davrda** Fridrix Vyoler Noorganik moddalar – oddiy molekulyar tuzilishga va kichik massaga ega bo‘lgan kimyoviy birikmalar. Erish harorati yuqori. Parchalanishi uzoq vaqt talab etadi. Kelib chiqish tabiati ham tabiiy, ham sun‘iy .

1. Barcha birikmalar tarkibida C uglerod atomlari mavjud emas.
2. Noorganik moddalardan eng keng tarqalgani suv, kichik molekulyarog‘irlikka ega. Zamonaviy tasnifga ko‘ra, noorganik moddalar 100 mingga yaqin, organik birikmalarning milliondan ortiq turi bor. Noorganik moddalarda izomeriya jarayoni mavjud emas. Noorganik moddalarga turli metallar, metallmaslar, kislotalar, tuzlar, oksidlar, aralashmalar va oddiy moddalar kiradi.
2. Organik moddalarning xilma-xilligiuning molekularidagi uglerod atomining xossalari natijasidir. Organik moddalar izomeriya jarayoniga qodir: molekularida bir xil atomlar to‘plamiga ega bo‘lgan turli birikmalar hosil bo‘ladi. Bu moddalarning molekularidagi atomlar turli xil tartibda joylashgan bo‘ladi. Oqsil, uglevod, uglevodorod yoqilg‘isi, fermentlar organik moddalardir. Butlerovning organik birikmalarning kimyoviy tuzilish nazariyasi quyidagicha ta’riflanadi: “Murakkab zarrachaning kimyoviy tabiati uning tarkibini tashkil etuvchi moddiy zarrachalarning tabiatiga, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishi bilan belgilanadi”. Zamonaviy nazariya organik birikmalarning xossalarini va ularning reaksiyon qobiliyatini bashorat qilish, yo‘naltirilgan organik sintezni amalga oshirish, organik birikmalar va ularning xossalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plamini tizimlashtirish (tasniflash) imkonini beradi. Kimyoviy tuzilishning zamonaviy nazariyasi organik moddalarni “tarkibida uglerod bo‘lgan kimyoviy birikmalar sinfi” sifatida belgilaydi; metall karbidlari - (masalan, CaC_2 , Al_4C_3); karbonat kislotasi H_2CO_3 va uning tuzlari - karbonatlar; uglerod oksidlari - CO va CO_2 ; sianidlar $\text{Me}(\text{CN})_y$ bundan mustasno.

1861-yilda nemis tabiatshunoslari kongressida A. Butlerov o‘zining “Moddalarning kimyoviy tuzilishi to‘g‘risida”gi ma’ruzalar uglerod atomi va uning maxsus xususi-yatlariga asoslangan atomistik nazryadan foydalanishni taklif qildi. U uglerod atomlari o‘rtasida kimyoviy bog‘lanishning paydo bo‘lish imkoniyatini ta’kidladi. U molekulada atomlarning joylashish tartibini ifodalovchi struktura tushunchasi fanga kiritdi. Butlerov organik birikmalarning kimyoviy tuzilishi nazaryasi quyidagicha ta’riflanadi: “Murakkab zarrachaning kimyoviy tabiati uning tarkibini tashkil etuvchi moddiy zarrachalar tabiati, ularning miqdori va kimyoviy tuzilishi bilan belgilanadi”.

Zamonaviy nazariya organik birikmalarining xossalari va ularning reaksiyon qobiliyatini taxmin qilish, yo‘naltirilgan organik sintezni amalga oshirish, organik birikmalar va ularning xossalari bo‘yicha ma’lumotlar to‘plamini tizimlashtirish

(tasniflash) imkonini beradi.

A. BUTLEROV NAZARIYASIDAN KELIB CHIQUADIGAN XULOSALAR

1. Organik birikmalar molekulasidagi hamma atomlar bir-biri bilan ma'lum izchillikda bog'langan, bunda ularning bir-biri bilan birikishi uchun kimyoviy moyillikning muayyan qismi sarflanadi. Molekuladagi atomlar birikmalarining ketma-ketligi *kimyoviy tuzilish* deb ataladiv. Struktura formula bilan aks ettiriladi. Organik birikma molekulasidagi uglerod atomlarining birikish ketma-ketligiga *uglerod skeleti* deyiladi. Kimyoviy tuzilishstrukturaviy formula bilan ifodalanishi mumkin, unda kimyoviy bog'lanishlar chiziqchabilan ifodalanadi.

Strukturaviy formulalarni tuzishda quyidagi algoritmdan foydalanish mumkin:

- uglerod skeletini yasash;
- uglerod atomlari to'rt valentli, vodorod atomlari bir valentli, kislorod atomlari ikki valentli bo'lishini ya'ni, organik moddalardagi kimyoviy elementlarning valentligini hisobga olib, yetishmayotgan qatorlarni tartibga solish;
- vodorod belgisini qo'yish.

Atomlar orasidagi barcha kimyoviy bog'lanishlar ko'rsatilgan strukturaviy formulalar *to'liq formulalar* deb ataladi. Biroq qisqartirilgan strukturaviy formulalarko'proq qo'llaniladi, ularda bog'lanishlar hatto ko'rsatilmaydi. Masalan, etanolning to'liq strukturaviy formulasi: qisqartirilgan strukturaviy formulasi: $\text{CH}_3\text{--CH}_2\text{--OH}$ yoki $\text{CH}_3\text{CH}_2\text{OH}$

Ba'zan strukturaviy formulalarda vodorod atomlarini ko'rsatmasdan faqat C–C bog'lanishlar ko'rsatiladi.

2. Moddalarning xossalari uning molekulasi tarkibida qanday atomlar va qancha miqdorda bo'lishigagina emas, balki ularning qanday tartibda birikkanligigaham bog'liq.

Ba'zi moddalar bir xil molekulyar formulaga ega bo'ladi, ammo har xil fizik va kimyoviy xususiyatlarni namoyon qiladi. Bunday moddalar *izomerlar* deyiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar.

1. Sh. Ismatov va boshqalar, 10-sinf kimyo Toshkent 2022
2. G. P. Xomchenko. Kimyo. Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, Toshkent, «O'qituvchi», 2001.
3. Sh. Ismatov. Kimyo 10-sinf uchun darslik, Toshkent 2022y
4. G. E. Rudzitis, F. G. Feldman. Organik kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent, «O'qituvchi», 1992.
5. A. G. Muftaxov, H. T. Omonov, R. O. Mirzayev. Umumiy kimyo. Toshkent, «O'qituvchi», 2002.
6. S. Masharipov, I. Tirkashev. Kimyo Toshkent, «O'qituvchi», 2002

SIKLOALKANLAR.NOMENKLATURASI.IZOMERIYASI.OLINISHI. SIKLOALKANLARNING FIZIK VA KIMYOVIY XOSSALARI.

*Abdurahmonova Rohila Solijonovna,
Niyozmetova Dilnoza Rustamjonovna,
Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada sikloalkanning olinishi va fizik xossalari to'liq yoritilgan. Ishlatilish sohalari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: sikloalkan, siklik, kreking, siklopentan, siklopropan, naftenlar.

Sikloalkanlar karbosiklik birikmalar sinfiga mansub bo'lib, C_nH_n umumiy formula bilan ifodalanadi. Bu yerda $n > 3$ bo'lishi shart. Sikloalkanlarni sikloparafinlar yoki naftenlar deb ham ataladi.

Atomlari ochiq zanjir hosil qiladigan to'yingan uglevodorodlar – alkanlardan tashqari, yopiq zanjirli, siklik tuzilishga ega bo'lgan uglevodorodlar ham bor, ular **sikloalkanlar** deb ataladi. Sikloalkanlar tegishli alkanlardan molekulasida 2 ta vodorod atomi kamligi bilan farq qiladi. Mana shu atomlarning ajralib chiqishi hisobiga uglerod halqasi yopiladi, buni sxematik tarzda quyidagicha ko'rsatish mumkin: Sikloalkanlardagi uglerod atomlari sp^3 -gibridlangan holatda bo'ladi. Har bir uglerod atomi C–C, C–H li 4σ -bog'lar hosil qiladi. Bog'lar orasidagi burchak halqa hajmiga bog'liq. Siklopropan molekulasida tekis uchburchak bo'lib, unda C–C valent bog'lanish 60° burchak hosil qilib $109,5^\circ$ tetraedral shakldan farq qiladi. Bu uglerod atomlari o'rtasida σ -bog'lar hosil bo'lishida sp^3 – gibrid orbitallarning atom yadrolari markazlarini bog'laydigan to'g'ri chiziq bo'ylab emas, balki uning tashqarisida bir-biriga yopishishiga olib keladi. Elektron orbitallarning bunday qoplanishi π -bog' hosil bo'lishida yonma-yon qoplanishga o'xshaydi.

Sikloalkanlar-molekulalarida uglerod atom to'yingan **siklik** uglevodorodlardir.

Sikloalkanlar quyidagiumumiy formulaga ega

C_nH_{2n} . Sikloalkanlarning bir nechta nomlari bor:

sikloparafinlar, naftenlar, siklanlar, polimetilenlar. Sikloparafinlar alkanlarga o'xshash tuzilishga ega.

Olinishi. 1. Sikloalkanlar laboratoriyada to'yingan uglevodorodlarning digalogenli hosilalariga metallar ta'sir ettirib olinadi.

2. Benzol va uning gomologlarini gidrogenlab siklogeksan va uning gomologlari olinadi. Sikloalkanlarda ham xuddi alkanlarga o'xshab, hamma bog'lari to'yingan, lekin ular birikish reaksiyasiga kirishish xususiyati bilan alkanlardan farq qiladi. Bu halqadagi uglerod atomlari o'rtasidagi bog'ning uzilishi bilan tushuntiriladi.

Bog'ning uzilishi natijasida uglerod atomlarida bo'sh valentliklar paydo bo'ladi va modda biriktirib olish imkoniyatiga ega bo'lib, vodorodni va galogenlarni biriktirib oladi. Kichik halqali (siklopropan va siklobutan) birikmalar, ularning katta halqali gomologlariga (siklopentan va siklogeksan) nisbatan birikish reaksiyasiga oson kirishadi. Sababi kichik halqalarni katta halqalarga nisbatan beqarorligidadir.

Masalan, gidrogenlash (vodorod biriktirish) reaksiyasi har xil sikloalkanlarda turlicha temperaturada boradi:

Oddiy sharoitlarda sikloalkanlar mos keladigan alkanlarga qaraganda yuqori haroratda qaynaydi va eriydi. Halqa hajmi ortishi bilan qaynash va erish nuqtalari ortadi.

Sikloalkan molekulalaridagi barcha uglerod atomlari sp^3 gibrizlanishiga ega. Biroq, siklobutan va ayniqsa siklopropandagi gibriz orbitallar orasidagi burchaklar $109^\circ 28'$ emas, balki molekulalarda kuchlanish hosil qiluvchi geometriya tufayli kichikroq, shuning uchun kichik sikllar juda reaktivdir. Sikloalkanlardagi uglerod atomlari SP^3 gibrizlangan holatda bo'ladi. Barcha uglerod atomlari o bog'lar orqali bog'langan. Siklopropan halqasi hosil bo'lishida tetraedrik burchaklar 60° gacha kichrayib, natijada valent burchaklar kuchlanishi ortadi. A.Bayer 1885-yilda siklopropanning yuqori reaksiya qobiliyatini aynan valent burchaklarining kuchlanishi bilan tushuntirgan. Siklopropandagi sp -gibrizlangan orbitallarining o'zaro qoplanishi orqali C-C bog'i hosil bo'lishida qisman qoplanish bo'lishi mumkin.

Siklopropan- C_3H_6 , siklobutan- C_4H_8

Sikloalkanlar va ularning hosilalari asosan neft va o'simliklar tarkibida uchraydi. Birinchi bo'lib rus olimi **V.MARKOVNIKOV** o'z shogirdlari bilan neftdan siklopentan, siklogeksan va ularning hosilalarini ajratib olgan. Neft tarkibida katta miqdordagi sikloalkanlar (sanoatda naftenlar deb ataladi) sfqlanadi: ularga—metilsiklopentan, 1,2-dimetilsiklopentan, siklogeksan va metilsiklogeksanlar kiradi.

Oddiy sharoitlarda sikloalkanlar mos keladigan alkanlarga qaraganda yuqori haroratda qaynaydi va eriydi. Halqa hajmi ortishi bilan qaynash va erish nuqtalari ortadi.

Sikloalkanlar C_3 - C_4 gazlar C_5 — C_{16} suyuqliklar, C_{17} va boshqalar qattiq moddalardir. Siklik alkanlarning suvda eruvchanligi juda past.

Ishlatilishi

Sikloalkanlar xalq xo'jaligining turli sohalarida keng qo'llanadi. Siklopropan tibbiy amaliyotda ingalyasion anestetik sifatida ishlatiladi. Siklopentan organik sintezda va sifatli yahshilash uchun motor yonilg'isi qo'shimchasi sifatida ishlatiladi.

Siklogeksan neylon va kapronning sintetik tolalarini ishlab chiqarishda oraliq mahsulotlarni sintez qilish uchun, siklogeksanol, siklogeksanon, adipin kislota olish uchun, shuningdek, erituvchi sifatida ishlatiladi.

Neft-kimyo sanoatida sikloalkanlar katalitik kreking orqali aromatik uglevodorodlar olishda foydalaniladi.

Kimyoviy xossalari. 3-a'zoli sikloalkanlar galogenlash, gidrogalogenlash, gipogalogenlash kabi kimyoviy jarayonlarga oson kirisha oladi.

Reaksiya vaqtida C - C bog'i uziladi va halqa ochiladi.

Galogenlash. Siklopropanga brom bilan ta'sir etilganda 1,3-dibrom propan hosil bo'ladi:

Siklopropanning xlorlash reaksiyasida 1,3-dixlorpropan bilan birga xlorciklopropan ham hosil bo'ladi:

Siklobutan va uning gomologlari brom bilan qiyinchilik bilan yuqori haroratda reaksiyaga kirishadi.

Siklopentan va siklogeksanga galogenlar bilan ta'sir etilganda, halqa ochilmaydi va almashinish reaksiyasi sodir bo'ladi:

Galoidvodorodlarta'siri. Siklopropan va siklobutanga galoidvodorodlar, ayniqsa vodorod bilan ta'sir etilganda birikish reaksiyasi sodir bo'ladi va halqa ochiladi:

Oksidlovchilar ta'siri. Oksidlash reaksiyasi yordamida sikloparafinlarni tegishli etilen uglevodorodlaridan farqlash mumkin. Siklopropan va uning gomologlari odatdagi haroratda ishqoriy muhitda kaliypermanganat ishtirokida juda sekin oksidlanadi. Siklobutan va yuqori sikllar kaliypermanganat ishtirokida oksidlanmaydi va bu bilan ular to'yingan uglevodorodlarni eslatadi. Sikloparafinlarni kuchli oksidlovchilar yordamida oksidlash natijasida ikki asosli kislotalar hosil bo'ladi:

Mavzuga oid adabiyotlar.

1. Sh. Ismatov va boshq. Kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent 2022
2. G. P. Xomchenko. Kimyo. Oliy o'quv yurtlariga kiruvchilar uchun, Toshkent, «O'qituvchi», 2001.
3. G. E. Rudzitis, F. G. Feldman. Organik kimyo. 10-sinf darsligi, Toshkent, «O'qituvchi», 1992.
4. A. G. Muftaxov, H. T. Omonov, R. O. Mirzayev. Umumiy kimyo. Toshkent, «O'qituvchi», 2002

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARGA INKLYUZIV TA'LIM BERISHDA OILANING O'RNI

*CHDPU "Maktabgacha ta'lim" fakulteti
dotsenti, p,f,f,d(PhD) Teshabayeva Zamira Sobirovna
CHDPU "Maktabgacha ta'lim" yo'nalishi
talabasi Normurodova Sabina Laziz qizi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, 1-bosqich talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb bo'lgan ta'lim turi-inklyuziv ta'lim to'g'risida hamda yosh bolalarga inklyuziv ta'lim berishda oilaning o'rni masalasi yoritib berilgan. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar va ulardan ota-onalarning foydalanishlari muhim ahamiyatga ega. Maqolada ota-onalar uchun zarur tavsiyalar va ko'rsatmalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, nogiron bolalar, oila, ota-ona, ijtimoiylashuv, yosh psixologiyasi, ilmiy statistic ma'lumotlar, miya, falaj, ko'rlik, karlik, aqliy zaiflik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. [1]

2020- yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bunga misol bo'la oladi. Bugun uning aynan bitta yo'nalishi-inklyuziv ta'limga batafsilroq to'xtalib o'tmoqchiman. Inklyuziv ta'lim nima degani va o'quvchilarga inklyuziv ta'lim olishda oilaning o'rni nimadan iboratligi haqida ushbu maqolada o'z fikrlarimni yozdim.

Inklyuziv ta'lim - bu umumiy ta'limni o'zgartirish jarayoni bo'lib, barcha bolalar undan foydalanishi, uni bolalarning turli ehtiyojlariga moslashtirish mumkinligini ko'zda tutadi. Bu esa alohida ehtiyojmand bolalarga bilim olish imkonini beradi. Inklyuziv ta'lim bolalar uchun mo'ljallangan va barcha bolalar ta'lim olishda turli ehtiyojlarga ega shaxslar ekanini e'tirof etadigan metodologiyani rivojlantirishga yordam beradi.[2]

O'zbekistonda inklyuziv ta'lim 1996-yildan buyon qo'llab kelinmoqda. Mamlakatimizda jismoniy va aqliy kamchiliklari unchalik og'ir bo'lmagan bolalarni qabul qilayotgan maktablar, imkoniyati cheklangan bolalar ota-onalariga ta'lim

muassasasini farzandining imkoniyati va qobiliyatiga qarab tanlash huquqini beradigan tegishli qonun hujjatlari mavjud. Bugungi kunda bunday bolalar oddiy maktablarda ham bilim olayotgani haqida ko‘plab misollar keltirish mumkin. Yevropa Ittifoqi tomonidan moliyalanadigan “O‘zbekistonda alohida ehtiyojli bolalar uchun inklyuziv ta’lim” loyihasi mamlakatimizda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga qo‘shimcha turtki berdi. Loyihaning asosiy maqsadi 2-10 yoshgacha bo‘lgan alohida ehtiyojli bolalar uchun ta’lim sifatini oshirish va ularning umumta’lim maktablari hamda maktabgacha ta’lim muassasalariga moslashishiga ko‘maklashishdan iborat.

Prezidentimiz BMT ning “Inson huquqlari” bo‘yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo‘nalishlar, jumladan, “Nogironlar huquqlari” to‘g‘risidagi Konventsiyani ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e‘tibor qaratildi.[3]

Inklyuziv ta’lim - bu jinsi, millati, dini va rivojlanish xususiyatlaridan qat’iy nazar, barcha bolalarni ta’lim jarayoni va ijtimoiy moslashuvga jalb qilish jarayoni. Hozirgi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarning inklyuziv ta’lim sohasida erishgan yutuqlari, hamda amaliy ishlari haqida maqolalar yoritilmoqda. Yosh bolalar rivojidagi jismoniy va ruhiy nuqsonlarning turlariga va zaifliklarning qay darajadaligini inobatga olib turli ko‘rilayotgan amaliy choralar ularning integratsiyalanish va jismoniy tiklanishi uchun muhim omil bo‘lmoqda.

Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarni o‘qitish va rivojlantirishga yondashuvlarni o‘zgartirish zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ijtimoiy moslashuvchan xulq-atvor ko‘nikmalariga ega bo‘lgan shaxsni ijtimoiylashtirishga qaratilgan. Ushbu muammoni hal qilish usullaridan biri inklyuziv ta’lim bo‘lib, u teng huquqlar, erkinlik, jismoniy yoki boshqa qobiliyatlaridan qat’iy nazar har qanday bola uchun mos ta’lim yo‘nalishini tanlash imkoniyatini beradi. O‘quv jarayoni bilan bog‘liq masalalarni ta’lim muassasasi mutaxassislari, psixolog, nutq terapevti va boshqalar hal qiladi. [4]

Ma’lumki, bolaning shaxs sifatida rivojlanishiga, uning ijtimoiylashuviga xizmat qiladigan asosiy oila va oiladagi shaxslararo munosabatlardir. Shu bois bola tarbiyasi va ta’limi samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ota-onalarning ijtimoiy- psixologik moslashuvi darajasi bilan belgilanadi, bu ularning o‘z farzandlari rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari, aqliy rivojlanish sifatining asosiy xususiyatlari va ularning yosh me’yorlariga muvofiqligi va hissiy-ijobiy ijtimoiy roli hisoblanadi.

Imkoniyati cheklangan bolaning oilada paydo bo‘lishi har doim barcha oila a’zolari uchun og‘ir psixologik stressdir. Ko‘pincha, oilaviy munosabatlar zaiflashadi, kasal bola uchun doimiy tashvish, chalkashlik hissi, ruhiy tushkunlik oilaning buzilishiga sabab bo‘ladi va faqatgina kichik foizlarda oila birlashadi.

Imkoniyati cheklangan bolaga ega bo‘lish oiladagi boshqa bolalarga salbiy ta’sir qiladi. Ularga kam e‘tibor qaratiladi, madaniy hordiq chiqarish imkoniyatlari kamayadi, ular yomonroq o‘qishadi va ota-onalarning nazorati tufayli kasal bo‘lib

qolish ehtimoli ko'proq. Imkoniyati cheklangan bolaning rivojlanishi ko'p jihatdan oilaviy farovonlikka, uning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida ota-onalarning ishtirokiga va turli xil ta'lim ta'siriga bog'liq. Oddiy sharoitlarda bola harakatchanligi, ko'ngil ochishi va hokazolar tufayli juda ko'p sonli ogohlantiruvchi manbadir. Nogiron bola ham o'qituvchisi uchun tugallanmaydigan manba bo'lib, faqat ularning sifati birinchi holatga qaraganda butunlay boshqacha. Imkoniyati cheklangan bola ko'proq mexanik ishni, bir xil parvarish va nazoratni talab qiladi va boladan javob, quvonchli qoniqish juda kam, bu bir tomonlama charchoqqa, hatto charchashga olib keladi. Biz oilada majburiyatlarni bo'lishishga harakat qilishimiz, natija esa bunday bolalar jamiyatda o'z o'rinlarini topishlari kerak.

Bu kabi bolalar noqulay sharoitlardan bezovtalanadigan atrofdagilarning, ayniqsa, qo'shnilarning salbiy munosabatini boshdan kechirmoqda (xotirjamlik, sukunatning buzilishi, ayniqsa, aqliy zaifligi bo'lgan nogiron bola yoki uning xatti-harakatlari bolaning atrof-muhitining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatsa). Atrofdagi odamlar ko'pincha muloqotdan qochishadi va nogiron bolalar deyarli to'laqonli ijtimoiy aloqalar, ayniqsa, sog'lom tengdoshlari bilan yetarlicha aloqa doirasiga ega emaslar. Jamiyat har doim ham bunday oilalarning muammolarini to'g'ri tushunmaydi va ularning ozgina qismi boshqalarning qo'llab-quvvatlashini his qiladi. Shu munosabat bilan, ota-onalar nogiron bolalarni teatr, kino, ko'ngilochar va hokazolarga olib bormaydilar, shu bilan ularni tug'ilishidan boshlab jamiyatdan butunlay ajralib qolishlariga yo'l qo'yadilar. Shunga o'xshash muammolarga duch kelgan ota-onalar bir-biri bilan aloqa o'rnatmoqdalar.

Ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalashga harakat qilishadi, uning asabiylashuvidan, egosentrizmdan, ijtimoiy va aqliy infantilizmdan qochib, unga tegishli mashg'ulotlar, keyingi ish uchun kasbga yo'naltirish berishadi. Bu ota-onalarning pedagogik, psixologik, tibbiy bilimlarining mavjudligiga bog'liq, chunki bolaning moyilligini, uning nuqsoniga munosabatini, boshqalarning munosabatiga bo'lgan munosabatini aniqlash va baholash, unga ijtimoiy moslashishda yordam berish, o'zini o'zi anglashni maksimal darajaga ko'tarish uchun maxsus bilim kerak.

Imkoniyati cheklangan bolalarni tarbiyalayotgan oilalar bilan ishlashning muhim yo'nalishi – ota-onalarning o'z ustida doimiy ravishda izlanishidir. Hozirgi kunda internet yaxshi rivojlangan paytda google, instagramm va telegram ijtimoiy tarmoqlarida ota-onalar uchun maxsus yo'riqnomalar, videodarslar va ko'rsatmalar aks etgan ma'lumotlarni toppish unchalik ham muammo bo'lmay qoldi. Shu sababli uyda nogiron farzandi bor ota-onalar ushbu bunday keng imkoniyatlardan foydalanishlari muhim ahamiyatga.

Ota-onalarning vazifasi bolani tinchlantirish, uning tashvishlarini yengillashtirish, oilada optimizm muhitini yaratishdir. Oilalar inklyuziv maktablarni tanlaydilar, shunda ularning farzandlari odatda rivojlanayotgan tengdoshlari bilan o'zaro munosabatlarini

kengaytirishi hamda boshqa ota-onalar va o'qituvchilar bilan bog'lanish imkoniyatini yaratishi mumkin. Imkoniyati cheklangan bolani tarbiyalashda oilaning sa'y-harakatlari uchun maktab o'qituvchilari tomonidan berilgan yuqori ijobiy baho oila va maktab o'rtasidagi samarali hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Buning uchun, avvalo, hissiy aloqa, ishonch, hurmat va qabul, ota-onalarning ko'magi va ularning fikrlarini ko'rib chiqish kerak.

Oila bilan maslahat, profilaktika va tarbiyaviy ishlar hamkorlik g'oyasiga asoslanadi, uning ta'lim qobiliyatini oshiradi, ota-ona va bola o'rtasida uyg'un munosabatlarni o'rnatadi. Ushbu ishning maqsadi ota-onalarning ta'lim jarayonida oilaning roliga bo'lgan psixologik munosabatlarini o'zgartirish; bola bilan munosabatlar uslubini o'zgartirish; oilaning pedagogik imkoniyatlaridan kengroq foydalanish. Bundan tashqari bugungi kunda turli xil jamoat birlashmalari bor, ularda mutaxassislar tomonidan turli xil trening va seminarlar o'tkazilib, ota-onalarga ijtimoiy va qonuniy yordam ko'rsatiladi.

Oila bilan ishlashning asosiy maqsadi-barcha oila a'zolarining (jismoniy, ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy, intellektual) shaxsiy rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, har tomonlama ijtimoiy va psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, bola va uning atrofini turli xil omillarning shaxsiy rivojlanishiga salbiy ta'siridan himoya qilish.

Ma'lumotlarga ko'ra, Jahon Sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyoda tug'ma va irsiy kasalliklarga chalingan 50 000 bolalari tug'ilib, keyinchalik "nogiron bola" maqomini oladi. Va amalga oshirilgan sa'y-harakatlarga va tibbiyotning sezilarli taraqqiyotiga qaramasdan, nogiron kishilar soni asta-sekin, ammo barqaror o'sib bormoqda. Misol uchun, maxsus ta'limga muhtoj bo'lgan bolalar har yili 3-5% ga ko'payadi. Ular asosan tug'ma bolalar patologiya: miya falaj, ko'rlik, karlik, aqliy zaiflik va boshqalar dunyoda tug'ilgan nogiron bolalardir.

Shunday qilib, imkoniyati cheklangan farzandi bor ota-onalar psixolog tavsiyalariga ko'ra qo'yidagi amallarni amalga oshirish kerak:

1. Farzandingizni hech qachon shunday tug'ilgani uchun unga achinmang. Undan mehringizni ayamang, uni boricha qabul qiling va nuqsonlarini yuziga solmang.

2. Bolaning fikrini eshiting unga yengil uy ishlarini qilish uchun topshiriqlar bering, uning mustaqil fikrlashiga qo'yib bering.

3. Farzandingiz uchun o'rnak bo'lishga harakat qiling, o'z tashqi qiyofangizga e'tiborli bo'ling, shunday farzandingiz borligidan afsuslanmang sababi bu unga ta'sir ko'rsatadi.

4. Uning xohish-istaklari va qiziqishlari bilan doimiy ravishda qiziqib boring.

5. Farzandingiz bilan juda ko'p muloqot qiling, shu narsani yodda tuting hech qanday televizor yoki telefon ham sizni o'rningizni bosa olmaydi.

6. Mutaxassislardan doimo maslahat olib turing, seminar va treninglarda ishtirok eting.

7. Farzandingizni urushmang, xató ish qilsa ham yaxshi gap bilan tushuntiring, u bilan do'stona munosabatda bo'ling.

8. Ko'chada shunday farzandingiz borligidan uyalmang, bu bolaning ruhiyatiga juda yomon ta'sir ko'rsatishini doimo yodda tuting.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.10.2020 yildagi PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'sida" qarori va 2020 — 2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. <https://lex.uz/docs/5044711>

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz BMT ning "Inson huquqlari" bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqi. Yangi O'zbekiston rasmiy sayti. <https://yuz.uz/>

4. "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. Toshkent shahri. 2021 yil 26 mart, 335 bet.

5. Хурвалиева Т.Л. Мақтабгача та'лимда art-технологиялардан фойдаланиш. //Mug'allim hám yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikalыq jurnalі.Nukus.2023,№1/1. P. 185-189.

6.Хурвалиева Т.Л. Мақтабгача yoshdagi bolalarning emotsional rivojlanish xususiyatlari. //Mug'allim hám yzluksiz bilimlendirio' ilimiy-metodikalыq jurnalі.Nukus.2023,№5/2. P. 311-315.

DARSLARDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

A.A.Karajanova¹, D.K.Sipatdinova², Z.O.Sherimbetova², X.A.Abdikalikova²

¹Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali

²№1 sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim texnologiyalari, ya'ni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari haqida. Ta'limdagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) - bu o'quv jarayonini boyitish, o'rganishni yaxshilash va bilim almashish uchun ishlatiladigan turli xil vositalar va manbalar. Ular kompyuterlar, interaktiv doskalar, mobil qurilmalar, o'quv dasturlari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu maqola sizga nafaqat kimyo darslarida AKTdan qanday foydalanishni tushunishga yordam beradi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuterlar, Internet, multimedia resurslari, kimyo darslari, kirtual laboratoriyalar, interaktiv taqdimotlar va video materiallar, onlayn manbalar va ilovalar, masofaviy o'qitish.

Darslarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta'lim olish imkoniyatini yaxshilashga yordam beradi. Turli xil onlayn manbalar bilan ishlash, veb-seminarlar o'tkazish va masofaviy ta'limdan foydalanish muvaffaqiyatli. Bu va boshqalar o'quvchilarga joylashuvidan qat'iy nazar, ta'lim olish imkonini beradi va masofadan turib o'rganish imkoniyatlarini yaratadi.

O'qituvchilar uchun AKT har bir talabaning individual ehtiyojlari va o'qitish tezligini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan o'quv materiallari va o'qitish usullarini yaratish imkoniyatini beradi. Adaptiv o'quv dasturlari va onlayn platformalar ma'lum bir talabaning bilim darajasi va qobiliyatiga mos keladigan o'quv materialini taklif qilishi mumkin. Bu zamonaviy o'qituvchining ishini 70% ga osonlashtiradi. Ushbu texnologiyalar o'quvchilarda zamonaviy dunyoda tobora muhim ahamiyat kasb etayotgan raqamli ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Kompyuterlar, Internet, multimedia resurslari va dasturiy ta'minot bilan ishlash o'quvchilarda raqamli davrda muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantiradi. AKT maktablarda, universitetlarda, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, shuningdek onlayn ta'lim platformalarida keng qo'llaniladi. Ular darslarni o'tkazish, o'quv materiallarini yaratish, onlayn kurslarni o'tkazish va boshqa ko'p narsalar uchun ishlatiladi.

Men kimyo o'qituvchisi bo'lib ishlaganim sababli, kimyo darslarida AKTdan foydalanish masalasini batafsilroq ko'rib chiqmoqchiman. Ushbu texnologiyani kimyo

darlarida qo'llash o'quv jarayonini boyitishga imkon beradi. Kimyoviy laboratoriyada har doim ham mavjud bo'lmagan hamma narsani ko'rsatish ushun.

Keling, kimyo darlarida AKTdan foydalanishning bir necha asosiy usullarini ko'rib chiqaylik.

Virtual laboratoriyalar

Kimyo darlarida AKTni qo'llashning eng qiziqarli usullaridan biri bu virtual laboratoriyalardan foydalanishdir. Ular talabalarga virtual muhitda turli xil kimyoviy tajribalar o'tkazish imkonini beradi, bu esa haqiqiy laboratoriya ishlarini tayyorlash uchun vaqt va resurslarni tejaydi. Shuningdek, u xavfli kimyoviy moddalardan qochadi va oddiy laboratoriya muhitida mavjud bo'lmagan tajribalarni o'tkazish imkoniyatini yaratadi.

Interaktiv taqdimotlar va video materiallar.

AKTdan foydalanish, shuningdek, o'quv materialini o'quvchilar uchun yanada qulayroq va qiziqarli qiladigan interaktiv taqdimotlar va video materiallarni yaratishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchi interaktiv doskalardan kimyoviy jarayonlarni namoyish qilish, reaksiyalarni jonlantirish yoki murakkab tushunchalarni tasavvur qilish uchun foydalanishi mumkin, bu esa o'quvchilarga materialni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Onlayn manbalar va ilovalar.

Talabalarga kimyo fanini o'rganishda yordam beradigan ko'plab onlayn manbalar va mobil ilovalar mavjud. Interaktiv elementlar jadvallardan tortib kimyoviy jarayonlarni modellashtirish ilovalarigacha, bunday manbalar o'quvchilarga interaktiv tajribalar o'tkazish va murakkab kimyoviy tushunchalarni o'rganish orqali bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Masofaviy o'qitish.

Masofaviy ta'lim texnologiyalarining rivojlanishi bilan AKT o'qituvchilarga kimyo darlarini onlayn o'tkazish, tajribalarni namoyish qilish, topshiriqlarni muhokama qilish va talabalar bilan o'zaro aloqada bo'lish uchun videokonferentsiyalardan foydalanish imkonini beradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limni takomillashtirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va butun o'quv jarayonini rivojlantirishga yordam beruvchi kuchli vositadir. Ular zamonaviy ta'lim muhitini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi va ulardan to'g'ri foydalanish bilim ufqlarini va ta'lim sifatini sezilarli darajada kengaytirishi mumkin.

Kimyo darlarida AKTdan foydalanish materialni chuqurroq va qiziqarliroq o'zlashtirishga yordam beruvchi kuchli vositadir. Bu o'qituvchilar va talabalarga imkoniyatlarni kengaytirib, o'rganishni yanada qulay va qiziqarli qiladi. Muvaffaqiyatli ta'lim nafaqat texnologiyaga, balki AKTni an'anaviy o'qitish usullari

bilan uyg'unlashtira oladigan iqtidorli o'qituvchilarga ham bog'liqligini unutmastik kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. *Primenenie informacionno-kommunikacionnyx texnologiy v obrazovanii* / L. P. Zeleneckaya. — *Tekst : neposredstvennyy // Molodoy uchenyy*. — 2020. — № 18 (308). — S. 498-499.
2. *Informacionnye i kommunikacionnye texnologii v obrazovanii: uchebno-metodicheskoe posobie pod red. I. V. Robert*. — Moskva, Drofa, 2008.

“ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARI” MODULINING MAZMUNI

A.A.Karajanova¹, D.K.Sipatdinova², G.B.Bekmuratova²

¹Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali

²№1 sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqola o'qitishning zamonaviy shakllari va metodlarini, kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-laboratoriya anjomlari va o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash, ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, oliy ta'lim muassasalarining zamonaviy ilmiy laboratoriyalarini tashkil etish.

Kalit so'zlar: Zamonaviy axborot texnologiyalari, zamonaviy dasturlash tillari modulining vazifasi, zamonaviy dasturlash tillari mavzusini, zamonaviy dasturlash tillari moduli.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va birinchi navbatda bu texnologiyalarga asoslangan eng yangi dasturiy ta'minotlar bugungi kunda inson bilimining barcha sohalarida katta ahamiyatga egadir. Shuning uchun eng muhim vazifa bo'lajak mutaxassislarga bu texnologiyalar va ularga asoslangan uskunaviy vositalarni o'qitishdan iborat. Shunday zamonaviy, uskunaviy vositalardan biri C++ Builder dasturlash muhitidir. Muhit asosini C++ tili tashkil qiladi.

Mazkur modulda algoritm va uning xossalari, algoritm ijrochilari, algoritmlarni tasvirlash usullari, rekursiya va iteratsiya, algoritmning murakkabligi tushunchasi, algoritm turlari, samarali algoritmlar ishlab chiqishning asosiy usullari, algoritmik tillar, dasturlash tillari va ularning klassifikatsiyasi, dasturlash tilining alifbosi, buruqlar tizimi va operatorlarini, chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi dasturlar tuzishni, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillari hakidagi, ob'ektga yo'naltirilgan loyihalash; ob'ektlarni loyihalash: ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tili va unda dastur tuzish kabi bilimlar beriladi.

Zamonaviy dasturlash tillari modulining vazifasi:

-algoritm tushunchasi va uning asosiy hossalari, ijrochilari, tasvirlash usullari, turlari, algoritmik tillar bilimlar bilan tanishtirish

-dasturlash tillari va ularning klassifikatsiyasi, dasturlash tilining alifbosi, buruqlar tizimi va operatorlari bilan tanishtirish va amaliy masalalarga dasturlar tuzishni o'rgatish;

-ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillari va ular ustida ishlashni o'rgatishdan iborat.

Zamonaviy dasturlash tillari mavzusini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr:

-algoritm, va uning xossalari, algoritm ijrochilari, algoritmlarni tasvirlash usullari, rekursiya va iteratsiya, algoritmning murakkabligi tushunchasi, algoritm turlari, samarali algoritmlar ishlab chiqishning asosiy usullari, algoritmik tillar, dasturlash tillari va ularning klassifikatsiyasi, dasturlash tilining alifbosi, buruqlar tizimi va operatorlarini, chiziqli, tarmoqlanuvchi va takrorlanuvchi dasturlar tuzishni, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillari hakidagi, ob'ektga yo'naltirilgan loyihalash; ob'ektlarni loyihalash: ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tili va unda dastur tuzishni bilishlari kerak;

Xususan, kasbiy sohasida uchraydigan turli hil masalalarga algoritmlar tuza olishi, algoritmning turlarni farqlay olish, tasvirlash usullariga oid misollar keltira olish, rekursiya va iteratsiya, algoritmning murakkabligi tushunchalarni ajrat olishi, samarali algoritmlar ishlab chiqishning asosiy usullari (balansirovka, dinamik dasturlash va boshqalar)ni amaliy qullay olishi, biror bir dasturlash tillari va ularning turlarini farqlay olish, dasturlash tillalari yordamida amaliy masallalarga dasturlar tuza olish, massivlar, grafik operatorlar, satriy kattaliklar bilan ishlash, funktsiyalar va protseduralar, yozuvlar, ro'yxatlar, fayllar, modulli dasturlar haqidagi bilimlarni amalda qullay olish, ob'ektga yo'naltirilgan dasturlash tillaridan foydalana olish, boshqarish elementlari, oynalar, dialoglar; voqealar va habarlar, ob'ektga yo'naltirilgan muhitlarda habarlarni uzatish va ularga ishlov berish, ob'ektlar ierarxiyasi asosida dasturlarni loyihalash malakalariga ega bo'lishlari kerak.

Zamonaviy dasturlash tillari moduli asosiy modullardan biri hisoblanib, nomutaxassis yo'nalishlarda, asosan, 2 va/yoki 3 semestrlarda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasidagi rejalashtirilgan nazariy informatika, ma'lumotlar bazasi va ularni boshqarish tizimlari modullaridan olingan nazariy va amaliy bilimlarga tayanadi.

Talabalarning mustaqil ishlari har bir ma'ruza mavzusi asosida tashkil etiladi. Fanni o'rganish jarayonida mustaqil ishlarning bir necha turlaridan foydalaniladi. Bular adabiyotlar bilan ishlash, ijodiy ish, ishlarni elektron ko'rinishda bajarish, ba'zi mavzular bo'yicha referatlar tayyorlash bo'lishi mumkin. Mustaqil ishlarni tashkil etishda internet va axborot manbalaridan doimiy foydalaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Sh.M. Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent 2017 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining ko'shma majlisidagi nutqi.

2. A.Qayumov, M.Asrayev, M.Jo'rayev Dasturlash 1 fanidan uslubiy qo'llanma. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Farg'ona filiali 2019 yil.

ТЕХНИК СЕРВИС ТЕХНОЛОГИК ЖАРAYONINI AVTOSERVIS KORXONALARIDA TASHKIL ETISH

A.A.Karajanova¹, D.K.Sipatdinova², S.Saparbaeva², G.Embergenova²

¹Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi TATU Nukus filiali

²№1 sonli kasb-hunar maktabi o'qituvchilari

Annotatsiya: Mazkur maqola avtotransport vositalari texnik servisi texnik ta'minlashning jahon bo'yicha keng tarqalgan usuli hisoblanib, ishlashga yaroqliligi, ishonchliligi, xavfsizligi, tejamkorligi tavsiflab berilgan.

Kalit so'zlar: Avtotransport vositalari, avtoservis xizmatining asosiy vazifasi, avtoservis tizimining rivojlanishi, tijoriy xizmat, servis korxonalar, texnik-nazorat.

Avtotransport vositalari texnik servisi texnik ta'minlashning jahon bo'yicha keng tarqalgan usuli hisoblanib, ishlashga yaroqliligi, ishonchliligi, xavfsizligi, tejamkorligi va zaruriy tashqi ko'rinishini ta'minlash uchun bajariladigan bir qancha xizmatlar majmuidir. Avtoservis xizmatining asosiy vazifasi mamlakatdagi avtomobil transporti, qaysi mulk shaklida bo'lishidan qat'iy nazar, beto'xtov, xavfsiz, tejamkor va ishonchli ishlashini ta'minlashdir.

Respublikamizda avtomobillar deyarli har kuni ishga chiquvchi avtomobillarni yonilg'i-moy mahsulotlari bilan ta'minlash, ularni yuvish-tozalash va nazorat qilish, xizmat ko'rsatish yoki ta'mirlash talab etiladi.

Avtoservis tizimining rivojlanishida – ko'rsatiladigan xizmatlarning ma'lum bir xususiyatlarga ega bo'lishini taqozo etadi:

- avtomobillarni insonlarga va xalq xo'jaligi ishlariga hammabopligi, ya'ni mijozning istalgan korxonada servisdan foydalanish imkoniyatiga ega ekanligi;
- xizmatlar sifatining davlat qonunlari asosida kafolatlanishi;
- servis madaniyatining oshishi va sifatining yaxshilanishiga doimo rag'bat mavjudligi;
- mavjud ehtiyot qismlar va materiallarning ishonchli ekanligi;
- xizmatlardan foydalanishning qulayligi, mijozlarni o'ziga jalb qila bilishi.

Avtomobillar servisini texnik, tijoriy, mijozlar uchun qulayliklar hosil qilish va axborot etkazish kabi ishlarga ajratish mumkin.

Tijoriy xizmat deyilganda asosan aholini avtomobillar, ehtiyot qismlar, avtomateriallar va avtoanjomlar bilan hozirgi vatq talabaliga javob beradigan holatda ta'minlash, savdo va reklama qilish va umuman bu sohaning biznes sifatidagi faoliyati tushuniladi, chunonchi: - avtomobillar, ehtiyot qismlar, avtoanjomlar bilan savdo qilish; - avtomobillarni yonilg'i-moy materiallari bilan ta'minlash; - mijozlar avtomobillarini komission usulda sotib berish; - avtotexnik ekspertiza xulosalari chiqarish;

Мижозлар uchun qulayliklar yaratish va axborot etkazish deyilganda: - mijozlar uchun turli maishiy xizmatlar va qulayliklar tashkil etish (kafe, bar, choyxona va h.k.); - mijozlarni avtoservis axboroti bilan ta`minlash; - texnik maslahatlar tashkil etish; - ko`rsatiladigan xizmat turlarini reklama qilish; - mijozlar bilan doimiy aloqalar o`rnatish, ularning talablari, fikrlari va takliflarini o`rganib, o`z faoliyatida hisobga olish va boshqalarni ko`zda tutadi.

Barcha turdagi servis korxonalarida, asosan katta quvvatli avtoservis korxonalari, texnik xizmatning quyidagi turlari amalga oshiriladi: avtomobillarni sotish oldi texnik xizmati, kafolat davrida va undan keyingi davrda texnik xizmat, mijoz buyurtmasi asosida bajariladigan qo`shimcha texnik ishlar.

Hammabop texnologiya deyilganda uning ko`p marotaba boshqa servis korxonalarida ham qo`llash imkoniyati mavjudligi tushuniladi, universalligi deyilganda turli modeldagi, rusumdagi avtomobillarga xizmat ko`rsatishda ham shu texnologiyani qo`llash mumkinligi tushuniladi. Avtoservis korxonalarining ishlab chiqarishini tashkil etish texnologiyasi yagona o`zaro bog`lanish mezonini asosida avtomobilni yuvish-yig`ishtirishqabul qilish uchun ko`rib chiqish va zarur bo`lgan hollarda avtomobilni diagnostika postidan o`tkazib bajariladigan ishlar hajmini oldindan taxminiy aniqlash va ularni bajarish shartlarini mijoz bilan kelishishdan boshlanadi. Shuni aytish zarurki, qaysi va qanday ishlarni bajarilishni tanlash va buyurish mijozning huquqidir. Bunda, albatta qabul qiluvchi mutaxassis - servis xodimi unga malakali maslahatlar beradi.

Avtomobillarni qabul qilib olish maxsus hujjat «Avtoservis korxonalarida avtomobillarni xizmatga qabul qilish va egasiga topshirish qoidalari» asosida amalga oshiriladi. Shu maqsad uchun korxonada maxsus jihozlangan post (ko`targichli yoki estakada) ajratiladi.

Odatda, qabul qilish va texnik-nazorat, egasiga topshirish postlari birlashtirilib, avtomobil bir joyda, yakka mutaxassis tomonidan qabul qilinadi ham da egasiga topshiriladi.

TXK va ta`mirlash ishlari hajmi mijozning talabi va xohishiga qarab, o`zgarishi, ko`p variantli bo`lishi mumkin.

Shuni ta`kidlash kerakki, respublikamiz miqiyosida avtomobillarga servis xizmat ko`rsatish joylarida avtomobilni yuvish-tozalash, qabul qilib ko`zdan kechirish ishlari bajarilsa, xavfsizlikni ta`minlovchi mexanizmlar va tizimlar diagnostikadan o`tkazilsa, zarurat bo`lsa, chuqur diagnostika qilib, so`ng ishchi postlariga yoki kutish joylariga jo`natish tavsiya etiladi.

Фойдаланилган адабиётлар рo'yxати

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2007 yil 21 maydagi «O'zbekiston Respublikasida xizmatlar va servis sohasini 2010-yilgacha bo'lgan davrda jadal rivojlantirish qo'shimcha choralari haqida» qarori.
2. Avtomobillar texnik ekspluatatsiyasi. Sidiqnazarov Q.M. umumiy tahriri ostida, -T.: "Voriz nashriyoti"

JIZZAX VOHASI TOJIK AHOLISINING AN'ANAVIY XALQ O'YINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING TURLARI

Babayev Shoxrux Esanbayevich
Jizzax viloyati Mirzacho'l tumani
Barkamol avlod bolalar maktabi
tarix fani to'garak rahbari

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada Jizzax vohasi tojik aholisining xalq o'yinlari, xususan, vohadagi tojiklarning an'anaviy xalq o'yinlari va ularning turlari haqida ba'zi ilmiy mulohazalar yoritilgan.

KALIT SO'ZLAR. Jizzax, tojik, Uxum, Mojurum, chillik, ko'pkari, go'shin, besh tosh.

АННОТАЦИЯ. В данной статье изложены некоторые научные соображения о народных играх таджиков жителей Джизакского оазиса, в частности, о традиционных народных играх таджиков в оазисе и их видах.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА. Джизак, Таджики, Ухум, Моджурум, Чиллик, Копкари, Гошин, пять камней.

ANNOTATION. In this article, some scientific considerations about the folk games of the Tajik residents of the Jizzakh oasis, in particular, the traditional folk games of the Tajiks in the oasis and their types, are covered.

KEY WORDS. Jizzakh, Tajik, Ukhum, Mojurum, Chillik, Kopkari, Goshin, five stones.

Jizzax vohasida an'anaviy xalq o'yinlari vohada isteqomat qilib kelgan xalqlar tomonidan o'ynalib, ming yillar davomida turli xil ko'rinishlarda ommalashib, xalqlarning ijtimoiy hayoti, milliy xususiyatlari, qolaversa maishiy hayot tarzi bilan bog'liq holda shakllangan. Chunonchi, an'anaviy xalq o'yinlari insonlarning xayoti turmushida, xususan ommaviy sayl va musobaqalarida, to'y va boshqa marosimlarda o'tkazilgan bo'lib, o'yinlar o'tmish yozma yodgorliklarida va xalq o'yinlariga bag'ishlangan ba'zi manba va adabiyotlarda o'z aksini topgan.

Jizzax tojiklar o'yinlari va ularning tasnifi borasida mulohaza yuritadigan bo'lsak, hanuzgacha ilmiy adabiyotlarda umum qabul qilingan tasnif mavjud emas. Shu bois, biz o'rganib, Jizzax vohasi tojik aholisi an'anaviy o'yinlarini uchta guruhga bo'lib tahlil qildik:

1) biror predmet asosida o'ynaladigan o'yinlar: *yong'oq urish, chillik, arg'imchoq, oshiq, varrak uchirish, o'rta tushar, besh tosh* va hokazo;

2) predmetsiz o'ynaladigan o'yinlar: *quvlashmachoq, bekinmachoq, zim-ziyo*, va hokazo;

3) o'rtada biror shart qo'yib o'ynaladigan o'yinlar: bu o'yinlarga *kurash* va *ko'pkari, ot poyga* kabi o'yinlar kiradi.

Bu an'anaviy xalq o'yinlari shunisi bilan xarakterliki, ayrim o'yinlar fasllar almashishi bilan o'ynalib, qish fasli o'tib, bahor fasli kelishi bilan o'ynalsa, ayrim o'yinlar yil bo'yi o'ynalgan.

Manbalarda eng qadimiy o'yinlar sifatida ovchilik va dehqonchilik o'yinlari tilga olinadi¹. Shu nuqtai nazardan unutilgan xalq o'yinlarini to'plash va qayta tiklash hamda hayotga tatbiq etish yosh avlodni tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega. An'anaviy xalq o'yinlarining yosh avlodni jismoniy tarbiyalash va kamol toptirishda o'rni beqiyosligini hisobga olib unversiada o'yinlari, respublika chempionatlari, olimpiyada o'yinlarida ishtirok etish uchun yoshlikdan muntazam sport bilan shug'ullanib kelish kerak bo'ladi. Sportning milliy turlari va xalq o'yinlari bo'yicha har yili tuman musobaqalari, ikki yilda bir marta Respublika festivali o'tkazish belgilangan².

Umuman olganda, eng qadimgi davrlardan boshlab inson hayotida termachilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilikka oid mehnat tajribalari bilan birga o'yinlar shakllana boshlagan. Ongli mehnat va tajriba asosida turli o'yinlar paydo bo'lgan bo'lib, maxsus ilmiy adabiyotlarda ko'pgina ilmiy tadqiqotlarda xalq o'yinlarini to'rt asosiy guruhga – jangovar, ishqi, taqlidiy va ijtimoiy o'yinlarga ajaratiladi³.

Oilaviy-maishiy marosimlar ijtimoiy hayot zaruriyati natijasida paydo bo'lib, inson aql -zakovati, ma'naviy-axloqiy va huquqiy ehtiyojlari asosida vujudga kelgan. Shu jihatdan bu marosimlar uzoq davr davom etgan tarixiy taraqqiyot mahsulidir. Chunki, Sharqda qadim-qadimdan oila muqqadas vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va osoyishtalikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi⁴.

Tadqiq etilayotgan hudud tojik aholisining an'anaviy o'yinlari nafaqat bolalar, qolaversa, kattalar o'yinlariga ham bo'lingan. Bu an'anaviy xalq o'yinlari yoshlarni jismoniy baquvvat, sergak, qo'rqmas bo'lishiga, ularning aqlini o'stirishga, tez fikrlashga o'rgatishga, topqir, zukko bo'lishiga o'ziga xos o'rni bor bo'lib, katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan.

¹Qaraboyev U. O'zbekiston bayramlari. –Toshkent: O'qituvchi, 1992. –B. 7-13.

²Xalq so'zi. 1998-yil 13-noyabr; 1999-yil 29-noyabr.

³Всеволодский-Гернгросс В.Н. Игры народов СССР. –М.-Л.: Академия, 1933. –С. XXIII-XXIV.

⁴Karimov I.A. Oila farovonligi – millat farovonligi / Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T. 6. –Toshkent: O'zbekiston, 1998. –B. 300.

Qadimgi o'yinlar yillar o'tishi bilan yangicha nom bilan atala boshlagan. Chunonchi, Mahmud Koshg'ariyning yozishicha, *Yalingu* deb nomlangan o'yinda joriyalar daraxt shoxlariga arqon bog'lab, shu arqonga o'tirib uchib o'ynaganlar⁵. Bu hozirgi davrdagi an'anaviy xalq o'yinlaridan biri bo'lgan *arg'imchoq* va *halinchak* o'yinidir.

Yong'oq urish o'yini eng zavqli o'yinlardan biri bo'lib kuz faslida yani yong'oq pishib yetgan vaqtda bolalar tomonidan eng ko'p o'ynaladigan o'yin. Ushbu o'yinni ikki kishi yoki bir necha kishi bo'lib o'ynashlari mumkin. O'yin ishtirokchilarining yong'oqlari bir qatorga teriladi va masofa belgilab chiziq ustida terilgan yong'oqni urib chekaga chiqarib yuboradi chekaga chiqarilgan yong'oqni kim urib chiqargan bo'lsa o'sha ishtirokchiliki bo'ladi.

Oshiq o'yini tog'li tojik qishloqlarida bolajonlar tomonidan o'ynaladigan eng sevimli o'yinlardan biri bo'lib o'g'il bolalar o'ynaydigan o'yin. *Oshiq* o'yinini o'ynash uchun qo'y va echkilarni tizzalaridagi oshiqlari olib quritiladi, quritilgan *oshiq* suyak olib yerga otiladi ikkinchi ishtirokchi uni o'zining qo'lidagi *oshiq* suyagi bilan urishi kerak bo'ladi. *Oshiq* suyak borib yerdagi suyakga teksta tegizgan ishtirokchi *oshiq* suyakni o'ziniki qilib oladi agar tekkiza olmasa toki kim tekuzguniga qadar davom etadi.

Arg'imchoq sakrash o'yinini asosan qiz bolalar ko'proq o'ynashadi o'g'il bolalar ham qizlar bilan birgalikda *arg'imchoq*dan sakrashadi. *Arg'imchoq* sakrash yakka tartibda yoki ikki kishi ikki yondan katta *arg'imchoq*ni aylantirishadi o'rtaga tushgan qiz sakraydi yoki ikki kishi juft bo'lib ham sakrashadi. *Arg'imchoq* sakrashada juftliklarga bo'linib ham musobaqa shaklida o'ynashlar eng ko'p o'ynaladigan juftlik o'yinlaridan biri sanaladi. Ushbu o'yin judayam oson bo'lganligi va o'yin predmeti tezda topilgani uchun ham tez tez o'ynaladi.

O'rtaga tushar o'yini ham qizlar orasida keng tarqalgan o'yinlardan biri. Ushbu o'yinni o'ynash uchun uch kishi talab qilinadi ikki kishi ikki yonda o'rtadagi ishtirokchi esa ikki yondan otiladigan koptokdan qochishga harakat qiladi. Koptokni tekizgan yon tomondagi ishtirokchi davraga tushadi va ikki yondan otiladigan koptokdan qochadi o'yin shu tarzida davom etadi. *O'rtaga tushar* o'yini juftlik baxslarida ham o'ynaladi.

Jizzax vohasi tojiklari joylashgan hududlarining ko'pchiligi tog' yon bag'irlarida joylashganligi sababli muntazam shamol esib turganligi uchun ham *varrak* uchirish o'yinlari ham bo'lib turadi. Asosan erta baxorda ushbu o'yin ko'proq o'ynaladi. *Varrak* uchirish uchun avvalo uni tayorlab olish kerak bo'ladi. Tojik qishloqlarida *varraklar* asosan matodan yasaladi eng yaxshi uchadigan *varrakni* yasash uchun ipak mato kerak bo'ladi ushbu mato *varrakni* tuzilishiga qarab uchburchak yoki to'rtburchak shakldagi

⁵Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. III jild. –Toshkent: Fan, 1965. –B. 279.

cho'pga mahkamlanadi va pastgi qismidan ip boylanadi va shamol esgan vaqtlari yugurib varrak qo'yvoriladi asta sekin shamol esishi va varrak uchuruvchini yugurishiga qarab varrak tepaga ko'tariladi. Varrakni eng balandga uchirgan bolaning varragi eng zo'r varrak deb etirof etiladi.

Chalkan tepish (xalq og'zida –*Lanka* deyiladi) o'g'il bolalar orasida keng tarqalgan o'yinlardan biridir. O'yinni o'ynash uchun avval chalkan yasalishi kerak. *Chalkanni* yasashda avvalo echki yoki quyon junini dumaloq qilib kesishadi so'ngra junning orqa tomoniga dumaloq qo'rg'oshin kesilib teri bilan qo'rg'oshin boylanadi chalkan tayyor bo'lganida uni tepish mumkin bo'ladi. Asosan ikki ishtirokchi tomonidan o'ynaladi oyoqni yon tomoni bilan tepaga qaratib tepiladi. Tepaga eng ko'p tepgan kishi o'yin g'olibi bo'ladi.

Bekinmachoq o'yini asosan kechqurun o'ynaladigan o'yinlardan biri bo'lib bir kishi ko'zini yumib sanaydi boshqa ishtirokchilar yoshinishadi va ko'zini yumgan bola bekinib olganlarni qidiradi kimni birinchi bo'lib topsa topdim deb baqiradi topilgan birinchi kishi ko'zini yumib boshqalar bekinishi uchun sanaydi o'yin shu tarzida birin ketin bir birlarini topishi bilan qayta qayta davom etaveradi.

Quvlashmachoq o'yini barcha xalqlarda bo'lgani kabi tojik bolalari ham ushbu o'yindan ko'p o'ynashadi. *Quvlashmachoq* o'yinini o'ynash uchun joy va vaqtning ahamiyati ikkinchi daraja bo'lib xoxishga qarab bolalar kunduzi va kechalari ham quvlashmachoq o'ynaganlar. *Quvlashmachoq* o'yinini asosan ko'pchilik bo'lib o'ynash zavq bag'ishlaydi, bir kishi bir necha kishini quvlaydi kimni ushlab olsa ushlangan kishi quvishni bajaradi o'yin shu tarzda bir birlarini quvlashib oxiri tugatiladi.

An'anaviy tojik xalq o'yinlaridan *Zim ziyo* o'yiniga mos o'yinlaridan biri *Qorag'ung*⁶ Mahmud Koshg'ariyning *Devonu lug'otit turk* asarida keltirilgan. O'yinda ona boshi saylash, yashirish, yutqazgan bola sheriklarini qayerda ekanligini aniqlashi kabi shartlar borligi bilan *bekinmachoq* o'yiniga o'xshaydi. O'yin faqat tunda o'ynalishi va sheriklarini izlayotgan bola yashiringan o'yinchini ko'rganda *yoftam* topdim deb ta'kidlashi bilan bu o'yin bekinmachoq o'yinidan farq qiladi.

Hozirgi kungacha saqlanib kelayotgan tojiklarning an'anaviy xalq o'yinlaridan biri **halinchak uchish** o'yini bo'lib, asosan bahor faslida yigitlar va qizlar, qolaversa, kelinchaklar mevali daraxtlar (asosan yong'oq, o'rik (zardoli) daraxtlar mustahkam bo'lganligi uchun)ga arqon bog'lab, halinchaklarda uchganlar. Halinchak uchish o'yinining an'anaviy tarzda o'tib kelishi, xalqimizning qadimdan o'troq yashab dehqonchilik bilan shug'ullanib kelayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning turli hududlarida bo'lgani singari Jizzax vohasi tojiklarida ham hammabop barcha birday o'ynaydigan o'yinlar bilan birga bolalar va qizlar o'yinlari

⁶Mahmud Koshg'ariy. Ko'rsatilgan asar. –B. 260.

hamda erkak va ayollar o'yinlari bo'lgan. Qizlar va bolalar 12-13 yoshga to'lgan davridan boshlab alohida-alohida o'yinlarni o'ynaganlar. Natijada aynan yigitlar o'ynaydigan podachi, chavandoz, oqsuyak, oqtayoq, kurash, soqqa, quloq cho'zma kabi o'yinlar shakllangan. O'z navbatida esa qizlar durra, xal-xilcha, chori-chambar, tortishmachoq, bolqon, beshtosh, chekimtosh, g'oz-g'oz kabi o'yinlarni o'ynaganlar.

Kurash tojik xalqlar orasida keng tarqalgan qadimiy an'anaviy xalq o'yinlaridan biri bo'lib kelmoqda. Tadqiq etilayotgan davrda an'anaga ko'ra ular norasmiy bo'lib, kurash musobaqalarida olishuv muddati cheklanmagan, polvonlar bir-birini yiqitgunlariga qadar davom etgan. Respublikamiz mustaqilligi sharofati bilan kurash sport turi sifatida jahonga yuz tutmoqda.

Voha tojik aholisi ma'naviy madaniyati ming yilliklar davomida voha hududida istiqomat qilib kelgan etnoslarning yashagan tabiiy-geografik muhit, ularning xo'jalik faoliyati va ijtimoiy munosabatlari hamda bir qator boshqa omillari ta'sirida mintaqaga xos to'y va to'y marosimlar, an'anaviy taqvimiy marosimlar, shuningdek, milliy o'yinlar shakllangan.

Jizzax vohasi tojiklari asosan sunnat to'ylarida to'y qiluvchining moliyaviy holatidan kelib chiqib *Go'shin* (kurash) va *Buzkash* (ko'pkari) berilgan⁷ va pul, to'n, oyoq kiyimlar, echki, qo'y, xo'kiz, ot, tuya kabi sovrin-zotlar qo'yilgan. Voha tojiklarining Uxum, Mojurum, Sintob, kabi qishloqlarida **kurash** va **ko'pkarini gushin** va *buzkash* deb ataganlar⁸. Tojik to'ylari ko'pincha kurahsiz o'tmagan. Uni boshqarish, polvonlarni tanishtirish, sovrinni berish kabi vazifalarni bakovul (bekovul) bajargan. Har bir polvon o'z qishloq, ovulining or-nomusi uchun olishgan. Yiqilgan polvonni himoya qilib qishloqdosh polvon kurashga davraga tushgan. Qaysi polvon raqibini yiqitib, yelkasini yerga tekkizgandagina *halol* hisoblangan.

Voha tojiklaridagi sunnat to'ylarida ko'pkari ham o'tkazilgan. Tantana oynadek yorug' o'tsin, deb oyna ko'rsatilgan. Bellashuvga ketayotgan *chobag'on* (chavandoz)lar oynaga qarashlari shart bo'lgan. Shuningdek, uloqni ya'ni, *zot* ni ko'pkari joyga olib borayotgan otlarning ikki tomoniga olov yoqiladi. So'ngra hamma chavandozlar ko'pkari joyiga boradilar. Bakovul dastlab kichik bir sarka (uloq)ni o'rtaga tashlaydi. Biroz otlarni yengil choptirib sovutib, uloqni olishadi. Keyin hamma chavandozlar chaqirilib o'rtaga tana (bir yashar buzoq) so'yib tashlanadi. Bakovul ko'pkarini eson omon o'tkazaylik deb duoi-fotiha beradi. Qaysi chavandoz uloqni to'da-surdov (otlar galasi)dan ajratib, bakovul oldiga olib kelib tashlasa, unga belgilangan sovrin, ya'ni «zot» berilgan⁹.

⁷Ko'pkari qadimiy o'yinlardan bo'lib, ayrim manbalarda ta'kidlanishicha, uning boshlanishi O'g'uzxon davriga borib taqaladi. O'sha davrlarda bu o'yinni «ko'kbo'ri» deb atashgan. Keyinchalik bu so'z «ko'pkari» deb talaffuz etilgan. Hozirgi davrda ham ayrim turkman qavmlari bu o'yinni «go'k bo'ri», ya'ni «ko'kbo'ri» deb atashadi. *Qarang:* Jo'rayev M. Ko'pkarimi yoki ko'kbo'ri? Xalq so'zi. 1993-yil 10-mart.

⁸Dala yozuvlari. 2022-yil. Mirzacho'l tumani, Erjar mahallasi.

⁹Dala yozuvlari. 2022-yil. Forish tumani Mojurum qishlog'i.

Xuddi shunga o'xshash o'yinlardan yana biri *har buzkash eshak ko'pkari* o'yini bo'lib, o'yinda asosiy vosita –xaltani tuproq va somon bilan to'ldirilib o'rta yoshli bolalar o'ynashgan. Mazkur o'yin ko'pincha to'y va bayramlar munosabati bilan daryo qirg'og'ida o'tkaziladi. Oldin uloq so'yiladi. So'ng boshi va qo'l – oyog'i alohida kesib olinadi. Kesilgan joylarning terisi yaxshilab tikiladi. Hamma narsa taxt bo'lgach, o'yinda ishtirok etuvchilar daryo bo'yiga borishadi. Mahalla oqsoqollaridan biri barcha tashkiliy masalalarga bosh-qosh bo'ladi. Qatnashchilar yoshi va soni chegaralanmaydi.

Musobaqa boshlanishi oldidan oqsoqol hammaga qarata *Xaloyiq*, davradagi bakovul so'zim. Hech kim g'irromlik qilmasin, mana shu shog' uloqni suvning o'rtasiga tashlaymiz. Qaysi biringiz epchillik qilib, hammadan tortib olib, men turgan joygacha keltirsangizlar marra sizniki. Halol yutsalaringiz zotini ayamayman – deb, sovrinlarni birma-bir ovoza qiladi. So'ngra tortishuv boshlanadi. Tomoshabinlar hayqirig'i yigitlarning kuchiga kuch qo'shib, g'alaba sari undaydi. Biroq to'dadan uloqni olib chiqib ketish har kimga ham nasib etavermaydi. Suv ichidagi uloqni shahd bilan bir hamlada tortib olib, boshqalar har qancha tortganda ham ularga bermasdan aytilgan manzilga chopib ketish oson ish emas. Bunday muvaffaqiyatga faqatgina tajribali, kuchli o'yinchilargina erishadi.

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ZAMONAVIY O'QITISH USULLARIDAN FOYDALANISH

Kamilova Shahruza Mirxomidovna

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 51-maktab

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf darslarida zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish, darslarning samaradorligini oshirishda ularning ahamiyati haqida yoritilgan. Yangicha metod, usullarning bugungi kundagi o'rni haqida ma'lumot, misollar keltirilgan. Axborot texnologiyalari bilan dars metodlarining uzviyligi, samaradorligi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Dars, o'qitish metodlari, interfaol ta'lim metodlari, zamonaviy texnologiya, usul, metod.

Kirish:

Bugungi kunda yurtimiz jadallik bilan har sohada rivojlanib bormoqda. Barcha sohalarning zamirida, albatta, ta'lim yotadi. Ayniqsa, dastlabki asosiy tamaltoshini boshlang'ich ta'lim qo'yib beradi. Hozirgi kunda davlatimiz tomonidan o'qituvchilarning darslarga ijodiy yondashishini ta'minlash, ular faoliyatiga ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy qilish hamda o'quvchilarning dastlabki bilim egallash poydevori mustahkam bo'lishi, barcha fanlarni o'zlashtirishga qiziqishini oshirish maqsadida zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilib, tatbiq etib kelinmoqda. "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasida asosiy yo'nalishlar belgilab qo'yilgan, jumladan:

- O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish;

-Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatdan yangilash;

-O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish.

Ulug' donishmandlardan biri "...kelajak tashvishi bilan yaxshasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit "-, degan ekan. Darhaqiqat, bu so'zlarning zamirida oldimizdagi asosiy vazifa turibdi. Yusuf Xos Hojib bobomiz aytganlaridek: "Zakovat bor joyda ulug'lik bo'ladi, bilim bor joyda buyuklik bo'ladi"

Bugungi zamon o'qituvchi va o'quvchi oldiga katta talablar qo'ymoqda, bu talablarning asosiysi-darsning samaradorligi, sifatligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalariga maktablardagi turli xil o'quv mashg'ulotlari, ularni tashkil qilinishi va

u orqali o'quvchilarni turli bilim va ko'nikmalarni egallab olishidir. Bugungi kun talabidagi darsni tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining o'rnini beqiyosdir. Chunki, ular orqali multimedia, animation, grafika, diafilm, video filmlardan foydalanish dars jarayonini yanada qiziqarli bo'lishiga yordam beradi.

O'qituvchi zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish orqali quyidagi bir qancha vazifalarni amalga oshirishi mumkin:

- boshlang'ich sinflarda multimedia texnologiyalarini qo'llash orqali o'quvchilarda fanga qiziqishi rivojlanadi;

- ta'limning bunday usuli o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiradi va o'quv materialini o'zlashtirilishining samaradorligi yanada oshadi;

- namoyish qilinishi qiyin yoki murakkab bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va ko'rish imkoniyatini beradi;

- o'quv materiallarini o'zlashtirilishi faqat darajasiga ko'ra emas, balki o'quvchilar erishgan mantiq va qabul qilishlarining darajasiga ko'ra ham samarali hisoblanadi;

- o'quvchilarga mustaqil izlanish yo'li bilan materiallarni izlash, topish hamda muammoli masalalarga javob topish orqali ma'lum tadqiqot ishlarini bajarish uchun imkoniyat yaratiladi;

- o'quvchilarning yangi mavzuni o'zlashtirishi, misollar yechishi, insho, bayon yozish ishlarida, o'quv materiallari bilan mustaqil tanishish, tanlash va axborot hamda ma'lumotlarni tahlil etish kabi masalalarni tez bajarish uchun sharoit yaratiladi. Oldingi an'anaviy dars o'tish usullarida o'quvchilar tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, bugungi kunda o'quvchi zamonaviy axborot vositalari orqali ma'lumotlarni qidirish, to'plash, ular bilan o'zi mustaqil tanishish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Endi savol, ana shu axborot texnologiyalari orqali o'quvchilarga qanday usullar yordamida nimalarni o'rgatish mumkin? Avvalo, o'qitish metodlar haqida, o'qitish metodlari ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarni yo'nalishlarini, harakatlarini belgilaydi. Bu metodlar o'qituvchi tomonidan bilim, malaka va ko'nikmalarini o'zlashtirishi uchun qo'llanadigan usullar yig'indisini o'z ichiga oladi. Usul- ma'lum o'quv materialini o'tishda qo'llanayotgan asosiy o'qitish metodi bilan birga ikkinchi bir o'qitish metodining ayrim elementlaridan foydalanib ish ko'rish. Vosita esa o'qitish metodlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari - asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanish hisoblanadi. Bugungi kunda zamon talabidan kelib chiqib "o'qitish usullari" atamasining oldiga "zamonaviy" so'zini qo'ysak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki, o'qitish usullarimizni zamonaviylashtirmasak dars samaradorligi keskin tushib ketadi. Chunki, bu o'quvchilar va zamon talabini qoniqtirmaydi.

Hozirgi o'quvchilarning aqliy rivojlanishi oldingilardan ko'ra kuchli, XXI asr bolalari. Shu sababdan, oddiy metodlar bilan o'tilsa darsga bo'lgan qiziqish yo'qoladi. Hozirda "Loyihalash", "Muammoli vaziyat", "To'g'ri - noto'g'ri", "O'z -o'zini baholash", "O'qib tushunish", "Aqliy hujum", "Sinkveyn", "BBB", "Fikrlar hujumi", "Beshinchisi ortiqcha", "6x6x6", "Bahs-munozara", "Kichik guruhlarda ishlash", "Yumaloqlangan qor", "Zigzag", "Oxirgi so'zni men aytay" kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu jarayonda darsning markazida o'qituvchi emas, balki, o'quvchilar turadi. Jarayondagi o'qituvchining asosiy vazifasi shaxs rivojlanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchanlik, yo'naltiruvchilik vazifasini bajaradi.

Yuqorida keltirilgan metodlarning samarasi haqida. "O'z-o'zini baholash" metodi, nomidan ham bilishimiz mumkinki, o'quvchini darsda o'qituvchi emas, balki o'zini-o'zi baholaydi. Metodning foydali tomonlari shundaki, vaqtni kam oladi, bir vaqtning o'zida barcha o'quvchilar topshiriqlarni bajarib baholanadi. O'quvchida o'zining qanday bilimga ega ekanligini anglashiga yordam beradi va o'qituvchiga bo'lgan yomon munosablarga olib kelmaydi. O'zining xatolarini ko'zi bilan ko'rib, ularni to'g'rilashga harakat qiladi.

"Beshinchisini top" metodi. O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida bu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagilar amalga oshiriladi:

-o'rganilayotgan mavzuni ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalarni shakllantirish;

-hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rta (beshta, oltita...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

-o'quvchilarga mavzuga aloqador bo'lmagan bitta tushunchani aniqlash va tizimdan chiqarish topshirig'ini berish;

-o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash, ya'ni nima uchun bir so'zni chiqarib yubordi va qolgan so'zlar bir- biri bilan qanday mantiqiy bog'langanligini bilishi zarur.

Misol uchun, so'zlar qatori: kitob, ruchka, qalam, deraza.

Ortiqcha so'z: deraza.

O'quv qurollari: kitob, ruchka, qalam.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini darsga qiziqtirishda yangi pedagogik texnologiyalarning ahamiyati katta bo'lib, asosan, ko'rgazmali qurollar, turli interfaol o'yinlarni pedagogik texnologiyalar asosida dars mashg'ulotlari qiziqarli va oson kechadi.

Biz qo'llayotgan zamonaviy metodlarni zamonaviy axborot vositalari bilan uyg'unlashtirsak bugungi kun talabiga to'liq javob bergan bo'ladi. Oddiy qog'ozda tarqatmali materiallar bilan ishlagandan ko'ra, ana shu materiallarni ekranda ko'rsatib,

topshiriqlarni bajartirsak, o'quvchilarda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalari paydo bo'ladi. Bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlari uchun katta poydevor vazifasini o'taydi. Shu bilan birgalikda ularda yakka va kichik guruhlarda ishlash, do'stlari bilan jamoa tarzida harakat qilish kompetensiyalari paydo bo'ladi. Dars qiziqarli, sifatli va unumli o'tadi, ko'proq bilim egallashga imkoniyat paydo bo'ladi. Real voqealarga asoslangan mavzuga doir videolar qo'yib berish orqali o'quvchilarning tezroq dunyoni anglashlariga keng yo'l ochiladi.

Kompyuterning o'yin imkoniyatlaridan didaktik o'yinlar bilan birgalikda foydalanish dars jarayonini yanada osonlashtiradi. Darsda olingan bilim, ko'nikma va malakalarning katta qismi hali kichik yoshdagi o'quvchilar tomonidan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda foydalanilmaydi, ularning amaliy qiymati yo'qoladi va kuch sezilarli darajada kamayadi. Olingan bilim va ko'nikmalarni o'yin kompyuteri muhitida qo'llash ularni o'zlashtirishga va egallashga, motivatsiyaga olib keladi. Yosh o'quvchilarning yuqori hissiylik darajasi o'quv jarayonining qat'iy doirasi bilan sezilarli darajada cheklanadi. Kompyuterdagi mashg'ulotlar yuqori hissiy taranglikni qisman bartaraf etishga va o'quv jarayonini jonlantirishga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinflarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, zamonaviy o'qitish usullaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlashlarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lash hamda darsga qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29- apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.
2. Ismatova.Sh.B. "Boshlang'ich sinflarda o'qitishning zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari".- " Science and education" scientific Journal,2020. www.openscience.uz.
3. "Tarbiya" majmua.
4. Umarova.M.R." Boshlang'ich ta'limda AKTdan foydalanish ahamiyati". –" Talqin va tadqiqotlar" ilmiy jurnali,2022.

QURILISH KORXONALARIDA MOLIVAVIY HOLAT TAHLILINI AMALGA OSHIRISHDA XALQARO YONDASHUVLAR

O'qituvchi: Yahyoyev To'liqin

Talaba: Suyarova Shahzoda

Talaba: Ibodullayev Samandarjon

Annotatsiya. Ushbu maqolada qurilish korxonalarida moliyaviy holat tahlilini amalga oshirish va bunda xalqaro yondashuvlarning o'рни va ahamiyati bo'yicha muallif tomonidan fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Qurilish korxonalari, moliyaviy holat, tahlil, xalqaro yondashuvlar.

Abstract. In this article, the author's comments on the implementation of the analysis of the financial situation in construction enterprises and the role and importance of international approaches are presented.

Key words. Construction companies, financial situation, analysis, international approaches.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidagi iqtisodiy tangliklar, inqirozlar doimo mulk egalari, investorlarni yuzaga kelgan holatlar bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishga undaydi. Aks holda, sekin-sekin biznesdagi harakat yakun topadi va korxonalar yopiladi. Erkin iqtisodiyotda, xo'jalik yurituvchi subyektlar va mulk egalarini qiziqtiradigan eng muhim masala biznes samaradorligi va faoliyat natijaviyligini baholash, ular moliyaviy holatini tahlil etish masalasidir. Mazkur masala iqtisodiyotning bir maromda rivojlanishida ham muhim hisoblanadi. Shu sababli, bugungi kunda xo'jalik yurituvchi subyektlar boshqaruv apparati oldida bir qancha murakkab ya'ni, mavjud mulkiy holatga, iqtisodiy resurslarning tarkibiy tuzilishi va warning samaradorligi, faoliyatning natijaviyligi, to'lovga qobillik va moliyaviy barqarorligiga baho berish yuzasidan aniq taktik qarorlar tayyorlash bo'yicha qator muammolarga duch kelinmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining inqirozga yuz tutishi va sinishi tabiiy hol sanaladi. Kimki uning shartlari, qoidalari asosida harakat qilmas ekan bu hol albatta muqarrar hisoblanadi. Korxonalar faoliyatidagi inqiroz belgilarini ko'rsatib beruvchi barometr mavjud emaski doimo uning ko'rsatkichi kuzatib turilsa. Bu holat, xo'jalik moliyaviy faoliyati haqidagi reallikni rasmiy tuziladigan va chop etiladigan moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida tizimli tahlil etish orqaligina bilinadi, o'rganiladi xolos.

Korxonada inqiroz belgilar mavjud emas, inqirozning xavf-xatari bor, inqirozli holat mavjud deb xulosa qilish biznesda doimo boshqaruv apparatining e'tiborida turuvchi masaladir. Korxonalar moliyaviy holatidagi tanglikni ham xuddi yuqoridagi

holatga qiyoslash mumkin. Aslida, inqirozning bosh sababi ham korxonalar moliyaviy holatidagi ushbu tanglikka borib taqaladi. Lekin asli, tanglikning sababi va yechimlar moliyaviy holatda emas balki ko'proq subyektlarning ishlab chiqarish faoliyatining quyi bo'g'inlaridadir. Moliyaviy holatda esa ushbu holat oyna singari aks etadi xolos. Yechimi unchalik oson bo'lmagan bunday holatda korxonalar egalari ko'pincha mustaqil maslahatchilarga va analitiklar yordamiga ehtiyoj sezadilar. Negaki, korxonalar moliyaviy holatidagi tanglikni, inqirozni mo'jizaviy formula asosida yoki shunchaki hoxish-istak bilan hal etib bo'lmaydi. Bugungi kunda tobora doirasi kengayib borayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi ham korxonalar moliyaviy holatiga sezilarli ta'sir o'tkazmoqda.

Moliyaviy holatni bilish orqali biznesning ko'lamdorligiga, faoliyat samarasi va natijaviyligiga, aktivlar va ularning manbalanishidagi real holatga, subyektlarning bozordagi va ishdagi aktivlik darajasiga, mablag'lar aylanuvchanligi, to'lovga qobillik va qodirlik darajasiga, salohiyat darajasiga baho berish mumkin. Moliyaviy tahlilni zaruriyatini yana shu bilan izohlash mumkinki korxonalar moliyaviy holatini tahlil etish orqali nafaqat mavjud holat yuzasidan axborot olinadi, balki uni yaxshilash, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni oldini olish, mavjud tanglik holatidan chiqish yo'llarini ko'rsatib berish, rivojlanishning istiqboldagi ko'rsatkichlarini bashoratlash imkoni ham tug'iladi.

Respublikamiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalarning ahamiyati va o'rnini shu bilan izohlash mumkinki, ularning kiritilishi ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etishni, texnik yangilash, mahsulotlar sifatini oshirish va uni jahon bozoriga olib chiqish, iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish imkonini beradi. Tashqi investitsiya yuzasidan puxta qonunchilik tizimini yaratilganligi, respublikamizdagi ijtimoiy muhitni yaxshiligi, undagi tinchlik va osoyishtalik, arzon mehnat va moddiy resurslarning mavjudligi, mamlakatimizning geografik muhim hududda joylashganligi xorijiy investitsiyalarni jalb etishga, qo'shma korxonalarni ko'plab ochilishiga zamin yaratmoqda.

Ushbu bosqichda zarur hujjatlar to'planadi, ma'lumotlar texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarning tahliliy jadvaliga tuziladi, bu ham joriy hisobot ma'lumotlarini, ham qurilish tashkilotining ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini sifatli baholash imkonini beruvchi maxsus hisob-kitob tavsiflarini o'z ichiga oladi. Shundan so'ng, ishlab chiqarish resurslarini o'zaro bog'liq baholash omil modellari yordamida amalga oshiriladi (tashkilotning iqtisodiy xususiyatlarini omilli tahlil qilishning turli usullari qo'llaniladi), zaxiralar va muhim nuqtalar aniqlanadi, keyingi diagnostika uchun tavsiya etiladi. Shundan so'ng, qurilish-montaj ishlarining tugallangan qiymati tahlil qilinadi va xarajatlarning ortishi yoki tejalishi aniqlanadi.

Keyin korxonada foydasining tahlili o'tkaziladi, shu jumladan o'zgartirilgan foyda va zarar to'g'risidagi hisobot doirasidagi umumiy foyda tahlili, shuningdek mahsulot, ishlar va xizmatlarni sotishdan olingan foydaning batafsil tahlili.

Qurilish tashkilotlarida moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari moliyaviy-iqtisodiy holatni aniqlashdan iborat; ma'lum vaqt oralig'ida moliyaviy holatdagi o'zgarishlarni aniqlash; moliyaviy-iqtisodiy holatga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash; ichki zaxiralarni aniqlash va ulardan foydalanish orqali moliyaviy holatni mustahkamlash.

Moliyaviy tahlilning asosiy yo'nalishlari - tashkilotning to'lov qobiliyati va likvidligini tahlil qilish va aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini tahlil qilish; korxonaning moliyaviy barqarorligi ko'rsatkichlarini tahlil qilish. Davlatni tahlil qilish tashkilotning to'lov qobiliyatini (likvidligini) mutlaq qiymatlarda baholashdan boshlanadi. Buning uchun korxonaning aktivlari likvidlik darajasiga ko'ra, majburiyatlari esa ularni to'lashning dolzarbligi darajasiga ko'ra bo'linadi.

To'lov qobiliyati - bu korxonaning uzoq muddatli majburiyatlarini to'lash qobiliyati. Shunday qilib, tashqi majburiyatlardan ko'ra ko'proq aktivlarga ega bo'lgan tashkilot to'lovga qodir.

Likvidlik - bu tashkilotning majburiyatlarini uning aktivlari bilan qoplash darajasi, uning pulga konvertatsiya qilish muddati majburiyatlarni to'lash muddatiga to'g'ri keladi. Boshqacha qilib aytganda, agar tashkilot joriy aktivlarni sotish orqali o'zining qisqa muddatli majburiyatlarini bajarishga qodir bo'lsa, likvid hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda muvozanat tuzilmasini tiklashga qaratilgan barcha kompleks chora-tadbirlar orasida ularning ko'pchiligi cheklangan qo'llaniladi. Bu maqsadli moliyalashtirish, jamg'arish va iste'mol fondlari hisobidan o'z mablag'lari manbalarini ko'paytirish imkoniyatini nazarda tutadi. Uzoq muddatli kreditlar va ssudalarni olish imkoniyati haqida ham shunday deyish mumkin.

Qurilish tashkiloti uchun ma'lumot manbalari buxgalteriya balansi va moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotdir. Qurilish tashkilotlari balans ko'rsatkichlarini faktorli tahlil qilish imkoniyati bilan tavsiflanadi, shu jumladan hisobotda ko'rsatiladigan parametrlar darajasini tashkil etgan birlamchi hujjatlar.

Qurilish kompaniyasining moliyaviy holatini o'rganish bo'limlaridan biri moliyaviy natijalarni, loyihalarning rentabelligini va umuman korxonani tahlil qilishdir.

Qurilishda ma'lumotlar har bir operatsiya turi uchun o'rganiladi, shu jumladan. xizmatlar va moddiy yordamchi ishlab chiqarishni, sotish narxlarini to'liq tahlil qilish. Yuqorida aytib o'tilganlarga qo'shimcha ravishda, qurilish kompaniyalari uchun firma qiymati tushunchasi katta ahamiyatga ega. Ushbu g'oyaga ko'ra korxonaning mulkiy holati, to'lov qobiliyati, likvidlik darajasi, tadbirkorlik faolligi, kapital tarkibi va moliyaviy barqarorligi, rentabellik darajasi baholanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qudratov T.Q., Ibragimov M. Iqtisodiy tahlil. O 'quv qo'llanma. II nashr. - Toshkent «Ilm-Ziyo», 2008
2. Qudratov T.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli leksivalar kursi. - Samarqand, 2004.
3. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. - Samarqand. «Zaratshon», 2001.
4. Чернявская, С. А. Роль ревизии в управлении предприятием / С. А.Чернявская, Булах А.П., Шмыгленко Е.Н. // Сборник: Пути повышения эффективности экономической и социальной деятельности кооперативных организаций. Материалы X Международной научно-практической конференции. 2015. С.30-34.
5. Чернявская, С. А. Автоматизация первичного учета во вспомогательных производствах / Политематический сетевой электронный научный журнал Кубанского государственного аграрного университета. 2006. № 19. с. 68-72.

QURILISH KORXONALARIDA BUXGALTERIYA BALANSI TAHLILI

O'qituvchi: Yahyoyev To'lqin

Talaba: Suyarova Shahzoda

Talaba: Mamayusopov Diyorbek

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda qurilish korxonalarida buxgalteriya balansi tahlili va uning xususiyatlari to'g'risida muallif izlanishlari aks ettirilgan hamda ularni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. qurilish korxonalari, buxgalteriya balansi, tahlil.

Buxgalteriya balansi rna'lurn sanaga korxonaning aktivlari, kapitali va rnajburiyatlarini holati haqida axborot beruvchi hisobot shaklidir. «Balans» atarnasi lotincha bis ikki marta, banx - tarozi pallasi sO'zlaridan tarkib topgan bo'lib, ikkala palla degan rna'noni anglatadi. U tenglik, muvozanat tushunchasi sifatida ishlatiladi.

Moliyaviy bo'lmagan uzoq muddatli aktivlar asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar. o'rnatiladigan uskunalar, kapital qo'yilmalarni o'z ichiga oladi. Moliyaviy uzoq muddatli aktivlarga uzoq muddatli investitsiyalar kiritiladi. Moliyaviy bo'lmagan joriy aktivlarga ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, tovarlar, kelgusi davr xarajatlari, kechiktirilgan xarajatlari va debitorlik majburiyatlari kiradi. Moliyaviy joriy aktivlarga pul mablag'lari, qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar va boshqa joriy aktivlar kiradi

1-jadval

Aktivlarning turli shakllari o'rtasidagi aloqadorlik

Aktivlar shakli	Moliyaviy bo'lmagan aktivlar	Moliyaviy aktivlar	Jami aktivlar
Uzoq muddatli aktivlar	MBUMA	MUMA	UMA
Joriy aktivlar	MBJA	MJA	JA
Jami aktivlar	MBA	MA	A

2-jadval

Aktivlami mazmuni bo'yicha tarkiblanishi

Aktivlarni manbalashning mazmuni		
Xususiy (XK)*	Qarzga olingan (QK)	
	Tashqi tarz JTQI**	Ichki qarz (IQ)***

*-O'z mablag'lari manbasi	**-Uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzarlar, kreditorlik majburiyatlarning tashqi qismi	***-Kreditorlik majburiyatlarini ichki qismi
---------------------------	--	--

Xususiy kapital o'z ichiga ustav kapitali, qo'shilgan kapita!, rezerv kapitali taqsimlanmagan foyda va o'z mablag'lari manhayining boshqa tarkiblarini (maqsadli tushumlar, kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari zaxirasi) oladi.

Tashqi qarz bank kreditlari va qarzarlarini, olingan avans to'lovlarini, kreditorlik majburiyatlarining mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qisrnini o'z ichiga oladi. Ichki qarz korxonaning mehnat haqidani, soliqlar, to'lovlar va yig'irnar bo'yicha qarzidan, jalb qilingan qarz mablag'lari yuzasidan foizlar, aksionerlarga e'lon qilingan dividendlar bo'yicha majburiyatlardan iborat ho'ladi.

Moliyaviy hisobotlar tarkibida buxgalteriya balansi markaziy o'rinda turadi va undagi ko'rsatkichlarni tahlil etish va baholash orqali xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy ahvolidan voqif bo'linadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy ahvolidagi o'zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi.

$$\text{Pull} \Rightarrow \text{Tovar1} \Rightarrow \text{Pu12}^* \Rightarrow \text{Tovar2}^* \Rightarrow \text{Pu13}^* \dots$$

*sickl natijasidagi yutuq: $\text{Pull} < \text{Pu12} < \text{P3} < \dots$

U shbu formulani iqtisodiy jarayonlarga rasmiylashtirsak quyidagi ko'rinishga keladi.

$$\text{PM} \Rightarrow \text{R} \Rightarrow \text{ICh} \Rightarrow \text{TF} \Rightarrow \text{XK} \Rightarrow \text{PM}^* \dots$$

Bunda PM-pul mablag'lari

PM*-sickl natijasidagi yutuq:

$$\text{PM} < \text{PM}^* < \text{PM}^{**} < \text{PM}^{***} < \dots$$

R -resurslar;

ICh-ishlab chiqarish;

TF-tijorat faoliyati;

XK -hisob-kitoblar; nisbatan (2.10)

Korxonalar aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy ahvolidagi o'zgarishlar albatta mulkiy va moliyaviy munosabatlar tufayli yuzaga keladi. Odatda, moliyaviy munosabatlarning klassik formulasi sifatida quyidagi bog'lanishdan foydalaniladi. $\text{Pull} \Rightarrow \text{Tovar1} \Rightarrow \text{Pu12}^* \Rightarrow \text{Tovar2}^* \Rightarrow \text{Pu13}^* \dots$ (2.9) *sickl natijasidagi yutuq: $\text{Pull} < \text{Pu12} < \text{P3} < \dots$

Ushbu formulani iqtisodiy jarayonlarga rasmiylashtirsak quyidagi ko'rinishga keladi. $PM \Rightarrow R \Rightarrow ICh \Rightarrow TF \Rightarrow XK \Rightarrow PM^* \dots$ Bunda PM-pul mablag'lari PM^* -siki natijasidagi yutuq: $PM < PM^* < PM^{**} < PM^{***} < \dots$ R -resurslar; ICh-ishlab chiqarish; TF-tijorat faoliyati; XK -hisob-kitoblar; nisbatan Korxonalar aktivlari, xususiy kapital (sarmoya) va majburiyatlar buxgalteriya balansining elementlari hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotni tahlil etish deganda - korxonaning muayyan sanaga bo'lgan moliyaviy ahvoli, faoliyati, moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar haqidagi axborotlarni analitik qayta ishlash jarayonlar tizimi tushuniladi. Yuqoridagi manbalarda keltirilishicha buxgalteriya balansini o'qish va tahlil etish mazmunini quyidagilar tashkil etadi. - korxonaning illulki, kapitali va majburiyatlarini baholash; - kompaniya va fmnalar to'lovga qobilligi va likvidlilik ko'rsatkichlarini aniqlash; - korxonaning iqtisodi va moliyaviy salohiyati, uning samaradorligini baholash; - korxonaning moliyaviy barqarorligi, bozor va ish aktivligi ko'rsatkichlarini baholash; - korxonaning iqtisodiy nochorligi va uni sog'lomlashtirish yo'llarini belgilash; - korxonaning moliyaviy ahvoli va uni yaxshilash yuzasidan muhim taklitlar hozirlashni tashkil etadi.

Bu bilan buxgalteriya balansini «o'qish», tahlil etish bilan bir qatorga qo'yilmoqda. Ya'ni, turli nomlanishdagi bir xil jihatlarni xarakterlovchi so'zga aylanib qolgan. Yuqoridagi tarkiblashda o'qish va tahlil qilish kabi so'zlarning ishlatilishida ularni bir mazmunda qarash ustunlik qiladi. Buxgalteriya balansini asosida o'rganiladigan masalalar ko'lami nihoyatda kengki, ularni barcha adabiyotlarda bir xilda berilgan deyish qiyin. Masalan ayrim manbalarda korxonalar mablag'larini harakatchanligi va aylanuvchanligi, ish aktivligi, moliyaviy barqarorligi buxgalteriya balansini tahlili mavzusida berilgan holda boshqa manbalarda ushbu o'rganiladigan savollar alohida mavzu sifatida beriladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qudratov T.Q., Ibragimov M. Iqtisodiy tahlil. O'quv qo'llanma. II nashr. - Toshkent «Ilm-Ziyo», 2008
2. Qudratov T.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli leksivalar kursi. - Samarqand, 2004.
3. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. - Samarqand. «Zaratshon», 2001.
4. Pardayev M.Q. va boshqalar. Boshqaruv tahlili (ma'ruzalar kursi). - Samarqand, 2004.
5. Pardayev M.Q., Abdikarimov I.T. - «Iqtisodiy tahlil». - T.: «Mehnat», 2004.

QURILISH KORXONALI MOLIYAVIY HOLAT TAHLILINI IFODALASHDA RAQOBAT YONDASHUVLARI

O'qituvchi: Yahyoyev To'liqin
Talaba: Suyarova Shahzoda
Talaba: Umrzoqov Shahbozbek

Korxonaning moliyaviy ahvoli - bu kapitalning aylanish jarayonidagi holatini va xo'jalik yurituvchi sub'ektning barqaror yaxshilanishga erishish qobiliyatini, shu jumladan o'z moliyaviy majburiyatlarini bajarish qobiliyatini aks ettiruvchi moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlarning yig'indisidir.

Ishlab chiqarish, sotish, ta'minot va moliyaviy faoliyat jarayonida kapitalning uzluksiz aylanishi, mablag'larning tarkibi va ularning shakllanish manbalari, moliyaviy resurslarga bo'lgan ehtiyoj va mavjudligi va natijada korxonaning moliyaviy holati sodir bo'ladi. , tashqi ko'rinishi to'lov qobiliyatidir, o'zgaradi.

Moliyaviy holat barqaror, beqaror (inqirozdan oldingi) va inqirozli bo'lishi mumkin. Korxonaning o'z faoliyatiga o'z vaqtida kengaytirilgan mablag'larni investitsiya qilish, to'lovlarni amalga oshirish, kutilmagan zarbalarga dosh berish va noqulay sharoitlarda to'lov qobiliyatini saqlab qolish qobiliyati uning barqaror moliyaviy holatidan dalolat beradi va aksincha.

Korxonaning moliyaviy barqaror bo'lishi uchun kapitalning moslashuvchan tuzilishiga ega bo'lishi va uning harakatini to'lov qobiliyatini saqlab qolish va o'z-o'zini takror ishlab chiqarish uchun shart-sharoit yaratish uchun daromadlarning xarajatlarga nisbatan doimiy o'sishini ta'minlaydigan tarzda tashkil etish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Bundan kelib chiqadiki, korxonaning moliyaviy barqarorligi - bu xo'jalik yurituvchi sub'ektning o'zgaruvchan ichki va tashqi muhit sharoitida faoliyat yuritishi va rivojlanishi, o'z aktivlari va passivlari muvozanatini saqlash, uning barqaror to'lov qobiliyati va investitsion jozibadorligini ta'minlash qobiliyatidir. qabul qilinadigan xavf darajasi.

Qurilish kompaniyasining samaradorligini aniqlashda raqobatbardoshlik ko'rsatkichi katta ahamiyatga ega. Bunday holda, raqobatbardosh salohiyatni tortish koeffitsientlari yordamida baholash mumkin. Og'irlik koeffitsienti har bir aniq ko'rsatkich bilan taqqoslanadi, bu muayyan ko'rsatkichlarni taqqoslanadigan shaklga keltiradi, bu esa qurilish korxonasining raqobatbardoshligining umumiy ko'rsatkichini aniqlash imkonini beradi.

Ushbu yondashuv juda ko'p kamchiliklarga ega, ulardan birini uning sub'ektivligi deb hisoblash mumkin. Uslubiy binolarga asoslangan shunga o'xshash korxonani tanlash katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu korxonaning o'xshashligiga o'xshash

mahsulotlarni ishlab chiqarish orqali erishiladi. Shundan kelib chiqib, raqobatbardoshlik salohiyati ikki korxonadan bir xil miqdordagi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar darajasini taqqoslash yo'li bilan baholanadi. Qurilish korxonasi mavjud ishlab chiqarish salohiyatini baholab, ichki ishlab chiqarish zahiralarini amalga oshirish imkoniyatiga ega. Raqobat salohiyati ko'rsatkichlariga ta'sir etuvchi asosiy sabablar va omillar tahlili o'tkazilganda ichki ishlab chiqarish zahiralarini amalga oshirish mumkin. Ushbu muammo qurilish kompaniyasi faoliyatining kumulyativ omil tahlilini o'tkazish orqali hal qilinadi. Ushbu tahlil omillarning umumiy to'plamining ta'sirini har tomonlama o'rganishni, etakchilarini ajratib ko'rsatishni amalga oshiradi. Tahlilning axborot mazmuniga baholash ko'rsatkichlarini tanlash bevosita ta'sir qiladi, bu esa undan foydalanish samaradorligi uchun xo'jalik ichidagi zaxiralarni aniqlash imkonini beradi.

Qurilish korxonasi uchun aniq raqobatdosh ustunlikni yaratish jarayonida nafaqat ishlab chiqarish va boshqaruvni modernizatsiya qilish, balki keyingi faoliyatning asosiy maqsad va vazifalarini ham aniqlash kerak. Barqaror raqobatdosh ustunlikka mahsulotning ma'lum bir bozor segmenti uchun sezilarli darajada farqlanishi orqali erishish mumkin.

Qurilish korxonasining jadal rivojlanishi bozor qiymati va investitsiya jozibadorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash uchun kapital tuzilmasi samaradorligini oshirishga qo'shimcha e'tibor berishni talab qiladi. Ko'pgina kichik va o'rta qurilish korxonalari o'z-o'zidan, mintaqadagi mavjud iqtisodiy sharoitda kelgusida rivojlanish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini faollashtirishga qodir emas. Bu strategik rejalashtirish tizimining rivojlanmaganligi, boshqaruv xodimlarining qurilish kompaniyasining strategik rejalarini prognozlash, tahlil qilish va ishlab chiqish qobiliyatining yo'qligi bilan bog'liq. Agar qurilish kompaniyasi bozorda kuchli mavqega ega bo'lsa yoki kompaniya sanoat yoki mintaqada harakat qilish foydasidan tashqari foyda ko'rishi mumkin bo'lsa, u quyidagi reklama va xizmatlarni taqdim etish strategiyalariga ega bo'lishi mumkin:

1. asosiy yetkazib beruvchilar ustidan qattiq nazoratdan iborat regressiv integratsiya;
2. progressiv integratsiya, taqsimlash va almashinuv tizimini nazorat qilishni nazarda tutadi;
3. raqobatdosh korxonalar ustidan qat'iy nazorat o'rnatadigan gorizontall integratsiya. Qurilish tashkilotining bozor salohiyatini shakllantirish va safarbar etish ushbu strategiyani amalga oshirish va amalga oshirish bosqichidagi eng muhim vazifadir. Qurilish resurslarini vaqt bo'yicha taqsimlash va qurilish kompaniyasining resurslarini strategiyaning alohida tarkibiy qismlari o'rtasida taqsimlash ishlab chiqarish salohiyatidan foydalanish strategiyasi masalasida muhim nuqtadir. Ushbu maqsadlar uchun qurilish kompaniyalari rahbarlaridan xarajatlar yo'naltirilgan

maqsadlarni kuchaytirishga qodir bo'lgan pul resurslaridan foydalanish bo'yicha strategik ko'rsatmalar yaratish talab qilinadi. Strategiyani amalga oshirish bosqichida individual vazifalarni hal qilish va funktsiyalarni amalga oshirish uchun mablag'larga bo'lgan ehtiyojni tahlil qilish kerak. Tahlil strategiyani amalga oshirishga hissa qo'shishi kerak bo'lgan asosiy ustuvor yo'nalishlarni aniqlashi kerak. Bu bozorda strategik joylashuvda ifodalangan uzoq muddatli natijalarni shakllantirishga yordam beradi.

Strategik joylashishni aniqlash raqobatchilar bilan solishtirganda hamkorlar va mijozlar tomonidan korxonani idrok etishini belgilovchi asosiy omil bo'lib, kompaniyaning biznes strategiyasining mohiyatini ko'rsatadi. Strategik pozitsiyalar korxonaning bozor ustunligini oshirishning uzoq muddatli istiqbollari aks ettiradi va strategiyaga tuzatishlar kiritish orqali o'zgartiriladi. Strategik pozitsiya umumiy biznes strategiyalariga mos kelishi muhim. Uning shakllanishi raqobatchilar va bozorga nisbatan sodir bo'ladi. Strategik pozitsiyani aniqlashning asosiy talabi - mijozlar uchun izchillik va hissiy ahamiyatga ega. Ishlab chiqarilgan mahsulot va korxonaning individualligi qurilish korxonasining strategik pozitsiyasiga o'xshashdir. Raqobat ustunligini yaratish uchun siz to'g'ri strategik pozitsiyani tanlashingiz kerak. Ushbu pozitsiyani tanlash qurilish mahsulotlarining pozitsiyasini belgilovchi omillarni tahlil qilishga asoslanishi kerak: narx, sifat, kompaniya va mahsulot imidji.

Barqaror raqobatdosh ustunlikni yaratish jarayonida muayyan taktikalardan foydalanish mumkin. Bozordagi joylashuv mahsulotning iste'molchi afzalligi, ma'lum turdagi qurilish mahsulotining potentsial xaridorlari sonini ko'paytirish asosida belgilanadi. Mahsulot nufuzini oshirish va raqobatchilarning kuchli va zaif tomonlarini hisobga olish ham joylashuvni shakllantirishga yordam beradi. Qulay tashqi muhit qurilish korxonasining joylashuvini faol shakllantirishga yordam beradi. Qurilish korxonasining tashqi muhiti bozorning boshqa ishtirokchilari bilan munosabatlari asosida shakllanadi.

Bozorda o'zini muvaffaqiyatli joylashtirgan qurilish tashkilotlari quyidagi qoidalarni yodda tutishlari kerak: mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlarini izlash; tashkilot va uning mijozlari uchun iqtisodiy foyda keltiradigan fan va texnika yutuqlari majmui; ta'sir doirasini taqsimlash va bozorning turli segmentlarini nazorat qilish uchun bozordagi etakchi raqobatchilar bilan murosacha echimini izlash. Amaliy ma'noda qurilish tashkilotining bozor pozitsiyasining mustahkamligi bozor pozitsiyalarini saqlab qolishning moliyaviy imkoniyatlarini tavsiflovchi biznesning qiyosiy rentabelligi sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Bozordagi pozitsiyalarni ob'ektiv baholash va ularni mustahkamlash uchun qurilish tashkiloti umumiy iste'molchi ta'siri va jami xarajatlarning ichki tuzilishini batafsil bayon qilishi, har bir elementning qiymatini maqsadli ravishda aniqlashi, ma'lum marketing strategiyasini tanlashi, barqarorligini oshirish yo'lida ularga ta'sir qilishi kerak. uning bozorda mavjudligi.

Qurilish yuqori darajadagi kapital zichligi bilan ajralib turadi, bu qurilish loyihalarini potentsial xaridorlari doirasini cheklaydi. Qurilish mahsulotlari xususiy foydalanuvchilarning murakkab individual ehtiyojlarini va biznes foydalanuvchilarining ishlab chiqarish ehtiyojlarini qondirishi kerak. Bu tayyor qurilish mahsulotlariga talabning konservatizmi va egiluvchanligining hal qiluvchi omilidir. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, bozor muvaffaqiyatining asosiy mezonlari qurilish mahsulotlari sifati, qurilish tashkilotining marketing faoliyati samaradorligi va moddiy-texnika bazasini yangilashdir. Foyda qurilish kompaniyasining zararsiz ishlashining asosiy ko'rsatkichidir. Kompaniyaning balans foydasi tarkibida eng katta ulush mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tushadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Донцова Л.В., Никифорова, Н.А. Анализ финансовой отчетности: учеб. пособие. М.: Дело и сервис. 2010. 336 с.
2. Ефимова О.В. Финансовый анализ: современный инструментарий для принятия экономических решений: учебник. М.: Омега-Л, 2013. 349 с. 16. Жилкина А.Н. Управление финансами. Финансовый анализ предприятия: учебник. М.: НИЦ ИНФРА-М, 2012. 332 с. 17. Иванов И.Н. Экономический анализ деятельности предприятия: учебник. М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 348 с. 18. Казакова Н.А. Экономический анализ: учебник. М.: ИНФРА-М, 2013. 343 с. 19. Киреева Н.В. Экономический и финансовый анализ: учеб. пособие. М.: НИЦ ИНФРА-М, 2013. 293 с.
3. Маркарьян Э.А. Экономический анализ хозяйственной деятельности: учеб. пособие / под ред. Г.П. Герасименко, С.Э. Маркарьяна. М.: КноРус, 2013. 536 с. 26. Медведева О.В. Комплексный экономический анализ деятельности предприятия: учебник / под. ред. Е.В. Шпилевская, А.В. Немова. Рн/Д: Феникс, 2010. 343 с.

QURILISH KORXONALARIDA MEHNAT UNUMDORLIGI TAHLILI

O'qituvchi: Yahyoyev To'liqin

Talaba: Suyarova Shahzoda

Talaba: Bekmurodov Xurshidbek

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda qurilish korxonalarida mehnat unumdorligi tahlili va uni olib borishning o'ziga xos xususiyatlari muallif tomonidan fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Mehnat unumdorligi, qurilish korxonasi, tahlil, mehnat resurslari.

Abstract. In this article, the analysis of labor productivity in construction enterprises today and the specific features of its implementation are presented by the author.

Key words: Labor productivity, construction enterprise, analysis, labor resources.

Har bir xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati natijalari uning samaradorligini oshirish orqali erishiladi. Samaradorlik keng tushuncha bo'lib, uning ko'rsatkichlari juda ko'p. Jumladan, ishlab chiqarish hajmining ortishi, investitsiyalarning oqlanishi, mehnat unumdorligi, xodimlar malakasi, korxonada xodimlar qo'nimsizlik darajasi va hokazolar. Ushbu ko'rsatkichlardan biz tadqiqotimiz davomida mehnat unumdorligi tahlilini olib bordik.

Mehnat unumdorligi - ishlab chiqarish jarayonida kishilar mehnatining foydaliligi, samaradorligi va mahsuldorligi; Mehnat unumdorligi ishlovchining ma'lum vaqt birligi (soat, smena, oy, yil) ichida tayyorlagan mahsulot hajmi bilan o'lchanadi. Mehnat unumdorligi tarmoqlari va korxonalarda mehnat unumdorligi yalpi yoki sof mahsulot asosida hisoblanadi. Yillik mahsulot hajmini o'rtacha ishlovchilar soniga bo'lish orqali bir ishlovchi hisobiga yaratilgan mahsulot aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining o'sishi mahsulot birligini ishlab chiqarishda mehnat sarfining kamayishi demakdir. Mehnat unumdorligi yuqori bo'lsa, jami-yat har bir xodim hisobiga ko'proq mahsulot tayyorlash, binobarin, o'zining o'sib borayotgan ehtiyojlarini to'laroq qondirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mehnatning asosiy kapital bilan ta'minlanishini yaxshilash, fantexnika taraqqiyoti yutuqlari va yangi texnologiyani joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xodimlarning malakasini va texnik tayyorgarlik darajasini, madaniyatini, ma'lumotini oshirish Mehnat unumdorligi o'sishining eng muhim omillaridandir¹.

¹ O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

Korxonalar iqtisodiyotining rivojlanishi, ishlab chiqarish hajmining ortishi va uning samaradorligining oshishi ko'p omillarga va shu jumladan mehnat resurslari bilan ta'minlanish va ulardan samarali foydalanish darajasiga ham bog'liqdir.

Mehnat resurslari deganda mehnatga layoqatli, bilim va malakaga, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lgan odamlar tushuniladi. Mehnat resurslari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonini harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib hisoblanadi. Qanday ishlab chiqarish korxonasi bo'lmasin, mahsulot ishlab chiqarish jarayonida asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili egallaydi, chunki fan - texnika taraqqiyoti rivojlanishi qay darajada bo'lishidan qat'iy nazar, inson omilining ishtirokisiz ishlab chiqarish yuzaga kelmaydi, ya'ni inson omilisiz ishlab chiqarish jarayoni harakatga kelmaydi. Shuning uchun ham qishloq xo'jalik korxonasining mehnat resurslari bilan ta'minlanish va, ayniqsa, ulardan foydalanish darajasini o'rganish korxonalar iqtisodiyotining taraqqiyoti nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga egadir. Mehnat resurslarini tahlil etish orqali korxonaning xodimlar bilan ta'minlanish, ish vaqtidan foydalanish hamda mehnat unumdorligi darajasi kabi ko'rsatkichlar holatiga baho beriladi.

Tahlilning maqsadi ish vaqtidan samarali foydalanish va mehnat unumdorligini oshirish hisobiga mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va sarf-xarajatlarni kamaytirish imkoniyatlarini ko'rsatishdan iborat. Mehnat resurslaridan foydalanishning eng asosiy ko'rsatkichi bo'lib, mehnat unumdorligi hisoblanadi. Mehnat unumdorligining oshishi har doim ishlab chiqarish ko'lamining oshishiga sabab bo'ladi. Mehnat unumdorligi oshgan sayin ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori ko'payib, uning samaradorligi oshib boradi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga ham sabab bo'ldi. Mehnat unumdorligining pasayishi ishlab chiqarish natijasiga salbiy ta'sir qiladi, boshqacha aytganda, mehnat unumdorligining pasayishi bilan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori kamayib boradi. Bunday holat fermer xo'jaligi iqtisodiyoti, qolaversa, qishloq xo'jaligining taraqqiyotiga salbiy ta'sir qiladi.

Mehnat unumdorligining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga yoki kamayishiga ta'sir qilishi bilan bir qatorda uning iqtisodiy samaradorligining o'zgarishiga ham ta'sir qiladi. Masalan, mehnat unumdorligining oshishi samaradorlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan mahsulot tannarxining pasayishiga sabab bo'ladi, aksincha, mehnat unumdorligining pasayishi mahsulot tannarxining qimmatlashishiga olib keladi. Shuning uchun mehnat unumdorligining tahlilini o'z vaqtida amalga oshirish katta ahamiyatga egadir. Demak, mehnat unumdorligining oshishi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va uning samaradorligini oshirishdagi asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham mehnat unumdorligini uzluksiz o'rganish asosida uni yanada oshirish imkoniyatlarini ko'rsatish iqtisodiy tahlilning asosiy maqsadidir.

Mehnat resurslari va ulardan foydalanish tahlili o'z maqsadiga quyidagi asosiy vazifalarni bajarish orqali erishadi:

- 1) korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasini o'rganish va baho berish;
- 2) ish vaqtidan foydalanish darajasini o'rganish;
- 3) mehnat unumdorligi darajasini aniqlash va uning o'zgarishiga omillar ta'sirini hisoblab, baho berish;
- 4) mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga xodimlar soni va mehnat unumdorligi darajasi o'zgarishining ta'sirini aniqlash va baho berish;
- 5) mehnat resurslaridan samarali foydalanish uchun mavjud bo'lgan imkoniyatlarni aniqlash.

Xo'jalikning mehnat resurslari bilan ta'minlanish holatini tahlil qilishda xodimlarni ishga qabul qilish, ishdan bo'shatish va ularning qo'nimsizlik ahvoriga alohida e'tibor beriladi. Mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasi me'yor atrofida bo'lsa, ishlab chiqarishga albatta ijobiy ta'sir qiladi, ayniqsa, mehnat resurslaridan foydalanish samarali bo'lsa, ishlab chiqarish ko'lamining o'sishiga, mehnat unumdorligining oshishiga sababchi bo'ladi.

Mehnat resurslaridan foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi:

- 1) o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan kunlari soni (AT);
- 2) o'rtacha 1 ishlovchining bir yilda ishlagan soatlari soni (S);
- 3) ish kunining o'rtacha davomiyligi (D);
- 4) ish vaqti fondi (soat hisobida).

Mazkur ko'rsatkichlar orqali mehnat resurslaridan foydalanish koeffitsiyentlari aniqlanib, tahlil qilinadi. Ushbu koeffitsiyentlarni o'zaro solishtirib, tahlil qilinadi, xulosa chiqariladi. Mehnat resurslaridan foydalanishning umumlashgan ko'rsatkichi bo'lib, ish vaqti fondi hisoblanadi. Mehnat resurslaridan foydalanish ko'rsatkichlarining tahlili xo'jalik bo'yicha ham, uning har bir ishlab chiqarish bo'limi bo'yicha ham, ishlab chiqarish tarmoqlari bo'yicha ham amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qudratov T.Q., Ibragimov M. Iqtisodiy tahlil. O 'quv qo'llanma. II nashr. - Toshkent «Ilm-Ziyo», 2008
2. Qudratov T.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Muammoli leksivalar kursi. - Samarqand, 2004.
3. Pardayev M.Q. Iqtisodiy tahlil nazariyasi. Darslik. - Samarqand. «Zaratshon», 2001.
4. Pardayev M.Q. va boshqalar. Boshqaruv tahlili (ma'ruzalar kursi). - Samarqand, 2004.
5. Pardayev M.Q., Abdikarimov I.T. - «Iqtisodiy tahlil». - T.: «Mehnat», 2004.

SUN'IY INTELLEKT

Nazira Bekboboyeva Tursunqulovna
Sherobod 2- son kasb hunar maktabi informatika o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Bu maqola sun'iy intellekt tizimlarining tarixi, insoniyat faoliyatida o'z o'rinini qanday tutganligi, sun'iy intellektning texnologiyasi va uning tizimlarini hayotda qanday tatbiq qilishning muhimligini korsatadi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya, dasturiy ta'minot, sun'iy intellekt.

KIRISH

Robotlar haqida gaplashganda, ko'pchilikning e'tiborini insonlardagi suhbatga tortadigan, ularni o'rniga har qanday vazifalarni bajaradigan yordamlar keltiradi. Lekin bu farqli ravishda tariflangan. Masalan, mobil qurilmangizda ishlaydigan dasturlar, masalan, Google Tarjimon, lug'atlar, turli o'yinlar va hokazolar, ham sun'iy intellektning yaxshi misollariga kiradi. Bu dasturlar amal qiladigan yo'nalish bo'yicha sizga yordam bera olishadi, ammo ularning qamrovi kichik va ma'lum bir yo'nalishga oid bo'lgan vazifalarni bajarishadi. Yani, siz bajarishni istagan har qanday amallaringizni bajarish uchun tegishli dasturdan foydalanasiz.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt nima?

Sun'iy intellekt, aslida, informatikaning ajralmas bo'lagi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlarga ega bo'lgan kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Ular tilni tushunish, o'rgatish, muzokara qilish, masalani yechish, tarjima qilish va boshqa imkoniyatlarni o'z ichiga oladi.

Hozirda sun'iy intellekt, bir qator amallarni bajarishga mo'ljallangan algoritmlar va dasturiy tizimlardan iborat bo'lib, ular inson ongini bajarishi mumkin bo'lgan bir nechta vazifalarni o'z ichiga oladi.

1990-yillarda sun'iy intellekt sohasida yangi bosqich o'tqazildi. 1997-yilda, IBM tomonidan ishlab chiqilgan Deep Blue kompyuteri shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni yengdi va bu tarixdagi ilk kompyuter bo'ldi.[1]

Sun'iy intellektning ajoyib namunalaridan biri IBM Watson superkompyuteri. U o'z ma'lumotlar bazasidan foydalanib, muayyan tilda berilgan savollarga javob beradi. Hozirgi kunda, ko'pchilikning doimiy hamrohlariga aylanib ulgurgan mobil yordamchilar, masalan, Siri, va fotosuratlarini qayta ishlovchi Prisma dasturlari ham sun'iy intellektning yutuqlari sifatida kuzatiladi. Sun'iy intellekt kundalik turmush tarzimizning ko'pchiligini qamrab olmoqda, masalan, Xitoydagi Inchuan shahri aholisiga bank kartalarining keragi yo'q.[2]

Foydasi yoki zarari?

Sun'iy intellekt haqidagi muzokaralar qariyb 50 yildan beri davom etmoqda. Hali ham mutaxassislar o'rtasida qarashlar mavjud. Ba'zi mutaxassislar sun'iy intellektning ommaviy ishsizlikni oshirishiga duch kelishadi, chunki ular robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlar orqali ish bajaradigan odamlarning o'rniga o'tadi. Boshqa mutaxassislar esa sun'iy intellektga ijobiy munosabatda bo'lish kerakligini ta'kidlaydilar. IT sohasidagi bir qancha milliarderlar ham o'zaro farqli qarashlarga ega.[3]

Jumladan, SpaceX asoschisi Elon Musk sun'iy intellektning barcha insoniyatni xavotirga solishi mumkinligiga ishonch bildiradi. Uning fikriga ko'ra, sun'iy intellekt ommaviy muammolarni kuchaytirib chiqarishda roli yirik. Chunki, robotlar bizdan ko'ra ishni yaxshiroq bajara olishadi. Bunday yangi texnologiyalar ommaviy xavotirni keltirib chiqarishi mumkin.

Microsoft rahbari Bill Geits ham sun'iy intellektning kuchlanishiga to'xtashga qaror qilib o'tkazildi. U ularning katta qismi ishlarini avtomatlashtirish odatiylashishining, sun'iy intellektning kuchlanishi bilan yaqinda bizni xavotirga solishi ehtimol. Geits aytishicha, boshqa xodimlarni tashvishlantirmaydigan maqolalarni tushunishim katta maqsad.[4]

XULOSA

Yuqorida sanab o'tilgan sun'iy intellekt sohasi hozirgi kunda insoniyat faoliyatining muhim sohasiga bevosita oid bo'lmaganidek tasvirlangan. Sun'iy intellekt hozirgi kunda faqat o'rtacha sohalarda emas, balki boshqa yo'nalish va sohalarda ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Uning o'rniga jamiyatda, sanoatda, fanlar sohasida va inson hayotining har bir faoliyatida tutgan o'rni juda katta.

Bu xulosa bilan aytishim mumkinki, sun'iy intellektning o'ziga xos ta'siri jamiyatning har bir sohasida sezilarli va mustaqil bo'lmagan holda o'tmoqda. Sanoat va fanda, masalan, sun'iy intellekt tizimlarini qo'llash orqali yangi texnologiyalarni rivojlantirish, boshqarish va optimallashtirishda ishlab chiqarilmoqda. Inson hayoti ham sun'iy intellekt tizimlari yordamida oson va samarali bo'lib ketmoqda. Bunda, bu sohalarda orasidagi farqni, yaxshi yoki yomonligini belgilash mo'ljallangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, U., Kaxarov, S., Yokubjonov, S., & Ziyodov, D. (2018). USING NEW INFORMATION TECHNOLOGIES IN DISTANCE LEARNING SYSTEM. In НОВАЯ ПРОМЫШЛЕННАЯ РЕВОЛЮЦИЯ В ЗЕРКАЛЕ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ (pp. 9-11).

2. Karimov A., Muxammadjonov X. INFORMATION TECHNOLOGIES: INFORMATION EDUCATION AND INFORMATICS //Экономика и социум. – 2020. – №. 8. – С. 40-43.

3. Abdurakhmonova, M. M., ugli Mirzayev, M. A., Karimov, U. U., & Karimova, G. Y. (2021). Information Culture And Ethical Education In The Globalization Century. The American Journal of Social Science and Education Innovations, 3(03), 384-388.

4. Каримова, Г., Акбарова, М., Акрамжонов, Қ., & Йўлдашева, Г. (2021). ЖАМИЯТ ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Интернаука, (10-3), 42-43.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING MATEMATIK SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Fatulloeva Munira Saloxitdinovna

*Buxoro shahar 30-umumta'lim maktabining
boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining metodik tayyorgarligini takomillashtirishda xalqaro baholash dasturlaridan foydalanish imkoniyati ochib berilgan. TIMSS xalqaro baholash dasturlarini ta'lim jarayonida qo'llashda erishiladigan yutuqlar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi, xalqaro baholash dasturi, matn ustida ishlash, savodxonlik darajasi, PIRLS, TIMSS.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-son Farmonida 2030-yilga kelib xalqaro baholash reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan [2]. Shuningdek, konsepsiya doirasida o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini baholashda xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

– PIRLS (Progress in International Reading and Literacy Study) – boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash;

– TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) – 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash;

TIMSS bu — "Trends in International Mathematics and Science Study", ya'ni 4- va 8-sinf o'quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo'nalishlar bo'yicha ta'limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir.

TIMSS tadqiqot vositasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- matematika va tabiiy fanlar sikli fanlaridan topshiriqlar (4- va 8-sinflar);
- ta'lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4- va 8-sinflar);

- o'qituvchilar uchun so'rovnoma (4- va 8-sinflar);
- Ota-onalar uchun so'rovnoma (4-sinf).

TIMSS testi to'rtta topshiriq blokidan iborat (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 72 daqiqa ajratiladi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlar).

TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to'plamiga quyidagilar kiradi:

- kognitiv va ma'lumotlar sohasiga tegishli testlar;
- anketalar (o'quvchilar, o'qituvchilar, ta'lim muassasasi ma'muriyati, ta'lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun);
- uslubiy ta'minot (o'rganishni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha milliy koordinatorlar uchun yo'riqnoma, namuna olish bo'yicha qo'llanma, maktab koordinatorlari uchun qo'llanma, test o'tkazish bo'yicha qo'llanma, bepul javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo'yicha qo'llanma, ma'lumotlarni kiritish bo'yicha qo'llanma va boshqalar);
- dasturiy ta'minot (sinflar va o'quvchilarni tanlash uchun, ma'lumotlarni kiritish uchun).

Xalqaro testlar quyidagi tamoyillar asosida ishlab chiqiladi:

Jaxon ta'limida Lesley University olimi **Jennifer Anne Evans** matematika baholash tizimi haqida ilg'or fikrlarni ilgari surgan.

Tadqiqotchi baholash tizimini ikki o'lchovga bo'ladi: mazmunli va kognitiv. Uning fikricha matematikani o'rganib, mazmun o'lchovi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan matematik ko'nikmalar yoki tushunchalarga ishora qilish lozim (masalan, ko'paytirish, perimetr va boshqalar) [6; 32-33-b.].

Jennifer Anne Evans tadqiqot ishida mazmunli va kognitiv o'lchamdagi topshiriqlarni alohida ajratib ko'rsatgan (1-jadval).

1-jadval.

4-sinf matematika <u>mazmunli o'lchov</u>	4-sinf matematika <u>kognitiv o'lchov</u>
Raqamlar (50%)	Bilish (40%)
Geometrik shakllar va o'lchovlar (35%)	Qo'llash (40%)
Ma'lumotlarni ko'rsatish (15%)	Mulohaza yuritish (20%)

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashi mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni

baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha «Yo'l xaritasi»ning 13-bandida xalqaro tadqiqotlarda o'tgan yillarda foydalanilgan savollar mazmunini o'rganib chiqib, tahlil qilish belgilangan.

Georgia State University olimi Michael Nguyen-Quan TIMSS 2015: Influences of Student and Classroom Related Background Variables on Eighth-Grade Mathematics Achievement in Asean+3 (APT) Countries nomli ilmiy ishda TIMSS topshiriqlarini bajarish mexanizimini ishlab chiqish juda muhim ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha TIMSS muhitiga o'qituvchi va o'quvchini birdek olib kirish lozim. Olim tadqiqotida o'qituvchi va o'quvchi uchun yaratgan qo'llanmasida quyidagi kichik savollariga javob berishga harakat qildi:

- o'quvchilarning jinsi, matematikani o'rganishdagi o'ziga bo'lgan ishonchi, matematikani o'rganishni qadrlashi, matematikani o'rganishni yoqtirishi, matematikani o'rganishdan zavqlanishi, uy vazifasini bajarishga sarflangan vaqti va darslikda o'tkaziladigan vaqt kabilar sakkizinchi sinf matematika ballariga qay darajada ta'sir qilishi;

- ota-onalarning o'quvchilarning uy resurslari, jumladan, kompyuterga kirishi qay darajadali;

- ta'lim darajasi va o'z o'qish xonasiga ega bo'lish;

- o'qituvchining o'ziga xos xususiyatlari, jumladan, jinsi, yillar tajribasi, mutaxassisligi qay darajada ekanligi;

- sinf xususiyatlari, jumladan, kompyuterlarning umumiy soni.

Olimning fikricha jahonda matematik bilimni yuqori darajada bo'lishi mamlakatning kelajakdagi iqtisodiyotiga bevosita ta'sir qilishi mumkin.

TIMSS 2023 baholashning raqamli formati bugungi kun o'quvchilarning baholashga qiziqishi va motivatsiyasini rag'batlantiradi va o'z navbatida o'quvchilarning *nimani* bilishi va *bajara* olishi haqida yaxshiroq ma'lumot beradi. Bundan tashqari, raqamli format TIMSS ga qog'oz va qalam formatida baholash qiyin bo'lgan kognitiv sohalarini baholash imkonini beradi. Masalan, TIMSS testlarida o'quvchilar matematika muammolarini hal qilish yoki virtual tajribalar va tadqiqotlar o'tkazish uchun jarayon ko'nikmalari va kontent bilimlarini birlashtiradi va qo'llaydi.

“**Bilish**” bo'limi o'z ichiga matematikadan masalalar yechishni olgan bo'lib, masalalar yechish o'quvchilardan sonlarning xususiyatlari va oddiy geometrik jismlar haqidagi nazariy bilimlar, ta'riflarni takroran aytib berish, standart grafik va diagrammalardan ma'lumot olishni o'z ichiga qamrab oladi. O'quvchilar tabiiy fanlardan alohida organizmlar va obyektlarning xususiyatlari, hodisa va jarayonlar,

tabiiy-ilmiy atamalar va o'lovch birliklari haqidagi bilim darajasini namoyish etishlari kerak.

“**Qo'llash**” ga oid test topshiriqlarini bajarishda o'quvchilar hayotiy vaziyatlarni o'zida aks ettiradigan matematik va tabiiy-ilmiy masalalarni yechish, jadval, sxema, diagramma, grafiklarni talqin qilish, tajribalarni o'tkazish ko'nikmalarini namoyish etishlari zarur.

“**Mulohaza yuritish**”ga oid topshiriqlar o'quvchilarning mantiqiy va tizimli fikrlash malakalarini aniqlaydi. Mulohaza yuritishni talab etadigan masalalar taklif etilayotgan vaziyatning yangiligi, savolning murakkabligi, yechish bosqichlari sonining ko'pligi, turli bo'limlardan bilimlarni integratsiyalashning zarurligi bilan bir-biridan farqlanishi mumkin. O'quv faoliyati turlari bo'yicha o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashga qo'shimcha ravishda maktablarda matematika va tabiiy fanlar bo'yicha berilayotgan ta'lim mazmuni, o'quv jarayoni, o'quv muassasasi imkoniyati, o'qituvchilar salohiyati, o'quvchilarning oilasi bilan bog'liq omillar ham o'rganiladi. Ushbu ma'lumotlar belgilangan fanlarni o'zlashtirish holatini ko'rsatishda asos bo'ladi. Tadqiqot to'rt yilda bir marta dunyoning ko'plab ilmiy-tadqiqot markazlari va tashkilotlari, xususan, AQShning Ta'lim sohasidagi test xizmatlari (ETS-Educational Testing Services), Kanadaning statistik markazi (Statistic Canada), Ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA)ning Sekretariati ishtirokida o'tkaziladi. Shuningdek, turli davlat mutaxassislaridan iborat maslahat qo'mitalari tashkil etiladi.

O'qituvchilar o'quvchilarning o'quv faoliyati turlari (bilish, qo'llash, mulohaza yuritish) bo'yicha o'quv yutuqlarini baholashda o'tgan yillar davomida tadqiqotda ishlatilgan, biroq konfidensiallik rejimidan chiqqan topshiriqlarni didaktik material sifatida ta'lim jarayonida qo'llashi mumkin. Bu esa TIMSS xalqaro tadqiqotining o'quvchilarning o'quv yutuqlarini baholashning o'ziga xos yondashuvlarini tushinishni ta'minlaydi. Muhimi, matematika va tabiiy fanlardan savodxonlikni baholash vositalari ta'lim texnologiyalari va o'qitish metodikasini takomillashtirishga imkon beradi.

O'zbekiston ta'limida ham bugungi kun o'quvchisi xalqaro baholashga javob berish uchun yangi avlod darsliklari va milliy dastur yaratildi. O'quvchilarning mazmun va kognitivli bilimlarini o'lchashning dastlabki nazariy va amaliy ishlari boshlandi [5; 227-b.].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida TIMSS xalqaro tadqiqoti O'zbekistonda joriy etilishi belgilab qo'yilgan bo'lib, mazkur tadqiqotlarni joriy etish maqsadida Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi huzurida Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi tashkil etilgan.

Endilikda, O‘zbekiston TIMSS-2023 xalqaro dasturida qatnashishga kirishadi. Bu borada IEA tashkilotining “Xalqaro matematik va ilmiy-tadqiqotlar (TIMSS) 2023 tendensiyalarida qatnashish uchun rasmiy taklifi”ga muvofiq O‘zbekistonning TIMSS dasturida ilk marotaba qatnashishi masalasida Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi o‘rtasida olib borilgan muloqotlar asosida IEA rahbariyatining dastlabki roziligiga erishildi.

TIMSS 2023 yilda mazmun o‘lchovi asosida topshiriqlarni quyidagi struktura asosida olinishi ko‘zda tutilgan (2- jadval):

2-jadval.

4-sinf matematika mazmunli o‘lchov	Mazmuni
Sonlar va amallar (50%)	1. Butun sonlar. 2. Ifodalar, sodda tenglamalar va munosabatlar. 3. Oddiy kasrlar va o‘nli kasrlar.
Geometriya va o‘lchashlar (30%)	1. O‘lchashlar. 2. Geometriya.
Ma’lumotlar bilan ishlash (20%)	1. Ma’lumotlarni o‘qish va tasvirlash. 2. Ma’lumotlarni talqin qilish, birlashtirish va taqqoslash.

TIMSS bo‘yicha xalqaro baholash dasturini ishlab chiqish ta’lim jarayoniga tadbiiq etish qator vazifalar, qoidalarga bo‘ysinishni talab etadi.

Boshlag‘ich ta’lim o‘quvchilarida o‘qish va amaliy jarayonlarda ishlash savodxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning tizimli bosqichlarini aniqlash, ta’lim jarayoniga olib kirish va amaliyotda foydalanishning innovatsion usullarni ishlab chiqish, bevosita, ta’lim sifati va xalqaro baholash dasturlari talablariga tayyor bo‘lish imkoniyati oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi 2022-yil 28-yanvardagi 60-sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash” to‘g‘risida 2019-yil 29-aprel, 5712-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 997-sonli Qarori.

4. Mullis, I.V.S., Martin, M.O., Minnich, C.A., Stanco, G.M., Arora, A., Centurino, V.A.S., & Castle, C.E. (Eds.) TIMSS 2011 Encyclopedia: Education Policy and Curriculum in Mathematics and Science, Volumes 1 and 2. - Chestnut Hill, MA: TIMSS & PIRLS International Study Center, Boston College, 2012. -1088 p.

5. Hutchison, D., Schagen, I. Comparisons between PISA and TIMSS -Are we the man with two watches? / Loveless, T. (Eds.) // Lessons Learned - What international assessments tell us about math achievement. - Washington, D.C.: Brookings Institute Press, 2007. - P. 227-261.

6. Jennifer Anne Evans Gender, Self-Efficacy, and Mathematics Achievement: An Analysis of Fourth Grade and Eighth Grade TIMSS Data from the United States. Lesley University School of Education 2015 32-33-p.

7. Raxmatov M., Zaripov B. Yangi O‘zbekiston Uchinchi Renessans ostonasida. – T: “Zamin nashr”, Toshkent, 2021.

8. “Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash” metodik qo‘llanmasi, T. 2019-y.

“TIL VA NUTQ. NUTQ NIMA?”

Qandimova Nasiba

Buxoro davlat Pedagogika Instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang'ich ta'lim) 2-kurs magistranti

1-sinf ona tili

Mavzu: Til va nutq. Nutq nima?

Darsning maqsadi:

Ta'limiy maqsad: - O'quvchilarga til va nutq haqida yangi bilimlar berish. Nutq-

ning mohiyatini ochib berish;

Tarbiyaviy maqsad: -O'z fikrini ravon, ifodali, adabiy til me'yorlariga rioya etgan holda bayon etish. Maktabda, ko'chada, oilada to'g'ri muloqot madaniyatini shakllantirish va tarbiyalash;

Rivojlantiruvchi maqsad: - O'quvchilarni husnixat bilan yozish ko'nikmalarini shakllantirish, og'zaki nutq boyligini rivojlantirish.

Kompetensiya:

Nutqiy kompetensiya: o'qituvchi nutqini va mavzuga oid tushunchalarni, o'zaro savol-javob, topshiriqlar, kichik matnlarni tushuna oladi;

Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri qo'llay olish, talaffuz me'yorlariga rioya qilish;

Dars turi: yangi bilim,ko'nikma, malakalarni shakllantiruvchi dars.

Dars metodi: suhbat, guruhlarda ishlash, “Chehralar” o'yini, savol-javob.

Dars jihozi: darslik, mavzuga mos rasmlar, rebus, tarqatmalar materiallar noutbuk.

Dars jarayoni va texnologiya

Ishning nomi	Bajariladigan ish mazmuni	Metod	Vaqt
1-bosqich Tashkiliy qism	O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorgarligi tekshiriladi.	Savol-javob	2 daqiqa

2-bosqich (Refleksiya) ehtiyoblarni aniqlash	Dars shiori tanlanadi. Dars davomida rioya qilish lozim bo'lgan qoidalar belgilanadi.	Tushuntirish	2 daqiqa
3-bosqich darsning borishi.	1. O'tgan darsni so'rab baholash, mustahkamlash, chiroyli yozuv malakalarini tekshirish. 2. Yangi mavzuning bayoni 3. O'quvchilarga mashqlarni bajartirish. 4. Lug'at ishi.	“Tushunchalar tahlili” metodi	5 daqiqa
		suhbat, “Ta’rifimdan meni top” metodi, “Chehralar” metodi.	6 daqiqa
			15 daqiqa
4-bosqich mustahkamlash	1. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun darslikdagi savollardan o'quvchilarning bilim darajalariga qarab boshqa savollardan ham foydalanadi. 2. Rebus hal etiladi.	Rebusni hal qilish	4 daqiqa
		Muammoni izlanish	2 daqiqa
5-bosqich Baholash Darsni yakunlash	O'quvchilarning darsda ishtiroki hisobga olinib, reytinggi e'lon qilinadi. Dars yakunlash. Uy vazifasini berish.	Ball qo'yish, Taqdirlash. Topshiriq berish, tushuntirish.	2-daqiqa 2- daqiqa

I. Tashkiliy qism:

(O'quvchilar bilan salomlashish).

O'qituvchi:

Salom mening aziz o'quvchilarim,

Ham mehribon, qadr donlarim.

Davomatni aniqlash:

Kim sinfda navbatchi,

Har narsadan xabarchi?

(Sana, hafta kuni, faslni aniqlash. Q`ish faslining tarovati haqida ko`rgazmalar)

Qishda tabiatda qanday o`zgarishlar bo`ladi?

-Hammayoq oq choyshabga burkanadi;

-Daraxtlar oq libos kiyadi;

-Qushlar issiq o`lkalarga uchib ketadi.

Bizning shiorimiz:

Bilagi zo`r birni yiqar

Bilimi zo`r mingni.

-Bolalar, hozir darsimizning nomi nima?

- Ona tilim jon-u dilim,

Sen-la olay koni ilm.

Maqsadimiz:

-Chuqur bilim egasi bo`lib, yurtimga, xalqimga sodiq farzand bo`lish.



Bizning shiorimiz:

Bilagi zo`r birni yiqar

Bilimi zo`r mingni.

-Bolalar, hozir darsimizning nomi nima?

- Ona tilim jon-u dilim,

Sen-la olay koni ilm.

Maqsadimiz:

-Chuqur bilim egasi bo`lib, yurtimga, xalqimga sodiq farzand bo`lish.

Oltinqoida.

1. O‘zaro hurmat

2. Faollik

3. Darsda tartibni saqlash

4. Chiroyli yozuvga amal qilish

Sinf o‘quvchilari o‘zaro 3 guruhga bo‘linishadi:

1-guruh “Bo‘g‘in”

2-guruh “So‘z”

3-guruh “Gap”

(Har bir guruh partalari ustiga A-4 formatdagi karton qog‘oz va konvert ichida archa daraxti, palma daraxti, terak daraxti, uycha, bulut, quyosh, qushlar, to‘nka, o‘t-o‘lanlar rasmlar qo‘yiladi. Dars davomida har bir to‘g‘ri javob uchun bittadan rasm yopishtirib boriladi. Dars so‘ngida “Bog‘dagi uycha” manzarasini to‘liq tasvirlagan guruh g‘olib sanaladi.)

II. O‘tgan mavzuni mustahkamlash. Uy vazifani tekshirish va baholash.**3-mashq. Berilgan so‘zlardan gap tuzing va yozing.**

1. Bilan, lola, bola, gul, lola, bilan, ona – Ona bilan nola, gul bilan lola
2. Yurting, beshiging, oltin, ona- Ona yurting oltin beshiging
3. Tanda, sog‘lom, aql, sog‘-Sog‘ tanda sog‘lom aql
4. O‘yla, keyin, so‘yla, avval-Avval o‘yla keyin so‘yla.

O‘qituvchi tomonidan maqollar o‘qiladi, o‘quvchilar daftarlarini partadoshlari bilan almashgan holda tekshirib oladilar. Maqollar mazmuni izohlanadi.



“Tushunchalar tahlili” metodi o‘tkaziladi.

Tushuncha	Ta‘rif
Matn	
Gap	
Ona tili	

III. Yangi mavzu bayoni.**Mard maydonda sinalar.**

1. Yuqoridagi fikrdan nimani tushundingiz?

2. Hayvonlar tovushu ham nutq sanaladimi?



Birinchi rasmda yovvoyi hayvonlar: fil, she'r, ayiq, burgut kabilar tasvirlangan. Ular tabiat qo'ynida kezi yurishibdi. Yovvoyi hayvonlar ba'zida insonlar uchun xavf tug'dirishi mumkin.

Keyingi rasmda uy hayvonlari tasvirlangan. Rasmda biz it, kurka, echki, sigir, quyon kabilarni ko'rishimiz mumkin. Ular uyda boqiladi va insonlarga anchagina foydasi bor.

Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilardan kim qaysi uy hayvonini yoqtirishini va qaysi uy hayvonini uyida saqlashlarini so'rab o'tadi.

Yodda tuting. Qoidani ko'chirib oling.

Og'zaki nutq-bu biz eshitayotgan yoki talaffuz qilayotgan nutq. "Og'zaki" so'zi "og'iz"so'zidan olingan bo'lib, og'iz orqali ifoda etiladigan nutq hisoblanadi.

Yozma nutq-bu biz o'qiydigan yoki yozadigan nutq. yozishda biz faqat harflar va yozma belgilardan foydalanamiz.

•Og'zaki va yozma nutq bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

2-mashq. Shartlarni bajaring va izohlang.

1.Birinchi va ikkinchi ifodalarni so'z bilan yozing. Yozishda nechta So'z ishlatdingiz?

$$5 > 3 \quad 3 + 5 = 8$$

2.O'qing va nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan so'zni qo'yib, fikrni yakunlang.

Nutqda asosiy vazifani so'zlar bajaradi. Faqat insongina so'zlardan so'□□□zlardan foydalanadi. Shuning uchun.....faqat insonga xos.

DAM OLISH DAQIQASI

Ko`p yozadi qo`llarimiz,

Ham charchab ko`zlaimiz.

Bir, ikki, uch,

To`plab oldik kuch.

Yana yozamiz yana,

Harflarimiz ko`p sara.


3-mashq. Hayvonlar chiqaradigan tovushlarni yozing.


O'quvchilar qo'liga hayvonlar rasmi tushirilgan rasmlar beriladi. Har bir qatordan o'quvchilar turib, berilgan hayvonning tovushini o'xshatib berishi kerak. Qolgan o'quvchilarga savol beriladi.


Nima uchun hayvonlar chiqaradigan tovushni "nutq" deb atamaymiz? Javobingizni izohlang.



4-mashq

 **4-mashq. O'qing. Bu qaysi ertak?**

 Yana nima uchun kelding?
"Qaynar xumcha"ni olding, "Ochil dasturxon"ni olding, yana nima kerak?

 Meni bu gal ham aldading,
Laylakvoy. "Ochil dasturxon" o'rniga boshqa bir dasturxon beribsan. Endi sendan bir narsa so'rayman, menga "Ur to'qmoq"ni ber.

Ushbu mashqda "Ta'rifimdan meni top" o'qituvchisining yinini ham qo'llaniladi. O'qituvchi ertakni bolalarga eslatadi (undagi detallar bilan), o'quvchilar ziyalik bilan topishlari kerak bo'ladi.

V. YANGI MAVZUNI MUSTAHKAMLASH.

“Chehralar” metodidan foydalanib, dars mustahkamlanadi.

1. Dars siz uchun qiziqarli bo'ldimi?



2. Dars mazmuni tushunarli bo'ldimi?



(Faol ishtirok etgan o`quvchilar rag`batlantiriladi. Dars haqidagi fikrlari so`raladi.)

Kundalikni ochdik biz

Uyga vazifani yozdi biz

Ona-tilidan olgan bilimni,

Unutmasdan yozdik biz.

VII.Uyga vazifa. 5-mashq.

АХОЛИ VA BITIRUVCHI YOSHLARNING ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASHDA MUAMMO VA YECHIMLAR

*Qodirova Nilufar G'ayratovna, Yursunbekov Ilhombek Usmonbekovich,
Xoshimova Hulkaroy Djurayevna*

Farg'ona shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari

Annotatsiya: Maqolada iqtisodiyotni innovatsion rivojlanish sharoitida aholini, bitiruvchi yoshlarni ish bilan bandligining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatiga xos xususiyatlar, kasb-malaka guruhlarini bo'yicha taqsimlanishdagi qonuniyatlar Ishsizlik holatini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlar kambag'al va ishsiz fuqorolarni tadbirkorlikga jalb qilish, ularni kasb-hunarga o'qitish holatlari o'rganib chiqilgan va yoritilgan. Bundan tashqari, yoshlar bandligini ta'minlashga sarmoya kiritish muhimligidan kelib chiqib, yoshlar tomonidan

yaratilgan imkoniyatlardan to'liq foydalanish tahlili asosida ish o'rinlari yaratishga aloxida e'tibor qaratilayotganligi yoritib o'tilgan. Shuningdek, ishsizlikni keltirib chiqaruvchi asosiy omillarni qisqartirish chora-tadbirlarini takomillashtirish taklifi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: islohotlar, malaka, ishsizlik, bandlik, ehtiyoj potentsial demografik xolat, xarajatlar, forum, biznes loyiha, kredit mehnat resurslari.

Аннотация: В статье в условиях инновационного развития экономики дана характеристика социально-экономического характера занятости населения, молодых выпускников, закономерности распределения по профессионально-квалификационным группам, меры, направленные на решение проблемы. Изучены и разъяснены ситуация с безработицей, привлечением бедных и безработных граждан к предпринимательству, их профессии - случаи профессиональной подготовки. Кроме того, исходя из важности инвестирования в занятость молодежи, молодежь

Подчеркивается, что особое внимание уделяется созданию рабочих мест на основе анализа полного использования создаваемых возможностей. Также показано предложение по совершенствованию мер по снижению основных факторов, вызывающих безработицу.

Ключевые слова: реформы, квалификация, безработица, занятость, потребность, потенциальная демографическая ситуация, затраты, форум, бизнес-проект, кредит, трудовые ресурсы.

Bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan chuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning har bir hududida o'zining ko'zga ko'rinarli ijobiy samarasini berayotgani sir emas. Ammo shuni ham aytish lozimki, mamlakatda yoshlarni bandligini ta'minlash, ijtimoiy barqarorlikni vujudga keltirish bu yo'ldagi asosiy masaladir. Shuni ham aloxida ta'kidlash kerakki, kelajakdagi mustaqil O'zbekistonning yo'nalishini belgilab beruvchi yagona kuch –yoshlardir. Yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida doimo ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelgan. Chunki ular davom etayotgan o'zgarishlarning

ko'rsatkichlari bo'lib, jamiyat taraqqiyoti salohiyatini belgilaydi. Yoshlar muammosi bugungi kund a ilmiy tadqiqot va tahlilning asosiy va dolzarb muammolaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida "2021 yil 1 yanvardan talab yuqori bo'lgan ishchi kasblar bo'yicha fuqarolarning malaka darajasini tasdiqlash tizimini joriy etish. Yoshlar forumidagi uchrashuvda yoshlar tadbirkorligi va bandligini ta'minlash uchun 100 million dollar ajratish to'g'risida qaror qabul qildik. Bundan tashqari yoshlarning biznes loyihalarini kreditlagan xolda ularni kasb-hunarga o'qitish uchun 1 trillion so'm va 50 million dollar ajratiladi" deb ta'kidlab o'tdi. Bu esa o'z navbatida innovasion rivojlanish davrida yoshlarga keng imkoniyatlar berilayotganligidan dalolat beradi.

Yoshlar alohida ijtimoiy guruh sifatida doimo ilmiy izlanishlar markazida bo'lib kelgan. Chunki ular davom etayotgan o'zgarishlarning ko'rsatkichlari bo'lib, jamiyat taraqqiyoti salohiyatini belgilaydi. Yoshlar muammosi bugungi kunda ilmiy tadqiqot va tahlilning asosiy va dolzarb muammolaridan biridir.

"Yoshlar" tushunchasini V.V. Pavlovskiy quyidagicha ta'riflaydi: "Yoshlar – bu o'smir va katta, balog'at yoshidagi insonlarning umumiyligi o'rtasidagi o'tish holatini egallovchi 13-14 yoshdan 29-30 yoshgacha bo'lgan kishilarning alohida biosotsial yosh guruhi. Bu u yoki bu jamiyatning sinfiy, ijtimoiy-guruhi, etnik va boshqa dolzarb muhim tuzilmasini o'zida aks ettiruvchi guruhdir" Shunday qilib, yoshlikning pastki chegarasini turli olimlar 14 va 16 yoshlar orasida, yuqori chegarasini 25 va 30 yoshlar orasida deb belgilaydilar. Yoshlarni o'rganar ekanmiz ularning muammolari va qiziqishlarini ham xar doim to'liq tadbqiq qilish kerak bo'lmoqda. Shu o'rinda yoshlarning ish bilan bandlik darajasi va ularning ish va ishsizlik muammolari bilan qanday darajada duch kelayotganini ijtimoiy iqtisodiy jihatdan o'rganishga xarakat qilib ko'ramiz.

Ishsizlik hozirgi vaqtda jamiyatning eng markaziy muammolaridan biri hisoblanadi. Zero yuqori darajadagi ishsizlik mavjud resurslardan to'liq foydalanilmayotganligini va natijada aholi daromadlarining pastligini ko'rsatadi. Bu esa ijtimoiy sohada, oilaviy munosabatlarda vaziyatning keskinlashuvi va jamiyat miqyosida norozilikning ko'payishiga olib kelishi mumkin. Ish joyidan ayrilish ko'p kishilar uchun oilaviy turmush darajasining yomonlashishini, shaxsiy xayotining notinchligini bildirib, odamga jiddiy ruhiy ta'sir ko'rsatadi.

Ishsizlik shunday hodisaki, unda ishchi kuchi iqtisodiy faol aholin ing bir qismi sifatida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishda band bo'lmaydi. Ishsizlar bandlar bilan bir qatorda mamlakat ishchi kuchini tashkil qiladi. Amaliyotdagi iqtisodiy xayotda ishsizlik ishchi kuchi taklifining unga bo'lgan talabdan oshib ketishi tarzida namoyon bo'ladi.

Aholini ish bilan ta'minlash inson ijtimoiy rivojlanishining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u mehnat masalalari bilan bog'liq muammolarni hamda mehnatga bo'lgan taklif va talablarni qondirish yo'llarini ochib beradi. Ish bilan bandlik kishilarning ish joylari qayerdaligidan qat'i nazar, ijtimoiy foydali mehnatda qatnashish yuzasidan o'zaro kirishadigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlaridir. Ish bilan bandlik munosabatlari, mehnatga layoqatli kishilarning qanchasi va

qaydarajada ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishini ko'rsatadigan ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichdir.

Aholining ish bilan bandlik toifasi faqat iqtisodiy komponentlar bilan cheklanmaydi. Ish bilan bandlik, avvalo, ijtimoiy munosabatlardir. Shu bois qandaydir azaliy, bevosita yuzaga kelgan hodisa sifatidagi ijtimoiylik uning asosiy

hususiyati hisoblanadi.

Ish bilan bandlik ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'lar ekan, uni quyidagicha ta'riflash mumkin. Ish bilan bandlik - fuqarolarning qonun xujjatlari zid kelmaydigan o'z shaxsiy va ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq, ularga ish haqi yoki mennat daromadi keltiradigan faoliyatdir.

Respublikamizda vaqtincha ishsizlik mavjudligi sabablaridan biri – ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ya'ni ish bilan band bo'lmagan aholining katta qismi malakasiz xodimlar va mehnat bozoriga birinchi marta chiqayotgan yoshlarni tashkil etmoqda. Aksincha, iqtisodiyot tarmoqlarida yuqori malakaga va ish tajribasiga ega bo'lgan kadrlarga talab ortib bormoqda. 2020-yil 11-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentimiz tomonidan imzolangan "Kambag'al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mehnat faolligini oshirish va kasb-hunarga o'qitishga qaratilgan hamda aholi bandligini ta'minlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ham aholini tadbirkorlik faoliyatiga yanada keng jalb qilish va qonuniy mehnat faoliyatini ama lga oshirish uchun qo'shimcha shart-sharoitlarni yaratishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlar o'rtasidagi ishsizlik miqyosini tartibga solib turishning muhim usuli faoliyatning asosiy sohasi bo'lgan ehtiyojini pasaytirishdan iborat bo'lib, bunga ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim oladiganlar sonini ko'paytirish, kichik yoshdagi va maktabgacha yoshdagi bolalari bor yosh ayollarga nisbatan esa oilalarga ijtimoiy yordam berishni yaxshilash yo'li bilan erishiladi. O'qiyotgan yoshlar sonini kengaytirishning ikkita yo'nalishi bo'lishi mumkin. Birinchisi ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Ikkinchi yo'nalishga vaqtincha chora sifatida qarash mumkin va o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida mehnat bozori ehtiyojlarini o'zgarib borishiga muvofiq qayta ixtisoslashuv natijasida ta'lim olish muddatini uzaytirishdir.

O'zbekiston aholisi tarkibida yoshlarning salmog'i yuqori ekanligi bilan ajralib turadi. Mehnat bozorida yoshlarning ish bilan bandligi va ularni kasbga tayyorlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan alohida ahamiyatga ega. Bugungi globallashuv sharoitida dunyoning barcha mamlakatlarida yoshlar orasida ishsizlikning yuqori darajada ekanligi kutilmoqda. Bugungi kunda yoshlar mehnat bozorini tartibga solish va qishloqda ishsizlikni va avvalo 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar orasida bartaraf etish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shu munosabat bilan o'tkazilgan tadqiqotlar quyidagilarni tasdiqlashga imkon beradi, ya'ni qishloq yoshlari ishsizligi darajasining yuqori bo'lishi ko'proq ishchi kuchini dastlabki kasbga tayyorlash tizimi (shu jumladan, kasbga yo'naltirish)ni takomillashmaganligi, ularni ishga joylashis hining past darajasi va operativ emasligi, ish beruvchilarga yosh kadrlar

uchun ish o‘rinlarini tahlil qilish va saqlab qolishga hamda yaratishga moddiy rag‘bat va imtiyozlar

yo‘qligi, qishloq yoshlari tadbirkorligini davlat tomonidan qo‘llab -quvvatlash tizimini rivojlanmaganligi, yoshlarda malaka yetishmasligi, mehnat bozori infratuzilmasining yaxshi rivojlanmaganligi; istiqbolda ish bilan bandlikni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy jihatdan asoslangan dasturlarning ishlab chiqilmaganligi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 30.12.2020 y. Xalq so‘zi №276(7778).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF -4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6 -son
3. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot. Darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan 3-nashri. – T.: “FAN”, 2019. – 592 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumoti 2020 yil.
5. Soliq.uz - O‘zbekiston Respublikasi Davlat Soliq Qo‘mitasi rasmiy veb sahifasi.

О'ZBEKISTONDA KIMYO FANINING RIVOJLANISHI VA QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

*IIV Surxondaryo akademik litseyi
Kimyo fani o'qituvchisi
Xoliqova Kumushbibi Quدراتovna*

Аннотация

“Kimyo” fani bo'yicha tayyorlangan ushbu maqola fanning rivojlanishi va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati tushunchalarini o'z ichiga qamrab olgan. Bu maqoladagi har bir mavzu izchillik bilan yozilgan. O'quvchilarning kimyo fanidagi bilimlarni shakllantirishga qaratilgan.

Kalit so'zlar O'zbekistonda kimyo sanoatini rivojlanishi,

O'zbekiston Respublikasi kimyo fani va kimyo sanoatining rivojlanishi uchun hamma sharoitlarga ega. Yirik xomashyo zahiralari mavjud: bularga tabiiy gaz, gaz kondensati, fosforit, silvinit, osh tuzi, marmar, ohaktosh, neft va boshqalar kiradi. Kimyo korxonalari kompaniyalarida 30 mingdan ortiq yuqori malakali ishchilar ishlaydi. Oliy o'quv yurtlarida kimyo mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash amalga oshirilmoqda. 2001 yil mart oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan “O'ztkimyosanoat” davlat aksionerlar jamiyati tuzildi. “O'ztkimyosanoat” davlat aksionerlar jamiyatining 2004-2007 yil va 2014 yilgacha korxonalarining “Rivojlanish va texnik qayta qurollanish rejalari” ishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda. Kimyo sanoatining rivojlanish yo'nalishlarining asosiy strategiyalariga:

- harakatdagi mineral o'g'itlar ishlab chiqarish korxonalarini rekonstruktsiya va modernizatsiya qilish;

- to'xtab qolgan ishlab chiqarish mahsulotlarini eksportbop qilib ishlab chiqarishni o'zlashtirish kabilar kiradi.

Kalsiylangan soda (Na_2CO_3) ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga kimyo sanoatlari, qurilish materiallari sanoatlari uchun shisha, shisha mahsulotlari, silikagel ishlab chiqarishda zarur bo'lgan Na_2CO_3 ning quvvati bir yilda 700 ming tonnaga yetkaziladi. 2005 yilda ushbu mahsulot ishlab chiqaradigan zavod ishga tushirildi.

Respublikaning oliy o'quv yurtlarida muhandis-texnik xodimlar, kimyogarlar va ishchi kadrlar tayyorlash bo'yicha tinimsiz ishlar olib borilmoqda. Har yili yirik kimyo korxonalariga, o'quv muassasalariga minglab yuqori malakali kadrlar tayyorlab bermoqda.

“O‘zbekiston o‘z er osti boyliklari bilan haqli ravishda faxrlanadi – bu erda Mendeleev davriy sistemasidagi deyarli barcha elementlar topilgan” degan jumlaning hurmatli birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov aytgan va

O‘zbekistonda kimyoni rivojlanishiga haqiqiy obyektiv baho bergan. O‘zbekiston bugungi kunda oltin zahirasi bo‘yicha dunyoda 4-o‘rinda, uni qazib olish bo‘yicha 7-o‘rinda turadi. Respublikamizning Navoiy va Chirchiq shaharlarida joylashgan eng yirik elektr kimyo kombinatlari bugungi kunda o‘z maxsulotlari bo‘yicha nafaqat Respublikamiz talabini qondirib qolmasdan, balki jahonning qator mamlakatlariga o‘z mahsulotlarini eksport qilmoqda.

Respublikamiz Mustaqillikka erishgandan keyin o‘nlab yangi neft konlari izlab topildi va bugungi kunda ularning soni 160 dan oshib ketdi.

Ustyurt, Buxoro – Xiva, Janubiy – G‘arbiy Xisor, Surxondaryo, Farg‘ona kabi mintaqalarda neft va gazning yirik zahiralari mavjudligi aniqlandi.

Kimyo sanoatida xalq xo‘jaligi uchun zarur bo‘lgan ko‘pchilik mahsulotlarni ishlab chiqarishda gaz moddalardan foydalaniladi. Shu sababli gaz moddalarning miqdoriy tavsifiga doir nazariy va amaliy ma‘lumotlar bilan batafsilroq tanishib chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Francis A. Carey. Organic chemistry, University of Virginia, fourth edition- 2012 (darslik)
2. Anatol Malijevskiy. Physical chemistry in brief., 2005(darslik)
3. A. Abdusamatov “Organik kimyo” Toshkent – 2005(darslik)
4. A. Abdusamatov, S. Zakirov, R.Ziyayev “Fizik va kolloid kimyo” Toshkent -2013. (darslik)

MATEMATIKA DARSLARIDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Abdullayeva O'g'iloy Xoltura qizi
IIV Surxondaryo akademik litseyi
Matematika fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada **matematika** darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni vaqtida foydalanishga bo'lgan qiziqishini oshirish, **matematika** fanini o'qitish jarayonini yanada shakllantirish borasida o'z isbotini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar haqida to'liq bayon etiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, interfaol uslublar, axborot texnologiyalari, interaktiv metodlar, metodik ta'minot.

Bugungi ta'lim jarayoni vaqtida interfaol uslublar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv darslari jarayoni mobaynida foydalanishga bo'lgan intilish, e'tibor kundan – kunga ortib bormoqda. O'qituvchi ushbu jarayonda o'quvchining shaxsiy takomillanishi, rivojlanishi, bilib olishi va tarbiyalanishiga muhit yaratadi va shuning bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini ham bajaradi. Innovatsiya (inglizcha innovation) – yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, shuningdek o'qituvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan keng foydalaniladi. Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir qilish metodlari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu metod va uslublarning o'ziga xosligi shundan iboratki, ular pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi yordamida amalga oshiriladi.

MATEMATIK tahlil va metodologiya: Ma'lumki, **matematika** darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishning yuzdan ortiq turi mavjud bo'lib, ularning ayrimlari tajriba-sinovdan o'tib, yaxshi

natija ko'rsatgan. Keng qo'llaniladigan usullar – “Klaster”, “Aqliy hujum”, “Davom ettir”, “Taqqimot”, “Blits-so'rov”, “Muammoli vaziyat” kabilardan foydalanib, darsda keng ko'lamlil natijalarga erishish mumkin. Darsning o'tilgan mavzuni so'rash jarayonida “Sinkveyn”, “Teskari test”, “Aql charxi” uslublarini, yangi mavzuni tushuntirish vaqtida “Insert”, “Pinbord”, “Zinama-zina”, “Bumerang” texnologiyalarini, mavzuni mustahkamlash jarayonida “Venn diagrammasi”, “Baliq skeleti”, “Nima uchun?”, “Qanday?”, “Konseptual jadval”, “Nilufar guli” kabi grafik

tashkil yetuvchilar hamda “Tushunchalar tahlili”, “T-jadval”, “Rezyume”, “Kungaboqar”, “Charxpalak” metodlarini, uyga vazifa berishda “FSMU”,

“Klaster”, “BBXB” texnologiyalarini dars mobaynida qo'llash dars samaradorligini ta'minlab, o'quvchilarning bilimni oshirishga yordam beradi. Matematika fanini o'qitish jarayonini yanada takomillashtirish borasida o'z yechimini kutayotgan bir qator dolzarb muammo va kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Jumladan: -matematika fanini o'qitishda asosan nazariy ma'lumotlarga e'tibor berilgan bo'lib, o'quvchining nutqiy kompetensiyasini shakllantirishga yetarlicha diqqat-e'tibor

qaratilmagan; - matematika fanida o'qitiladigan mavzular sinflar kesimida tahlil qilinganda, o'quvchi uchun murakkab bo'lgan ko'plab murakkab mavzularning borligi; matematika fanini hayotga tatbiqlari bilan bog'lab o'tishga, o'quvchilarga mazmunli, sodda va qiziqarli shaklda yetkazib

berishga diqqat-e'tibor berilmagan; -o'quvchilar darsliklardagi misol masalalarni o'zlashtirishiga intilish, ishtiyoq, mayni paydo qiladigan, mantiqiy, kreativ, ijodiy fikrlashga chorlovchi misollar, masalalar bugungacha o'z aksini topmagan; matematika fanini o'qitishning yangi, samarali metodlari, ilg'or pedagogik texnologiyalarini keng joriy etish talab darajasida emas; - matematika fanining ilmiy metodik ta'minoti yetarli darajada ishlab chiqilmagan;

-o'qituvchi va pedagoglarning metodik ta'minotini takomillashtirish, matematika fani o'qituvchilari va mutaxassislar uchun masofadan o'qitish kurslari keng joriy qilinmagan; - mavjud oliy ta'lim muassasalarida matematika fani yo'nalishida o'qituvchi, pedagog, kadrlarni tayyorlash sifati hozirgi kun talablariga xos kelmasligi matematika fanini o'qitishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos tarzda yangilashni taqozo etmoqda.

Natijalar:

Matematika fanidan "Matematikaning rivojlanish davrlari" mavzusi o'rganilgandan so'ng o'quvchilarga "Guruhlarda ishlash texnologiyasi"ni qo'llash.

Ushbu metod yakka tarzda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham amalga oshishi ham mumkin. Bu texnologiya yordamida o'quvchilarning jamoada ishlash malakalari shakllantiriladi, xotirasi

mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, bilim ko'nikmasi yanada mustahkamlanadi. Matematika darslarida o'quvchilarning fikirlash, aqlni charxlash, mustahkamlash niyatida topshiriqlar

taqdim etish mumkin. Bugungi kunda innovatsion texnologiyalardan foydalanish sohasidagi muhim yo'nalishlardan biri interfaol ta'lim va tarbiya metodlarini joriy etishdan iborat.

Muhokama:

Innovation texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini yanada

takomillashtirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi va talabalarning o'quv bilish faoliyatini oshirishga yordam beradi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-bilish faoliyatini tashkil qilish, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun, dastlab, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi

texnologiyalarni tanlay bilishi, o'quv tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi zarur. O'qituvchi dars vaqtida boshqa ma'lumotni taqdim qilish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga doir qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan intilishini oshiradi, balki o'quvchilarning erkin o'qishini talab darajasida

rivojlantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi. Innovatsion texnologiyalarni qo'llash natijasida o'quvchilarning erkin fikrlash, tahlil qilish, xulosalar chiqarish, uni asoslangan tarzda himoya qila bilish, sog'lom muloqot, munozara, bahs olib borish malakalari

takomillashib, shakllanib boradi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, matematika darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanishdan assosiy maqsad, o'quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas'uliyatni sezish, tahlil qilish matematika darslarini yanada kengaytirish ushbu yo'lda innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanishni kuchaytirishdir.

Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish, ta'lim samaradorligini yanada shakllantirish uchun tinimsiz izlanish hozirgi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq qilish pedagoglar oldida turgan muammolardan biri hisoblanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.N. Muminova, M.A. Maksumova «Kasbiy etika va etiket», uslubiy qo'llanma, T.,2006.
2. I. A. Karimov «Istiqlol va ma'naviyat» T.,1994.
3. I. A. Karimov «O'zbekiston buyuk kelajak sari» T.,1998.
4. N. E. Muhammadiyev «Kasb etikasi va estetik madaniyati»- Toshkent,1998 y.
5. M. Abdullayev, E. Xakimov «Vvedeniye v etiku»-Namangan, 1998.
6. Abdulla SHER «Axloqshunoslik» Ma'ruzalar matni, Toshkent, 2000
7. V.G. Fedsov «Kultura servisa» Uchebno-prakticheskoye posobiye - M., «PRIOR», 2001.
8. A.A. Avloniy «Turkiy guliston yohud ahloq», T. 1992.
9. Y. Y. Petrunin, V.K. Borisov «Etika biznesa» M., «Delo»,2000.
10. S. S. Gulomov «Tadbirkorlik va kichik biznes» - T., «Shark», 2002.

ANIQ FANLARNI O'QITISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Raxmatullayeva Gulnoz Yusupovna
IIV Surxondaryo akademik litseyi
Fizika fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Mamlakatimiz ta'lim tizimida aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb mavzu. Axborot texnologiyalari bu – o'quvchilarga nafaqat bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni, balki shaxsiy vazifalarni ham egallashga yordam beradigan va ularning bilimiga bo'lgan qiziqishini qondirishga yordam beradigan butun dunyo bo'ylab ta'lim vositasidir. Pedagogik-psixologik tadqiqotlarga ko'ra, axborot texnologiyalari o'quvchilarning nazariy, ijodiy tafakkurini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. O'quv jarayonida mavzular slaydlar va tasvirlar asosida yoritib berilsa o'quvchilarning eslab qolish qolishiga samarali yordam beradi. Ushbu maqolada aniq fanlarni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Aniq fanlar, axborot texnologiyalari, zamonaviy ta'lim, rivojlanish, ta'lim tizimi, interfaol metodlar.

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'lim tizimi uchun yaratilmagan, ammo aynan shu texnologiyalar ta'lim inqilobiga olib keldi.[1]

Axborot–kommunikatsiya texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishning asosiy maqsadi bugungi axborot olamiga xos bo'lgan yangi turdagi ta'lim faoliyatining paydo bo'lishiga yordam berishdir. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchining birinchi tajribasi- ta'lim olish kuchlarini sinash bosqichida faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va o'quvchi ta'lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoit yaratish, uning salomatligini va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o'quvchilarning aynan mana shu sifatleri ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo'lmoqdamiz. O'z faoliyatimizda ta'lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etib, ulardan foydalanib va o'quv jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha ma'lum tajribalarni to'plab bormoqdamiz. Dars jarayonida multimediya ishlanmalar, o'quv va darsdan tashqari izlanishlarda internet tarmog'i vositalaridan foydalanib, taqdimotlar va loyihalar yaratildi. Demak axborot texnologiyalarini barcha fanlarga qo'llash mumkin. Masalan fizika, kimyo va matematika darslarida "O'yinli masalalar" dasturlarini tayyorlab, foydalanish mumkin. Turli murakkab darajadagi turli xil topshiriqlar har bir o'quvchining idrok

etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Masalalarni yechishda kompyuterli animatsion slaydlardan foydalanish darsning qiziqarliligini oshiradi. Ularning ustunlik tomonlari istalgan paytda masalaning boshiga qaytish mumkin, uning alohida qismlarida to'xtalib, o'quvchilar bilan suhbatlashish, ularning fikrlarini tinglash mumkinligidan iborat. Shunday slaydlarni yaratish uchun internetdan olingan animatsion kartinalardan ham foydalanish mumkin.

Power Point dasturi yordamida yaratilgan taqdimotlar ta'lim jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanish juda samarali shakli hisoblanadi. Taqdimotda asosiysi –axborotlilik, ko'rgazmaliligi, qiziqtiruvchanligi hisoblanadi. Mazkur dastur orqali turli mavzu va fanlar bo'yicha taqdimotlar yaratishda fotosuratlar, rasmlar animatsiyalar, qo'shimcha axborotlardan foydalanish mumkin [2].

Ta'lim jarayonida o'quvchilar o'quv va amaliy masalalarni yechish uchun interaktiv doskadan foydalanish: fayllar bilan oddiy operatsiyalarni amalga oshirish (yaratish, saqlab qolish, izlash, ishga tushirish) dasturlarda amaliy topshiriqlarni va ijodiy ishlarni bajarishni biladilar, Word Pad, Microsoft Power Point, Microsoft Excel, Microsoft Word, keng foydalaniladigan dasturlarni ishga tushirish, interaktiv doska ekranida matnli va grafik redaktor, testlar, matnlar va tasvirlar, obyektlar bilan ishlash, izlash, oddiy o'zgartirishlarni saqlash, foydalanish va axborotlar hamda ma'lumotlarni uzatishni amalga oshiradilar, mundarija, kataloglar, internetdan foydalanib kichik lohiha va taqdimotlar yaratadilar.

Xulosa qilib aytganda, axborot –kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilarni qiziqarli olamga olib kirishda o'qituvchilar imkoniyatlarini kengaytiradi, bunda o'quvchilar axborotlarni mustaqil ravishda izlab topadilar, tahlil qiladilar va boshqalarga yetkazadilar. O'quvchini axborot bilan ishlashga, bilimni rivojlantirishda zamonaviy innovatsion texnologiyalarning muhim vazifasi hisoblanadi. Aniq fanlarni o'qitish jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish faqat asosiy yo'nalishlari shakllanadi. O'quvchilarning darsdan tashqari ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalardan keng foydalanish birinchi navbatda, turli hisobotlarni tayyorlash, o'z ustida ishlash kabilardan iborat bo'ladi.

REFERENCES

1. Yuldasheva G.I. Axborot texnologiyalari- ta'limsifati kafolatidir. «Экономика и социум» №4(83), (2021). 462-465
2. Yuldasheva G.I., Shermatova Kh.M. The use of adaptive technologies in the educational process. «Экономика и социум» №4(83), (2021). 466-468.
3. O'.O'. Tolipov, M.O'smonboyeva "Pedagogik texnologiya nazariya va amaliyot" O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi nashriyoti. 2005.
4. Aniq fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalar- тема научной статьи по СМИ (медиа) и массовым коммуникациям читайте бесплатно текст научноисследовательской работы в электронной библиотеке КиберЛенинка. <https://cyberleninka.ru/artikle/n/aniq-fanlarni-o-qitishda-innovatsion-texnologiyalar>

BIOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASI

Abdumurodov Boyburi Panjiyevich
IIV Surxondaryo akademik litseyi
Biologiya fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada biologiya fanining kelib chiqishi tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida ma'lumotlar berib o'tiladi. Rivojlanishi bosqichlari hamda fanning hayotimizda tutgan o'rni haqida ham qimmatli ma'lumotlar berib o'tilgan!

Kalit so'zlar: Biologiya, paleontologiya, evolutsiya, ekologiya, molekulyar

Biologiya yunoncha atama bolib lios-xayot, logos-fan demakdir, yaoni u xayot va uning shakillari, tuzilishi, rivojlanish oonuniyatlari thrisidagi fandır.

Biologiyaning tekshirish oboekti o'simliklar, xayvonlar, zamburug'lar, mikroorganizmlar va odamlar xisoblanadi. Biologiya tabiiy fanlar sistemasiga kirib, botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, sitologiya, sistematika, paleontologiya soxalariga bhlinadi. Shuningdek bioximiya, biofizika, genetika, evolyutsiya taolimoti, ekologiya, embriologiya, molekulyar biologiya, biogeotsenologiya soxalari xam biologiya kompleksidagi fanlardir.

Tirik organizmlarning 98% S, O, N, N elementlaridan iborat bhlib boshoa elementlarning miodori juda kamdir.

Tirik organizmlarning muxim xossasi moddalar almashinuvi xususiyatiga ega ekanligidir. Yaoni bir-biri bilan uzviy bolio bhlgan assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayonidir.

Xar bir organizm urchiydi, rivojlanadi, yashaydi va hladi. Bu jarayonda irsiy xususiyatlarni saolab oolish bilan birga tashoi muxit taosirida hzgaruvchanlik xususiyatiga xam ega.

Taosirlanish xam faoat tirik organizmlarga xos xususiyatdir.

Tirik organizm molekula, xujayra, organizm, populyatsiya tur, biogeotsenoz, biosfera darajasida tadoio oilinadi.

Tirik organizm molekula va xujayra darajasida bhlishidan boshlab moddalar va energiya almashinish va irsiy axborotlarni berish oobiliyatiga ega bhjadi. Organizm darajasida esa muxim organlar rivojlanadi. Populyatsiya, tur tiriklikning yuoori darajasi bhlib atrofdagi boshoa tur organizmlar va anorganik tabiat kompleksi bilan chambarchas boliidir. Bu xayotning biogeotsenologik darajasidir. Barcha biogeotsenozlar yiindisi biosferaga birlashadi. Bu daraja moddalar va energiyaning davra bhylab aylanishi rhy beradi va barcha tirik organizmlar uzoaro alooador bhjadi.

Yuoorida aytilganidek biologiya fani tirik organizmlarni hrganar ekan bu faoat nazariy bilimlarini echish bilangina cheklanib oolmasdan amaliy axamiyatga ega bhlgan, yaoni jaxon axolisini soni tobora ortib borayotgan bir vaotda ularni ozio-ovoat, kiyim-kechak va boshoa zarur narsalar bilan taominlashni xam hz oldiga maosad oilib ohyadi. Binobarin sermaxsul xayvon zotlari, hsimlik navlarini etishtirish, hsimliklardan mhl xosil olish, tuproo unumdorligini saolash va oshirish, almashib ekishni joriy etish, kasallik va zararkunandalarga oarshi kurashish, hrmon xhjaligini

saolash va khpaytirish, ovchilik va mhnachilikni thri yhlga solish va boshoa oator muammolarni hz oldiga maosad oilib ohydi.

Ekologiya yunoncha shz bhlib (eykos-yashash joyi, logos-fan) tirik organizmlarning yashash sharoiti yoki tashoi muxit bilan hzoaro munosabatini bildiradi.

Xozir fanda «inson ekologiyasi» degan atama xam bhlib unda insonni atrof muxitga va aksincha muxitning insonga taosirini hrganadi. Demak, ekologiya xam tabiiy fanlar sistemasiga kirib uning oboekti bakteriyalar, bir xujayrali sodda organizmlar, zamburular, hsimliklar, xayvonlar, ularning jamoasi, biosfera va insonlar xisoblanadi.

Keyingi payitlarda suv, xavo, tuproo ifloslanib ketdi, ular hsimliklar, xayvonlar, odam xayotiga xam xavf tudirmooda. Insonlarni faoliyati biosfera hzgarishiga tezlik bilan taosir etmooda. Shunga khra tabiat muxofazasi bosh masala bhlib oolib, tabiatdagi xar bir turning biotik va abiotik aloalari ustida kuzatishlar olib borish, undagi sabab va oobatlarini aniqlash kerak bhlib ooldi, buni ekologiya fanisiz xalo oilib bhlmaydi. Bular ekologik muammolar xisoblanib mintaoaviy (global), maxalliy (lokal) guruxlariga ajiraladi.«Atmosferaning dimioishi» xodisasi, azon oavating siyraklashishi, chuchuk suv muammosi, pestitsidlardan foydalanish muammosi, foydali hsimlik va xayvon turlarini saolab oolish va uni davlat muxofazasiga olish, ohrioxonalar, zakazniklar, milliy bolar, botanika bolarini tashkil oilish kabilan global muammolarga kiradi. Muayan mintaoada xavo va suvni ifloslanishi, tuprooning erroziyasi, yaylovlarni ishdan chioishi, hrmonlarni kesish mintaoaviy (regional) muammolardir. Masalan: orol va orol oldi ekologiyasidir.

Ozbekistonda ekologik xavfsizlikni taominlash davlat darajasidagi eng muxim vazifalardan biridir. Xozir atrof-muxitni muxofaza oilish, tabiiy resurslardan ooilona foydalanishning Ozbekistonda 2005 yilgacha mhljallangan dasturi ishlab chioarilgan. Binobarin biologiya tirik organizmlar thrisida nazariy va amaliy masalalarni xal oilishga xizmat oilsa, ekologiya kelajakda solom avlod etishtirish, tabiatni muxofaza oilish bilan bolangandir, yaoni insonlar ixtiyojini thla oondirishga oaratilgandir.

Inson kosmosga chiooan davrda biologiya fani oldiga yangi vazifalar ohyilmooda. Bu kosmonaftlar uchun kerakli bhlgan barcha narsalarni kosmos kemada vujudga keltirishdan iboratdir. Olimlarning fikri bhyicha insoniyat «biologiya asriga» kirib bormooda. Shunday oilib biz yoshlar, tirik tabiatni rivojlanish oonuniyatlariga asoslanib, hlik tabiat oonuniyatlarini hrganib mustaoil respublikamiz oldidagi biologiya va ekologiya fani bilan bolio bhlgan muammolarni echishga yordam bermoimiz kerak.

Biologiya - bu tiriklik xaqidagi fan bolib materiyaning malum bir shakli sifatidagi tiriklikning yashash va rivojlanish qonuniyatlarini organadi. Biologiya atamasi 1802 yilda bir-biridan mustasno frantsuz olimi J. B. Lamark va nemis olimi G. R. Treviranus tomonidan fanga kiritilgan.

Insoniyat azaldan tiriklikka qiziqish bilan qaragan. Xayotga, tiriklikka bolgan qarash ham faqatgina ruxiy olam tushunchalari nuqtai nazari bilan talqin etildi. Shuning bilan birga xar xil kuzatishlar natijasida dunyoviy ilm malumotlari ham toplanib borildi. Tirik tabiatni organish dexkonchilik ishlarini rivojlantirishda oz aksini topdi. Insoniyatning kop asarlik tajribasi tabiatni organish sohasida kopingina amaliy

natijalar berdi. Shu amaliy natijalar noxiyasida biologiya ham fan sifatida shakllana bordi. Biologiya fanining shakllanishi va rivojlanishi sodir boldi. Biologiya fanining tarixiy rivoji ruxiy olam fanlari, diniy qarashlar va moddiylikka asoslangan fikr-mulohazalar asosida roy berdi. Dastavval qadimgi yunon faylasuflari tabiat xodisalarini va dunyoni tabiiy kelib chiqishini izohlashga moddiylik asosida yondoshdilar. Demokri barcha olik va tirik jismlar atomalardan iboratligini xamda material tanacha hususiyati shu atomlar kattaligi, shakli ularning joylashish tartibi va miqdoriy nisbatlariga boliqligini oqtirdi.

Aristotel (20. 384 - 322 y) dunyoning real mavjudligi va uni anglab olish mumkinligini takidladi. U biologiya sohasida kop ishlar qildi va hayvonlarning 510 turini izohlab, ilk bor ular tasnifini keltiradi. U tabiatning umumiy uygunlik va rivojlanishi jarayonida murakkablashishi kabi oyalarni ilgari surdi. Tabiatda ozgarishning mavjudligi va uning qay tarzda roy berishi azaldanoq faylasuf va tabiatshunoslik uchun qiziqarli soha bolib kelgan va bir-biriga qarama-qarshi metafizik hamda dialektik qarashlar mavjud bolgan. Metafizikaga kora tabiatdagi har qanday hodisa ozgarmas, turun ozgarish sodir bolsada, son jihatdan bolib, buyum va hodisaning tub manoda hossasi ozgarmas qoladi. Organik olam haqidagi metafizik dunyoqarash kreationsizmlar. Kreationsistik oyaga kora ilohiy kuch osimlik, odam va hayvonni yaratgan, bolib, barcha tirik mavjudot paydo bolganidan ozgarmagan va ozgarmaydi. Dialistik dunyoqarashga kora borliq muntazam ravishda ozgarib turadi, qarama-qarshiliklar kurashi tufayli rivojlanadi va miqdor ozgarishlari yangi sifat ozgarishlariga olib keladi.

Kopgina qadimgi mutafakkirlar (Gipokrat, Demokrit) tirik moddalarning tabiiy kelib chiqishi va evolyutsiyasi hamda yashash uchun kurash oyalari ilgari surib, dialektik nazariya asosida fikr yuritganlar.

Biologiyaning shakllanishi va rivojida keskin davr buyuk ingliz olimi Ch. Darvinning sodda shaklidan murakkabroqqa asta-sekin milliard yillar davomida, er evolyutsiyasi nazariyasining yaratilishi bilan boshlandi. Bu nazariya osimlik va hayvonot olamidagi barcha murakkab jarayonlar haqidagi tushunchalarni tubdan ozgartirdi va qayta shakllantirdi. Biologiya fanining rivojlanishi jarayonida mavjudotlar shakllarining tuzilishi, faoliyati, taraqqiyoti, evolyutsiyasi va ularning atrof-muhit bilan munosabatini chuqur organuvchi tarmoqlar vujudga keldi. Tirik tabiatdagi barcha jarayonlarni ilmiy nazariyalarga asoslangan holda organizm qismlari va organizmdagi yaxlit uyunlashgan faoliyat sir-asrorlarini va umuman tiriklikning kelib chiqish, evolyutsiyasini, unga xos belgi va hususiyatlarini chuqur talqin etish, biologiyaning muhim vazifalaridan biridir.

Tiriklikning tub mohiyatlaridan biri xar bir organizmga xos bolgan irsiy xususiyatlarning uning avlodlariga otishi bilan shu organizmlarga xos xususiyatlarning saqlanishdan iboratdir. Bu tiriklik mavjudot tarkibiy qismining oz-ozidan hosil bolishini taminlovchi jarayonlar tufayli nuklein kislotalar faoliyatlari asosida roy beradi. Tirik mavjudotlarga ozgacha belgilarning paydo bolishi, yani ozgaruvchanlik xosdir. Bu jarayon ham irsiyat moddasi - nuklein kislotalardagi ozgarish natijasida sodir boladi. Yuqorida bayon etilgan tiriklikning barcha belgi va xususiyatlari qatorida sharoitga moslashish, oz-ozini boshqarish, hosil qilish hamda ichki muhit sharoitining barcha korsatkichlarni turun holatda saqlash yani organizm gomeostazini belgilab

berish kabi murakkab jarayonlar majmui xar bir tirik mavjudot uchun xos bolgan belgilarning zamonaviy tushunchasi hisoblanadi.

Kurrai zamindagi turli-tuman osimlik va hayvonot dunyosi shundaygina tarqalib qolmay, balki uning tarqalishini ozaro uzviy bolanish hosil qilgan yagona hamkor sistema bunyod etadi. Bu sistema yaratuvchilar, istemolchilar, organik moddalarni parchalovchilar hamda muhitning qisman tirik bolmagan tarkibiy qismlarini oz ichiga oladi. Tarkibiy qismlar orasidagi munosabat va shu jarayonda insonning orni muhim ahamiyatga egadir. Munosabatlararo jarayondan inson oziga naf chiqarish bilan mavjudotlar va atrof-muhit ortasidagi mutanosiblik aloqasining buzilmasligi ekologiyaning dolzarb masalasi tarzida organiladi.

Biologiya fani bolusi agronom, seleksionerlarning shakllanishida dunyoqarashidagi ilmiy-tabiyy biri hisoblanadi. Zamonaviy bi-ologiya bir tomondan xayot faoliyatining fizik-ximiyaviy asoslari va sistemali mexanizmlarni anglatuvchi bilimlarining tez rivojlanayotganligi bilan ifodalansa, ikkinchi tomondan biologiyaning sotsial mohiyati ortishi, yani biologiyaning jamiyat xayoti hamda uning organish obekti hisoblanishi bilan uzviy boliqligi ortib bormoqda.

Biologiyaning rivoji bilan uning turli tarmoqlari ozining taraqqiyot yonalishi bolgan alohida fan sifatida shakllanadi. Osimlik olamini-botanika, mavjudotlari tuzilishi va faoliyatini anotomiya, gistologiya, fiziologiya, irsiyatning genetikasi, organik olamning tarixi rivojlanishini evolyutsiya, mavjudotlarning ozaro va atrof - muhit bilan uzviy aloqasini biologiyaning ekologik tarmoqlari organadi.

Shuning uchun ham xozirgi biologiya tiriklik haqidagi murakkab fanlar majmuidan iboratdir.

5. Mavjudotlar guruhi orasida ozaro oxshashlik va farqlar bolishidan katiy nazar ular, yani barcha tirik mavjudotlar oz tirik-lik darajasiga egadir. Xar bir organizmning tarkibi kimyoviy modda birikmalaridan iborat. Shu moddalar organizmning eng sodda tashkiliy darajasi xujayraning asosini tashkil etadi. Xujayralar oz navbatida organizm uchun xos bolgan azo va toqimalarni, ularning ozaro murakkab munosabati bir butun yaxlit organizmni hosil qila-di.

L Norboyeva, [24.01.2024 15:06]

Tirik mavjudot tuzilmalarining bir tartibda ekanligi haqidagi tushuncha tiriklikning tashkiliy darajasida oz aksini topadi. Tiri-klikning molekulyar, sub xujayraviy toqima va azo, organizm, popu-lyatsiya-tur, biogeotsenotik va biosfera darajalari tafavvut etiladi.

6. Biologiyaning turli sohalarida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan keng foydalaniladi. Kuzatish metodi, taqqoslash metodi, tarixiy metod, eksperim ntal metod, modellashtirish metodi. Kuzatish metodi organizmlar va ularning atrofidagi muhitda roy beradigan xodisalarni tasvirlash va taxlil qilish imkonini beradi.

Biologiyada boshqa fanlardagi kabi kop muammolar, oz echimini kutayotgan masalalar, tirik tabiat sirlari mavjud. Bu muammolar birinchidan molekularlarning tuzilishi va funktsiyasini aniqlash: ikkinchidan, bir va kop xujayrali organizmlarning rivojlanishi tartibga solish mexanizmlarini bilish; uchinchidan, organizmlar shaxsiy rivojlanishdagi irsiyat mexanizmlari, yani oqsil biosintezidan xujayra hosil bolguniga qadar tabaqalanishni oydinlashtirish; tortinchidan, organizmlar tarixiy rivojlanishini aniqlash; beshinchidan, erda hayotning paydo bolishi muammosini echish va tajribada

isbotlash; oltinchidan, insonlarning tabiatdagi korsatadigan ijobiy va salbiy tasirini bilish; ettinchidan odamning paydo bolishi bilan ochiq bolgan bazi muammolarni xal etishdan iborat, yuqorida qayd etilgan muammolarni echish biologiya fani oldida turgan asosiy vazifadir. Lekin biologiya fani nazariy muammolarni echish bilan cheklanib qolmasdan u juda muhim amaliy ahamiyatga ega bolgan muammolar echishda ham faol ishtirok etadi.

Adabiyotlar:

- 1.A. T. Gafurov. Darvinizm T. : «Oqituvchi», 1992.
- 2.M. Tuxtaev, A. Xamidov. Ekologiya asoslari va tabiatni muxofaza qilish T. : 1994.
- 3.Biologiya. Bibliograficheskiy spravochnik, K. : Naukova dumka 1994
- 4.Grin. N., Staut. U., Teylor. D., «Biologiya» Moskva «Mir» 1990 god str. 3-15.
- 5.Turaqulov. E.X., G`ofurov. A.T., «Umumiy biologiya» Toshkent 1995 yil 6-10 bet.
- 6.Kemp. P., Aris. K., «Vvedenie v biologiyu» Moskva «Mir» 1998god Str 3-14.

YOSHLARNING TURLI XORIJIY TILLARNI O`RGANISHGA BO`LGAN QIZIQISHLARINI RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH. MUSTAQIL TIL O`RGANISH METODIKASI.

Abdullayeva Yulduz Dilmurod qizi

*Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi O`zbekiston Davlat
Jahon Tillari Universiteti, Xorijiy til va adabiyoti;ingiliz tili fakulteti,
Kechki bo`lim 2-bosqich talabasi*

*Epigraf; Til-dil tarjimoni ekan,
Har bir dilning o`z tili bor
Malak*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yoshlarning turli xorijiy tillarni o`rganishga bo`lgan qiziqishlarini rivojlantirish va takomillashtirish yoritib berilgan. Shu bilan birga maqolada turli xorijiy davlatlarning tillari hamda madaniyati ilmiy qarashlar asosida o`z aksini topadi.

Kalit so`zlar; Til, madaniyat ma`naviyat, maqsad, jamiyat, qiziqish, maqsad, tafakkur, tilshunos, ma`suliyat, kommunikatsiya, iqtidor.

Kirish. Til- deb murakkab muloqot tizimiga yoki shu tizimni o`rganish va ishlatish qobilyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Til o`rganuvchi sohaga esa tilshunoslik deyiladi.

Til- jamiyat boyligi. U jamiyat a`zolarining o`zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma`naviy turmushida ro`y beradigan barcha voqea hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi; til ayni ma`noda asrlar mobaynida shakllandi va mavjud bo`ldi.

Albatta ilk tilning paydo bo`lishi, insoniyatni Qadim zamonlardan beri qiziqtirib keladi. Qadimgi davrlardan boshlab tilning paydo bo`lishi haqida bir qancha nazariyalar ham paydo bo`lgan. Biroq bu nazariyalar tilning kelib chiqish masalasini haligacha uzil kesil hal etkani yo`q. Til asrlar mobaynida shakllanib paydo bo`lishi bilan birga, har qanday mustaqil davlat ham o`z tiliga va madaniyatiga ega bo`ldi. Demak, qandaydir biror tilga ega shaxs, o`zining davlatiga hamda jamiyatiga ega. Bu borada yurtimizni misol qilib oladigon bo`lsak, 1989-yil 21-oktabrda O`zbekiston Respublikasi “Davlat Tili” haqidagi qonunni qabul qildi. Shu bilan birga Davlat Konsitutsiyasining 4-moddasida “O`zbekiston Respublikasida ishlovchi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari rahbarlari o`z xizmati vazifalarini bajarish uchun Respublika davlat tilini yetarli darajada bilishlari shart. O`z faoliyatiga ko`ra aholiga xizmat ko`rsatish bilan bog`liq shaxslar xizmat vazifasini bajarish uchun davlat tilini

zarur bo`lgan darajada bilishlari lozim. O`zbekiston Respublikasi o`zbek tilini bilmaydigan grajdanlarga Respublika davlat tilini bepul o`rgatish va o`qitishni ta`minlaydi”. Shunday ekan har bir mustaqil davlatning o`z tili bor, misol uchun AQSH davlatiniki ingliz tili, Rosiya davlatiniki rus tili, Germaniya davlatiniki nemis tili, Hindiston davlatiniki hind tili, Saudiya Arabistoniniki arab tili, Koreya davlatiniki koreys tili, va Turkiya davlatiniki esa turk tilidir. Yuqorida sanab o`tilgan davlatlar va qolib ketkan barcha davlatlar o`zining tili bilan birga madaniyatiga ham egadir.

Asosiy qism. Til va madaniyatning bir-biriga aloqadorligi shundaki, til o`rganadigan kishi ya`ni bo`lajak tilshunos, faqatgina tilning o`zini o`rganibgina qolmay tili o`rganilayotkan mamlakatning madaniyati, milliy fazilatlari va urf odatlarini ham o`rganadi albatta. Chunki har qanday millatning tili bu o`z tarixining xotirasidir. Millat madaniyatining yuksalishi, uning an`analari, qadriyatlari, tarixiy xotirasini namoyon etishda til ahamiyati katta. Til madaniyatning ahamiyatli bir bo`lgi sifatida muloqot jarayonidamilliy madaniyatni aks ettiradi.

Til va madaniyatning o`zaro bog`liqlik g`oyalari tilshunoslik va il falsafasi tarixida katta o`rin egallaydi va bu haqida, tilshunos olim Vilgelm fon Gumboldt (1767-1835) “Garchi til hamma odamlar uchun universal bo`lsada, dunyo tillari bir-biridan farq qiladi va har bir tilda dunyoqarash mavjud” degan g`oyani ilgari suradi.

Darhaqiqat, bir necha tillarni biladigan inson, o`sha tillari o`rganilgan mamlakatlarning madaniyatini ham o`zlashtirgan hisoblanadi.

Qolaversa, bugungi jadal rivojlanib borayotkan zamonda ham xorijiy tillarni puxta o`rgangan yosh kadrlarga talab kun sayin oshib bormoqda. Bu esa albatta yoshlar orasida til o`rganishga bo`lgan qiziqshni oshirishning va targ`ib qilishning asosiy sabablaridan biridir.

Albatta til o`rganishga qiziqish birinchi o`rinda turadi, lekin qiziqish bo`lsayu harakat bo`lmasa shaxsiy rivojlanish ham bo`lmaydi. Shaxsiy rivojlanish uchun esa vaqtni behuda sarflamaslik, undan maqsadlar yo`lida unumli foydalanilishi nur ustiga a`lo nur bo`ladi. Bundan tashqari shaxsiy rivojlanish uchun sizga hech qanday repititor ham kerak bo`lmaydi va siz ortiqcha mablag` ham sarflamaysiz. Bu borada menga 12 ta tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon Benny Luisning til o`rganishga bo`lgan yangicha yondashuvi menda katta qiziqish uyg`otdi. Benny Luis Italiyan tilini o`rganishga juda ko`p harakat qiladi, o`nlab grammatika kitoblarini o`qib tugatadi, turli til kurslariga qatnab ko`radi va juda ham ko`p so`zlarni lug`at sifatida yodlashga harakat qiladi, ammo bu urinishlarning bari besamar ketadi. Shundan keyin u “Tinglab tushunish” metodikasi bo`yicha tilni o`rganishni boshlagan. Qarab turibsizki, 1 yilda Italiyan tilini avtomatik erkin so`zlasha oladiga darajaga yetdi. Huddi shu metodikadan boshqa tillarni ham o`rganishda foydalandi va 3-4 oy Ichida yangi tilda muloqot qiladigan darajaga yetishdi. Natijada esa 12 tilda gaplashuvchi tilshunos va tarjimon darajasiga yetdi. Bu metodika tilni tabiiy usulda o`rganish deyiladi. Tilni o`rganish

ikki xil tabiiy va sun`iy turlarga bo`linadi. Sun`iy usulda faqat lug`at va grammatika o`rganiladi hamda mustahkamlash sifatida turli testlar ishlanadi, tabiiy usulda o`rganish esa qisqa matnlarni tinglash, kino multfilmlarni o`rganilayotkan tilda tomosha qilish tavsifiya etiladi va albatta tabiiy usulda muloqot juda ham muhim huddi yosh go`dak tili chiqayotkanda atrofdagi narsalarni ko`rib tinglab o`rganganidek atrofdagilar bilan muoqot qilish talab etiladi. Mana shunda siz ham Benny luisdek mustaqil hohlagan tilingizni o`rganishingiz mumkin aklbatta hech qanday sarf harajatsiz va albatta qisqa mudatda. Bu bilan nima demoqchiman, til o`rganish murakkab emas , qiziqish va harakat bo`lsa bas.

